



Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi  
milliy instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2025, № 1

**DJURAYEV Risbay**  
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda  
№ 0101-tartib raqami bilan  
qayta po'xyatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltiril-  
ganda «Uzluksiz ta'lim»  
jurnalidan olinganligi ko'rsa-  
tilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

*Abdug'apor QIRQIZBOYEV*  
*Uzoqboy BEGIMQULOV*  
*Xolboy IBRAGIMOV*  
*Laylo AXMEDOVA*  
*Roxatoy SAFAROVA*  
*Leyla DJURAYEVA*  
*Dono G'ANIYEVA*  
*Lobar QARAXANOVA*  
*Dusmurod DJURAYEV*  
*Baxodir AKBAROV*  
*Komiljon KARIMOV*  
*Komiljon GULYAMOV*  
*Karimova ZULFIZAR*

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Ziyo ko'chasi,  
5-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **X.I.Ibraimov**  
Uzluksiz ta'lim tizimida ta'limiy qadriyatlar va ulardan foydalanish
- 8 **R.X.Djurayev**  
Uzluksiz ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarda ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirish
- 12 **M.E.Inoyatova, M.A.Yuldasheva**  
Adabiyot darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish
- 18 **G.V.Raxmatullayeva**  
Oliy ta'lim tizimida fizikani o'qitishda STEAM texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati
- 23 **S.U.Ibraximov**  
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini kasbiy-pedagogik tayyorgarligining ilmiy metodologik asoslari
- 29 **M.A.Oodirova**  
Uzluksiz kimyo ta'limida sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'natirilgan vazifalar tizimi
- 33 **Z.Sh.Usmonova**  
Kimyo o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 38 **F.I.Ibragimova**  
O'quv-tarbiya jarayonini loyihalashda bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv faoliyatdan foydalanishning ahamiyati
- 42 **I.E.Shernazarov**  
Ta'limda xalqaro baholash dasturlarini joriy qilishning huquqiy asoslari
- 48 **L.M.Qaraxonova**  
Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda mavzularni o'zlashtirishda raqamli vositalardan foydalanish
- 52 **S.M.Mo'minov**  
Ta'lim muassasalari uchun elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari
- 58 **N.X.Eshankulova**  
Boshqaruv malakasini shakllantirishda ta'lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilish
- 63 **L.I.Berdiqulov**  
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil ta'limining mohiyati

## MA'NAVIY TARBIYA

- 68 **M.U.Ishonqulov**  
Ta'lim-tarbiyaning yaxlit bir pedagogik jarayon ekanligi xususida
- 71 **I.G.Mamajanov**  
Ta'lim muassasalarida sifatli ta'limni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar tahlili

## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 77 **Z.B.Sangirova**  
Tabiiy fanlar o'qitishda 5E modelining tatbiqi va tajribalar orqali o'qitish
- 83 **F.A.Xamroyeva**  
Solo taksonomiyasi yordamida talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish
- 89 **Q.A.Abdiyeva**  
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda 4k ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati
- 93 **Sh.A.Aripova**  
Oliy ta'lim tizimida individual yondashuv asosida menejment ta'limini shakllantirishning pedagogik mazmuni
- 98 **U.B.Saparova**  
O'quvchilarda iqtisodiy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish usullari
- 104 **X.Tojiyev**  
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiyani o'qitish va uning mazmuni
- 109 **Z.R.Jabbarov**  
Talabalarning harbiy muhandislik tayyorgarligi sifatini oshirishning pedagogik mexanizmlarini takomillash-tirishning mazmuni va tarkibiy tuzulmasi



## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIMYI QADRIYATLAR VA ULARDAN FOYDALANISH

**X.I. IBRAIMOV,**

Qori Niyoziy nomidagi TPMI direktori, p.f.d., akademik

*Maqolada uzluksiz ta'lim tizimini qadriyatli yondashuv negizida rivojlantirishga doir masalalar yoritilgan bo'lib, muallif mazkur yo'nalishda o'ziga xos ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqqan, uning asosiy negizini esa umrboqiy milliy-ma'naviy, pedagogik-didaktik qadriyatlarga tayanish tamoyili tashkil etadi.*

**Tayanch iboralar:** uzluksiz ta'lim, pedagogik qadriyatlar, zamonaviy ta'lim-tarbiya, ta'lim mazmuni, milliy mentalitet, ta'limga qadriyatli yondashuvning shakl, usul va vositalari.

*In article questions of development of system of continuous education on the basis of valuable approaches and taking into account the present article of the concept of education developed by the author are taken up, and also the principles of a support on the vital national and spiritual and pedagogical-didactic values are stated.*

*Key words: continuous education, pedagogical values, modern training and education, the content of education, national mentality, valuable approaches to education, receptions and means.*

*В статье освещены вопросы развития системы непрерывного образования на основе ценностных подходов и с учетом разработанной автором настоящей статьи концепции образования, а также изложены принципы опоры на жизненно важные национально-духовные и педагогико-дидактические ценности.*

**Ключевые слова:** непрерывное образование, педагогические ценности, современное обучение и воспитание, содержание образования, национальный менталитет, ценностные подходы к образованию, приёмы и средства.

Ma'lumki, barkamol shaxsni tarbiyalash ko'p qirrali jarayon bo'lib, pedagogika fani oldida turgan mazkur dolzarb va umrboqiy muammo aqliy, intellektual, axloqiy, ma'naviy, jismoniy yo'nalishlarda uyg'un ta'lim-tarbiyaning global masalalari sari yo'naltiradi. Ushbu hayotbaxsh g'oyaning asosini Sharq pedagogikasida qadimdan mavjud bo'lgan komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bog'lab talqin etish masalaning mohiyatini aniqlashda va zamonaviy yechimlarini izlashda o'ziga xos kalit vazifasini o'taydi. Zero, Sharqda bir umrlilik ta'lim-tarbiya g'oyasi qadimdan mavjud bo'lib, hadislarda ta'kidlanganidek, «Beshikdan to qabrgacha ilm izlash»ning zarurligi ajdodlarimizning ongiga



bolalikdan singdirilgan. Komillikning barcha bosqichlari(shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat)ni bosib o'tib, o'z-o'zini rivojlantirib borish Sharqda ta'lim-tarbiyaning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim chuqur, har taraflama ta'lim berishga qaratilgan bo'lib, mutaxassis kadrlarni talab darajasida tayyorlashning turli-tuman shakl, usul, vosita, uslub va yo'nalishlarining mukammal uyg'unligi demakdir. Uning turli komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, muayyan ta'lim texnologiyalari, interaktiv usul va uslublarning ta'lim sharoitiga uzviylik va integratsiya negizida tatbiq etilishi ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlaydi.

Doimiy rivojlanuvchi, o'z-o'zini tarbiyalovchi va o'z ustida muttasil, mustaqil ishlovchi shaxs g'oyasi uzluksiz ta'lim jarayonining markaziy muammosini tashkil etadi.

Jahon hamjamiyatida ijtimoiy-siyosiy vaziyat birmuncha keskin tus olib, yoshlarni ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy tarbiyalash, ularni yot g'oyalardan himoyalash masalasi dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqqan hozirgi sharoitda fuqarolik jamiyatida yashay olish, mamlakat ijtimoiy hayotida mustaqil fikrli shaxs sifatida faol ishtirok etish, o'zlikni anglash, yoshlarni uyg'oq tafakkur sohibi qilib tarbiyalash, ularda qadriyatlar dunyosida erkin yo'nalish ola bilish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish ma'naviy-axloqiy, aqliy-intellektual ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalari sanaladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning milliy-didaktik merosni yalpi o'zlashtirishlariga erishish ularda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni anglash, ular bilan faxrlanish, boy merosimizdan chinakamiga iftixor qila bilish tuyg'ularini qaror toptirishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Ta'limiy qadriyatlarining uzoq tarixiy taraqqiyotga ega ekanligi, o'z takomili davomida ko'plab mutafakkir allomalarning pedagogik tajribalaridagi eng mukammal jihatlarni o'zida aks ettirganligi, bardavomligi va umrboqiyiligini anglash zamonaviy ta'lim oldiga ulardagi mavjud hayotbaxsh jihatlarni tatbiq etishga qaratilgan qator ishlarni amalga oshirish zaruriyatini yuklaydi. Demak, qadriyatlar uzluksiz ta'lim tizimida ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi, mavjud tajribalardan samarali foydalana bilishning ahamiyatli jihati shundaki, xalqimizning teran tomirlaridan oziq olgan mazkur g'oyalar biz uchun qadrdon, ta'lim amaliyotiga tezda singishib ketadi, eng muhimi, milliy kadrlarni tarbiyalash, madaniyatlararo muloqot muhitida o'z milliy-ma'naviy qiyofasiga ega shaxsni tarkib toptirishga, ta'lim-tarbiyani chin ma'noda yuksakka ko'tarishga xizmat qiladi.

Qayd etilgan vazifalarni to'laqonli ado etish har bir pedagogdan yuksak



axloqiy va kasbiy bilimlarga ega bo'lishni, ma'naviy-axloqiy hamda pedagogik qadriyatlarni mukammal o'zlashtirishni talab etadi. Ta'limiy qadriyatlar zamonaviy ta'limga qadriyatli yondashuv va munosabatni o'zida ifodalab, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlariga faol tatbiq etishni talab qiladi. Xususan, ma'naviy-axloqiy va pedagogik qadriyatlarga asoslangan holda, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda quyidagilarga alohida ahamiyat berish kerak:

1) uzluksiz ta'lim tizimiga qadriyatlarning zamonaviy talqinini tatbiq etish, ta'lim tizimiga muayyan islohotlar kiritish;

2) kadrlar tayyorlash jarayonida jahon ta'lim standartlariga javob beruvchi ilg'or tajribalarni hisobga olish;

3) uzluksiz ta'limni shaxs, davlat va jamiyatni iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnik, madaniy-ta'limiy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha sifatida e'tirof etish;

4) uzluksiz ta'limning barcha turlari va bosqichlarida jamiyat buyurtmasiga ko'ra, ma'naviy boy, intellektual yetuk, axloqan mukammal yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish;

5) ta'lim oluvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim tizimini takomillashtirish, bu orqali ta'lim jarayoniga qadriyatli munosabatlarni singdirish;

6) ta'limga oid qonun va me'yoriy talablarni jahon standartlari va milliy pedagogik merosimizni hisobga olgan holda, uzluksiz va uzviy tarzda yangilab, mukammallashtirib borishga e'tibor berish;

7) ta'limiy qadriyatlarni o'qitishning barcha turlari va bosqichlariga joriy etish;

8) uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishga e'tibor qaratish;

9) ta'lim jarayoni subyektlarini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni (3-bobiga qarang) negizida ijtimoiy himoyalashga alohida ahamiyat berish. Azaldan xalqimizning qoniga bag'rikenglik, saxiylik, mehr-muruvvat ko'rsatish, barchada o'zini «hazrati inson» sifatida anglash va bundan faxrlanish tuyg'usini tarkib toptirish kabi qadriyatlar singib ketgan. Mustaqillikka erishishimiz bilan mazkur qadriyatlar qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yildi. Xususan, qonunimizda «ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish» (20-modda), «ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish» (21-modda), «etim bolalarni, ota-onalarining yoki qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish» (22-modda), ijtimoiy yordamga va tiklashga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish haqidagi me'yoriy talablar (24-modda) qat'iy negizda kuchga kiritildi;



10) mentalitetimizga xos bo'lgan quyidagi qadriyatlarni ta'lim jarayoniga uzluksiz va uzviy ravishda tatbiq etish va rivojlantirishga e'tibor qaratish:

– shaxsning ma'lumotlilik darajasini o'stirish, uning dunyoqarashi, bilim doirasi, muayyan axloqiy qadriyatlarga nisbatan e'tiqodi, hayot mazmuni hamda olam-odam va komillikning azaliy nisbati haqidagi qarashlarni rivojlantirish;

– insonning rivojlanish darajasi, uning aqliy va jismoniy jihatdan o'z salohiyati, imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan xatti-harakatlari hamda qobiliyatini o'stirish kabilar.

Qadriyatlarni o'rganish ta'lim jarayonida har qanday qadriyatli ob'ekt hamda subyekt orasidagi o'zaro bog'lovchi vosita bo'lib, uni komillikka eltuvchi o'ziga xos yo'l va yo'nalish vazifasini o'taydi. Masalan, o'quvchi va talaba uchun o'zi ta'lim olayotgan maktab va oliygoh binosi, sinf xonasi, o'quv zallari, sport inshooti, ma'naviyat va ma'rifat xonasi, axborot-resurs markazi, tamaddixona kabilar qadrdon ilm maskanining o'ziga xos tarkibiy qismi hisoblanib, ta'lim oluvchilar uchun bilim va ma'rifatni egallashga yo'naltiruvchi muhim vositachi vazifasini o'taydi. Dars jarayonida esa ta'lim oluvchi uchun o'quv darsliklari, dars jarayoni, o'quv jihozlari, plakat, maket, kompyuter, planshet kabilar kerakli o'quv vositasi vazifasini bajaradi. Shuning kabi o'qituvchi va pedagoglar ham ta'lim jarayonida vositachi sifatida ishtirok etib, o'quvchi nazdida bebaho qadr-qimmatga egadir. Ular o'tayotgan darslari, berayotgan bilimlari, hayotiy o'g'itlari sababli o'quvchi va talabalar uchun qadrlil inson sanaladilar.

Qadriyatlarni o'rgatishda o'qituvchi ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, nazorat varaqalari, slaydlar, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz, ustoz-shogird an'analari, milliy bayramlar aks etgan fotosuratlar hamda qayd etilgan mavzuni yorituvchi, boy tarixiy merosimizga bog'ishlangan videofilmlardan foydalanadi. Yurtimizdagi muqaddas qadamjolar, uy-muzeylar, tarix, san'at va adabiyotga oid qadriyatlarimizni o'zida jamlagan muzeylar, xalqimizning zahmatkash qo'llari bilan barpo etilgan bog'u rog'larning ahamiyatini anglatish uchun ularda sayr qilish ham o'quvchi-talaba ma'naviy-ruhiy olamini boyituvchi qadriyat sifatida ta'lim vositasi vazifasini bajaradi.

Qadriyatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bunday vositalar ta'lim oluvchida tahlil qilish, umumlashtirish, eng muhimini ajrata bilish, mustaqil fikrlash, shaxsiy xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, o'zlikni anglash, o'z qarashlari va axloqiy tiynatini mukammallashtirish hamda isloh qilish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.



Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur deb hisoblaymiz:

– xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlari, fe'l-atvori mazmunini umummilliy ko'lamda chuqur mulohaza qilish;

– yoshlarni so'z va ish birligiga rioya qilish ruhida tarbiyalash, ularda va'da-bozlik, maqtanchoqlik, loqaydlik kabi illatlarga qarshi kurashish fazilatlarini shakllantirish;

– ma'naviy yaxlitlik falsafasini yoshlar turmush tarziga singdirish, ular fe'l-atvorining mazmun-mohiyatiga aylantirish, fikrning so'zga, ommaning Vatan manfaatlariga mutanosib bo'lishiga erishish;

– ta'lim oluvchilarda o'z fe'l-atvori, sa'y-harakatlari, intilishlari, ma'naviy qiyofasini taftish qilish, o'z-o'zini nazorat qilish hamda qayta tarbiyalash malakalarini shakllantirish, ularda o'z ustida doimiy ishlash, o'zidan qoniqmaslik fazilatlarini tarkib toptirish;

– yoshlarda ezgulik yo'lida fidoyilik, yaxshilik qilish, o'zgalar tashvishiga yelkadosh bo'lishga tayyor turish kabi fazilatlarni kamol toptirish;

– o'quvchi va talabalarda Vatan ravnaqi, xalq farovonligini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yish xislatlarini rivojlantirish;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida yoshlarda milliy ong va milliy g'ururni o'stirish;

– yoshlarda oila, millat va Vatan oldidagi burch va vazifalariga nisbatan mas'uliyatni oshirish;

– insof, adolat, halollik, vijdon tamoyillari negizida yoshlar tarbiyasiga uzluksiz ravishda islohotlar kiritib borish.

Uzluksiz ta'lim jarayonida qayd etilgan qadriyatlardan samarali foydalanish, shubhasiz, o'zining tegishli ijobiy samarasini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedgogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped. fan. dok... diss. - T.: 1998.-288 b.

2. To'lanov J. Qadriyatlar falsafasi. - T.: O'zbekiston, 1998. - 278 b.

3. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - T.:Ma'naviyat, 2002. -400 b.

4. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. - T.: Akademiya, 2011. - 340 b.



## UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA TA'LIM OLUVCHILARDA IJTIMOIY-MA'NAVIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

**R.X. DJURAYEV,**

Qori Niyoziy nomidagi TPMI bo'lim mudiri,  
p.f.d., akademik

*Maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarda ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirishning zaruriyati, bunda vatanparvarlik tarbiyasining tutgan o'rni yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** uzluksiz ta'lim, ijtimoiy-ma'naviy madaniyat, tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi.

*В статье раскрывается роль воспитания патриотизма, необходимость формирования у учащихся социально-духовной культуры в процессе непрерывного образования.*

**Ключевые слова:** непрерывная образования, социально-духовная культура, воспитания, воспитания патриотизма.

*The article highlights the need for students to form a socio-spiritual culture, as well as the education of patriotism in the process of continuous education.*

**Key words:** continuous education, socio-spiritual culture, education, education of patriotism.

Asrlar mobaynida xalqimizda yuksak ijtimoiy-ma'naviyat madaniyat, adolatparvarlik, ma'rifatparlik kabi ezgu fazilatlar Sharq madaniyati va islom ma'naviyati bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlandi. Shuningdek, mazkur falsafiy-axloqiy ta'limotlar xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi. Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu Sharq madaniyati va islom ma'naviyati bilan uzviy aloqada Ahmad Yassaviy, Bahovaddin Naqshband, al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimiz merosiga tayangan holda shakllanishi lozim.

Biz uzluksiz ta'lim jarayonida yoshlarda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashimiz, yuksak xalq ijtimoiy-ma'naviy madaniyati nima ekanini yoshlar ongiga singdirishimiz zarur.

Ijtimoiy-ma'naviy madaniyat nima? – Ijtimoiy ma'naviy madaniyat jamiyatda shakllangan va e'tirof etilgan axloq-odobga oid me'yorlar, yuksak ma'naviy-ma'rifiy qarashlar va bilimlarga asoslangan madaniy prioritet, o'zlikni anglash, Vatan tuyg'usiga ega bo'lish demakdir.

Bunda bolalikdan olingan ta'lim-tarbiya, o'quv jarayonining muhim vositalari hisoblanuvchi darslik, qo'shimcha o'quv materiallari, dars ishanmalari muhim



o‘rin tutadi. Birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fanlarni, jumladan, «Tarbiya» fanini o‘qitishda g‘oyaviy mafkurani tarbiyalash, bunda nomlari tarix zarvarag‘iga oltin harflar bilan bitilgan, har birining yaratgan asarlari o‘zbek milliy madaniyatida katta o‘rin egallagan ulug‘ mutafakkirlarimizning ma‘naviy-axloqiy merosidan foydalanish zarur.

Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashning eng muhim omillaridan biri vatanparvarlik tarbiyasi bo‘lib, yoshlar qalbiga Vatan tuyg‘usini singdirish yo‘li bilan ularda ijtimoiy-ma‘naviy madaniyatni tarkib toptirish mumkin. Otabobolarimizning hayot yo‘li, Vatan himoyasi yo‘lida hayotini fido etgan tarixiy qahramonlarning ibratli jasoratlari, allomalarning vatanparvarlik, el-yurt manfaati, baxt-saodati yo‘lida fidoyilik ko‘rsatish haqidagi, mardlik va jasoratni ulug‘lovchi hikmatli so‘zlari va fikrlaridan o‘quv materiali sifatida foydalanish maktabda bolalik va o‘smirlik davrida o‘quvchilarga vatanparvarlik g‘oyalarini singdirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham yosh kadrlarni tanlash va tayyorlashga qo‘yilgan talablarni doirasida vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarini tarbiyalashning zaruriyatini alohida ta‘kidlaydilar: «Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas‘uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishi yuz bermaydi»[1].

«Vatanni sevmok iymondandur» («Hubbul – vatani minal imoni») deya uqtiriladi muqaddas hadisda. Haqiqatan Vatanga muhabbat bilan yongan qalblarda o‘tkinchi, bema‘ni hoyu-avaslariga qiziqish bo‘lmaydi. Bunga vatanparvar, oqil, ma‘rifatparvar, xalq va Vatan ozodligi yo‘lida ham o‘tkir qalami, ham siyosiy faoliyati bilan birdek kurash olib borgan, butun ongli hayotini, hatto shirin jonini Vatan ozodligi yo‘lida qurbon qilgan Abdurauf Fitratning Vatanga samimiy munosabati ifodalangan quyidagi satrlari misol bo‘la oladi: «Ey, ulug‘ Turon... Sen mening Vatanimsan... Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq- mening o‘limim. Sening uchun o‘lmoq - mening tirikligimdur. Panohim, sajdagohim, umidim! Yotlaring seni shu kuyga soldilar... Zolimlar seni kimsasiz ko‘rdilar! Yo‘q, sen kimsasiz emassan. Mana men, chin ko‘ngil bilan sening yo‘lingda o‘lurg‘a rozi... Men sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman.

Ey, turklikning muqaddas o‘chog‘i! O‘lim sening o‘limingni istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga!».

Ulug‘ allomalar ijodida xalq va Vatan tushunchasi hamisha yonma-yon keladi. Odamlarga yaxshilik qilish – Vatanga xizmat qilish deb tushuniladi. Demak, Vatanni sevmok – bu o‘z elini sevmok va uning xizmatiga shay turmoqdir:



Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,  
Ham jonlarig'a moyai darmon bo'lg'il[2] – ya'ni, «Zamon ahlining jismida jon bo'l, ham jonlariga darmon bo'l» deya uqtiradi she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy.

«Vatanni shod etish uchun ko'p qayg'uring» deya ta'kidlaydi oqila momolarimizga ilm-ma'rifat bergan ustoz Dilshod Barno. Vatanga muhabbat va fidoyilik tuyg'usi uning she'rlarida o'zgacha shukuh bilan jaranglaydi:

O'zungni o'ylama tanho, el ichra sodiq bo'l,

No'xotcha yetsa ziyoning, o'zing hayotdan kech[3].

Vatanga va xalqqa muhabbat egizak tushunchalardir. Kimki Vatanni sevsa, xalqning og'ir-yengil yumushiga kamarbasta, inson zotiga mehr-muhabbatli, yurt ravnaqi yo'lida g'ayrat-shijoatli bo'ladi. Yurt ozodligi va xalq farovonligi yo'lida fidoyilik ko'rsatib, xalqqa yaxshilik qilishni shiori deb bilib, shu bilan xalq nazar-e'tiborga tushgan shoir Berdaq ta'kidlab aytganidek:

Yaxshi bo'lsang, murodingga yetarsan,

Necha manzil, xavfli joydan o'tarsan,

Yomon bo'lsang, ohu fig'on etarsan,

Yomonni uchratsang, daf qil xalq uchun [1].

Insoniyat tarixida odamzodga yaxshilik qilishni odat qilgan, bu fazilatni insonning eng muhim fazilati sifatida yuksaklarga ko'targan mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning o'mini alohida qayd etish joizdirki, u xalqning salomatligi uchun qayg'urib, kasal kishilar dardiga davo izlab, hamisha darbadarlikda hayot kechirgan ulug'alloma hisoblanadi. «Arastuning shogirdi ham bo'lmasdan, o'zining aql-iste'dodi va zehni bilan Arastuga barobar»[4] bo'lgan Abu Ali Ibn Sino (980-1037) tibbiyot va fanning turli sohalariga oid bilimlardan tashqari, insonga xos go'zal fazilatlarga oid go'zal pand-nasihatlarni ham meros qoldirdi. Uning fikrlari ma'naviy-axloqiy qadriyatlar sohasida ilg'or qarashlar ilgari surilgani bilan e'tiborga molikdir.

Ibn Sinoning fikricha, «Do'stlik insonning shunday bir holatidirki, bunda boshqa birovga yaxshilik istaladi, shunda inson yaxshilikni o'zi uchun istamaydi, balki uni boshqa birov uchungina istaydi, xolos. Shu holatda kishida boshqaga nisbatan yaxshilik qilishga chaqiruvchi xususiyat paydo bo'ladi. Do'st bu yaxshi ko'ruvchidir. Do'st o'z do'stining xursandligida ham, baxtsizlik kezarida ham qayg'u va shodligiga sherik bo'ladi».

Shu sababli o'z faoliyati misolida insoniyat dardiga shifo izlagan Ibn Sinoning quyidagi fikrini ibratli va ta'sirchan fikr sifatida yoshlarga taqdim etish lozim deb bilamiz: «Kishidagi eng yaxshi xulq-atvor odamlarning qayg'u-hasratiga sherik bo'lishdir»[4].

Yaxshilikni Vatan timsoli bilan bog'lagan inson adashmaydi. Chunki ezgu tushunchalarning barchasi Vatan siymosi bilan uyg'un tarzda idrok etiladi.



Vatan inson ko'z ochib ko'rgan ona maskan, bolalik va yoshligining eng go'zal xotiralari o'tgan bog'u bo'ston, qadrdon qishlog'i, farovon shahridir. Ota-ona, oila, ona tili, mahalla-ko'ya, maktab, madaniyat va ma'rifat, umuman, inson qadrlaydigan va qumsaydigan barcha oliy tuyg'ular Vatan va xalq tushunchasi bilan uyg'unlikda asl ma'no kasb etadi. Vatan farovonligi uning bag'ridagi har bir kishining erkin va ozod, turmush mashaqqatlaridan xoli, bermalol, o'z orzu-maqsadi yo'lida g'ayrat-shijoat bilan mehnat qilish, tabiat go'zalligidan rohatlanish baxtiga erishishga sharoit yaratadi. Shu sababli, dono xalqimiz «Vataning tinch- sen tinch» deb aytadilar.

Ta'kidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarda Vatanga muhabbatni shakllantirishda, yoshlarda ijtimoiy odob-axloqni tarbiyalashda «Vatan tuyg'usi» o'quv predmeti muhim o'rin egallaydi. Ushbu fan bo'yicha o'quv dasturi va rejasida o'quvchilarni Vatanga muhabbatli, oilasi, do'stlari va qarindoshlariga sadoqatli, Vatan xizmatiga kamarbasta, mard va jasoratli, komil inson qilib tarbiyalashga katta e'tibor berilgan.

Umumta'lim maktablarida uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida o'rganiladigan «Tarbiya» fanini o'rganish jarayonida o'quvchilarda Vatan, jamiyat haqidagi tushunchalar kengayadi, hayotiy tushunchalar bilan boyib boradi.

Albatta, «Tarbiya» o'quv predmeti mohiyatiga ko'ra xalqning ma'naviy-axloqiy tarixidan ibrat olishga, bolalarda Vatan tuyg'usini shakllantirishga, ularni xalqimizning eng yaxshi an'analari asosida tarbiyalashga qaratilgan fandır.

Vatanparvarlik tarbiyasida o'quvchilar Vatan tuyg'usi – insonning, xalqning va davlatning kuch-qudratini ta'min etishi, ona tili – ma'naviyat, mustaqillik, faxr-iftixor manbai ekanligi, vatanparvarlik ma'rifati xalq tarixi, madaniyati va bugunki kundagi vazifalarini chuqur bilib olish va ularga rioya etishda namoyon bo'lishi; Vatanga muhabbat turli xalq va mamlakat kishilarini do'stlashtirish, qon-qarindosh qilish qudratiga ega ekanini, aksincha Vatan tarqqiyotiga zid yo'nalishlar, buzg'unchi g'oya va mafkuralar xalq hayotiga xavf soluvchi illat ekanini bilib olishi g'oyat muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yoshlarga donolar o'giti. O'zbekiston yoshlar ittifoqi. Respublika iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash Ulug'bek jamg'armasi. - T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. - 146 b..

2. Alisher Navoiy. Hikmatlar. - «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2006 y. - 223 b.

3. Bilol Aminov, To'lqin Rasulov. Vatan- yurakdagi javohir. - O'qituvchi nashriyoti, 2001 y. - 232 b.

4. Ismoilbek Gasprinskiy. Hayot va mamot masalasi. - T.: Ma'naviyat, 2006. -459 b.



## ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**M.E. INOYATOVA,**

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti «Umumta'lim maktablarining 5-6-sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo'llash metodikasi» innovatsion loyihasi rahbari, pedagogika fanlari nomzodi.

**M.A. YULDASHEVA,**

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti «Umumta'lim maktablarining 5-6-sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo'llash metodikasi» innovatsion loyihasi ijrochisi

*Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari, o'qitishning evristik usullari, badiiy asarni evristik tahlil etish yo'llari hamda adabiy ta'lim berish jarayonida evristik usullarni qo'llashning asosiy mohiyati, shuningdek o'quvchilarning bilimlarini kashfetish bilan birgalikda ularni izlanishga o'rgatish usullari, evristik yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarda tashabbuskorlik bilan birgalikda quyidagi layoqatlarni ya'ni mustaqillik, epchillik, qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarini samarali shakllantirish imkonini berishi tahlil etiladi.*

**Kalit so'zlar:** ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik yondashuv, interfaol metod, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq.

*В данной дипломной работе рассматриваются процессы обучения учащихся творчеству, мышлению и самостоятельному мышлению на уроках литературы, эвристические методы обучения, методы эвристического анализа художественного произведения, а также основная сущность применения эвристических методов в процессе литературного образования, а также как методы обучения учащихся поиску знаний в сочетании с их открытием, задания и упражнения, основанные на эвристическом методе, помогают учащимся проявлять инициативу и совместно развивать у них следующие способности, а именно самостоятельность, ловкость, анализ позволяют эффективно формировать такие способности, как принятие решений.*

**Ключевые слова:** творчество, творческая деятельность, эвристический метод, интерактивный метод, эвристическое обучение, творческая задача.

*This thesis examines the processes of teaching students creativity, thinking and independent thinking in literature lessons, heuristic teaching methods, methods of heuristic analysis of a work of art and the main essence of the application of heuristic methods in the process of literary education, as well as methods of teaching students to search for knowledge in combination with their discovery, tasks and exercises based on heuristic*



*method, help students to take initiative and together they develop the following abilities, namely independence, dexterity, analysis allows you to effectively form such abilities as decision-making.*

**Key words:** *creativity; creative activity; heuristic method, interactive method, heuristic training, creative task.*

Darslarni o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratib tashkil etish o'quvchilarning uzluksiz ravishda o'zlari uchun yangiliklar kashf etishlariga imkon yaratadi. Shu maqsadda qo'llaniladigan savol-javob shaklidagi suhbatlarda o'qituvchi bolalarga tayyor bilimlarni bermay, balki o'quvchilarning avval egallagan bilimlari, hayotiy tajribalari, kuzatishlariga tayangan holda, oqilona savollar orqali ularga yangi tushunchalar, xulosa va qoidalarni o'zlari ochishlari (kashf qilishlari)ga sharoit yaratadi.

Ijodiy layoqatlar – bu shaxsiy fazilatlarining tizimli namoyon etilishi bo'lib, shaxsningi layoqatlari yangilikni yaratish, favqulodda qarorlar qabul qilishida ko'rinadi. Turli olimlar va metodistlar evristik metodni turlicha talqin etadilar va nomlaydilar. Masalan, izohlovchi suhbat, rivojlantiruvchi suhbat, evristik metod, analitik usul, suqrotona suhbat, qisman izlanish usuli kabilar.

Darsda u qadar qiyin bo'lmagan muammolarni hal qilib, birmuncha murakkabroq masalalarni uyga vazifa sifatida topshirish mumkin. Uy sharoitida o'quvchining yetarlicha vaqti bo'ladi va o'z tafakkur tezligi doirasida hayajonlanmay fikrini to'lig'icha muammoning yechimiga qarata oladi.

Ona tili va adabiyot ta'limida o'qituvchi avvaldan evristik suhbat uchun kerakli muammo yoki savollar tizimini tuzib chiqadi. Topshiriq ochiq xarakterda bo'lib, uning barcha uchun birdek yagona «to'g'ri» javobi bo'lmasligi kerak) evristik shakldagi mashg'ulotlar tizimidan foydalanish mumkin. Ular: g'oyani taqdim etish, evristik suhbat, topshiriq tuzish darslari, tushunchalarni konstruktisyalash, ishchan o'yinlar, evristik ma'ruza va seminarlar, konferensiyalar, ijodiy ishlar himoyasi, refleksiv mashg'ulotlar bo'lishi mumkin.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarning afzallik va kamchilik jihatlari ham mavjud bo'lib, o'qituvchi ulardan foydalanishda bu jihatlarni nazarda tutishi va salbiy ta'sirni kamaytirish choralarini ko'rish zarur.

Ta'kidlash zarurki, o'quv topshiriqlarini elektron shaklda ishlab chiqilishi yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etilishida muhim rol o'ynaydi. Vaqtni tejash, hatto guruhi o'yin o'tkazilganida ham passiv o'quvchilar bilan individual ishlashga sharoit yaratadi.

Quyida o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik materiallardan namunalar keltiramiz:

Monitorda ikkita jadval bo'ladi. Har bir guruhdan bir o'quvchi chiqib, topshiriqni bajarishadi. Qaysi guruh birinchi bo'lib, topshiriq asosida jadvalni to'ldirsa, shu guruh g'olib bo'ladi.



Topshiriq. Abdulla Qahhorning «O‘g‘ri» hikoyasida tilga olingan detallarni topib, jadvalga joylashtiring.

Monitordagi jadval tagida beriladigan rasmlar: o‘quvchilar shu rasmlar ichidan asarda keltirilganlarini tanlab, jadvalning bo‘sh kataklariga joylashtirishi kerak.

Monitorda raqamlar ko‘rinib turadi. Guruhlardan bir nafardan ishtirokchilar chiqib, raqamni tanlashadi. Raqam ortida G‘afur G‘ulomning «Shum bola» asaridagi qahramon so‘zlarini rolga kirib o‘qib berishi kerak.

1-raqam: Daryo toshqin, suvlar to‘lqin,

O‘tolmayman-a, yor-yor.

Otim oriq, manzil uzoq,

Yetolmayman-a, yor-yor

2-raqam: Otim oriq, yangi qulunlagan, yukim ko‘p, ikkita devday kishi bitta baytalga mingashsa, uyat bo‘ladi.

3-raqam: Asil umring Sariboyda bekorga o‘tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo‘lganingda yaxshi bo‘lar edi. Ha, mayli, sal o‘zingni tutib olguningcha o‘n-o‘n besh kun ishlab tur. Keyin yo‘lingni topib olarsan...

4-raqam: Qiladigan ishlarim uncha ham qiyin emas. Olmalarga tirgovuch qo‘yaman, to‘kilgan olmalarni terib, qoqi qilaman. Bog‘ qo‘riyman. Ba‘zida xo‘jayinga pul zarur bo‘lib qolsa, xom-xatala olmalarni aravaga ortib, Darvoza, Sariog‘och atroflaridagi bug‘doykor qishloqlarga olib borib sotib kelaman. Molga to‘g‘rab bersa, mol yemaydigan olmalarni cho‘lda, bug‘doy o‘rib turgan dehqonlarga bir qadog‘ini ikki qadoqdan bug‘doyga alishaman.

5-raqam: – Ha, o‘t tushgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o‘tiradimi, duch kelganini qo‘shib, ishqilib, bir chelak bo‘lsa ham suv tashiy beradi-da!

6-raqam: – Hoy, o‘zing jinni bo‘lib qolibsana, o‘g‘lim! Axir, mening dargohimda shamga kun qoldimi? Qator-qator lampalar, o‘zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirquinchi fanorlar qayoqqa ketibdi, kerosinni bo‘lsa, bir yilga yetarligini bochka-bochka zapas qilib qo‘ygan edim. Nimaga sham yoqasanlar!

Navbatdagi topshiriq A.Qahhorning «Dahshat» hikoyasi asosida guruhli ish mashg‘uloti uchun materiallar:

Mashg‘ulot jarayonida mashg‘ulot ruhiga mos musiqadan foydalaniladi. Mustaqil ishlash uchun – 28 daqiqa, guruhning har bir a‘zosining chiqishi uchun - 3-5 daqiqa vaqt ajratiladi.

1-guruh uchun topshiriqlar:

Hikoya kompozitsiyasining xususiyatlarini aniqlang.

Hikoya nechta qismdan tashkil topgan?

Nima uchun muallif hikoyani aynan shunday shaklda tuzgan?

Ikkinchi qismning kompozitsiyasi qanday tuzilgan? Uning o‘ziga xos



xususiyatlari nimada?

Hikoya voqealari qay tarzda rivojlanib borgan?

Xulosalar chiqaring:

(Hikoya 2 qismdan iborat. Birinchi qism ikkinchisi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Birinchi qismda muallif, dillarga g‘ashlik solib uzoq vaqt davom etgan kuz shamolining sirli va noxush tavsifini keltiradi. Tasvirda «shamolning darchalarga bosh urib, uf tortishi» uy ichidagi odamlarga tahdid solayotgan xavfdan darak beradi. Ikkinchi qism Unsinning o‘z uyiga kirishi bilan boshlanib, uning murdasi ortilgan aravaning qishloqdan uzoqlashishiga oid tasvir bilan xotimalangan. Kompozitsiya tadrijiy rivojlanish ko‘rinishiga ega. Bu bilan muallif voqealarning shiddat bilan o‘sib, rivojlanib borganini ko‘rsatgan).

2- guruh uchun topshiriqlar.

Hikoyadagi vaqt va makon tushunchalarini aniqlang.

Unsinning ona yurti (Ganjiravon) dodhoning xonadonidan qaysi jihatlarini bilan farq qiladi?

Dodho xonadonidagi muhitni nimaga o‘xshatish mumkin?

Hikoyada shamol va dodxo uyining darchasi bilan bog‘liq o‘rinlar vaqt va makon tushunchasini aniqlashda qanday o‘rin tutgan?

Hikoyada yana qanday makon (hudud) tasviri mavjud?

Xulosa chiqaring.

(ona yurti Unsinga mehribon ota-onasi va quvnoq dugonalarini yodga soladi, dodxo uyi bo‘lsa sovuq va dahshatli bo‘lib, unda dodxoning o‘lim va go‘riston haqidagi suhbatlarini tinglashga to‘g‘ri keladi. Hikoyada muhim o‘rin tutgan yana bir hudud qabriston bo‘lib, u qorong‘ida do‘ppayib turgan qabrlari bilan juda vahimali ko‘rinadi. Bu yerda qattiq qo‘rquv iskanjasida qolgan yosh qizning o‘takasi yorilib, hayoti fojeali yakun topadi).

Dodxoning zulmidan qo‘rqadigan xotinlari Unsinni himoya qila olmaydilar. Bu xonadon yoshgina Unsinni nobud qiladi).

3-guruhga topshiriqlar:

Hikoya epitetikasi:

1. Hikoya boshidagi qaysi tasvirdan Unsin taqdirining fojiali bo‘lishini bilib olish mumkin?

2. Go‘ristonga borgan Unsin qanday hissiyotlarni qalbidan kechirdi?

3. «Dahshat» so‘zi nimani bildiradi?

4. Unsin obrazini tasvirlashda muallif qanday vositalardan foydalangan?

Xulosalar chiqaring.

4- guruh uchun topshiriqlar:

Hikoyadagi ramziy ifodalar:



1. Hikoyada «Dahshat» soʻzi qanday maʼno kasb etgan?
2. «Tiriklar goʻristoni» tasviri asarda qanday mazmunga ega?
3. «Xuddi oʻlim xavfidan qochganday, bir irgʻab sandalni ochdi-da, oʻzini eshikka urdi» jumalari dodxonini qanday odam ekanligini koʻrsatadi?
4. Hikoyada shamol nima uchun barcha narsalarni buzib yubormoqchidek chiyillab, gʻuvillaydi, vishillaydi, bosh urib uf tortadi?

Xulosalar chiqaring.

(Dodxonning xonadoni uning sakkiz xotini uchun tiriklayin koʻmilgan goʻristondek gap. Chunki ular bu yerda tutqunlikda yashashadi. «Balo-qazodek tikilib turgan dodxo» Unsinga tahdid solayotgan ajal, oʻlimning koʻlankasi kabidir. Unsin unga qarshi tura olmasligi aniq. «Ganjiravon orzusi» – bu shunday hissiyotki, Unsin u orqali oʻz maqsadiga erishishni xohlaydi. Shunday qilib, Abdulla Qahhor nozikkina Unsinning orzusiga qarshi turgan kuchning qudrati va ayni vaqtda umri tugab borayotganini tasvirlaydi.

"Xuddi oʻlim xavfidan qochganday, bir irgʻab sandalni ochdi-da, oʻzini eshikka urdi" jumalari dodxonning aslida juda qoʻrqoq odam ekanligini koʻrsatadi: Dodxo oʻlimdan qoʻrqadi. Shuning uchun soʻnggi daqiqalarini yashayotgan Unsin unga azroilni eslatadi. Unsinning yosh umri bevaqt xazon boʻlishiga dodxo sababchi. U umrida juda koʻp gunoh ishlar qilgan. Xonadonida ayollarni quldek ishlatgan, ularni urib, nafsoniyatini yerga urgan. Dodxo - qotil. Qotil esa oʻz qurbonini koʻrganida seskanishi va qochishi tabiiy.

"Chiyillash", "vishillash", "bosh urib uf tortish" soʻzlari va iboralari parranda, ilon va insonga xos harakat xususiyatlarining boʻrttirib, koʻchma maʼnoda tavsiflanishi boʻlib, ularda shamolning vayron qila oluvchi kuch-qudrati koʻrsatilishi bilan birga, hikoya davomida yuz beradigan falokatga ishora qilinadi).

5-guruh uchun savollar:

Hikoyaning janr xususiyatlari:

1. Ushbu hikoyaning qissadan farqi nimada?
2. Hikoyadagi voqealar qaysi davrda yuz bergan?
3. Hikoya soʻngida Nodirmohbegim nima uchun "bu dargohni yelkamning chuquri koʻrsin" deganday keskin burilib aravaga oʻtiradi?
4. Abdulla Qahhorning ushbu hikoyasi "Oʻtmishdan ertaklar" nomli hikoyalar turkumiga kiritilgan. Nima uchun Abdulla Qahhor ushbu hikoyani shu turkumga kiritgan?

Xulosalar chiqaring.

(Mazkur hikoyada asosan 3 ta asosiy qahramon ishtirok etadi. Uning syujet chizigʻida murakkab voqealar tizimi mavjud emas. Qissada esa qahramonlar soni koʻp boʻlib, voqealar ham birmuncha koʻproq boʻladi. Hikoyadagi voqealar oʻtmishda, hali ayollarning haq-huquqlari jamiyat tomonidan himoya qilinmagan paytda yuz bergan.



Nodirmohbegim dodxoning to'ng'ich xotini bo'lib, umrini shu dargohda o'tkazib, qarib yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa-da, o'zi o'rganib qolgan hayot tarzida voz kechadi. Chunki bunday hayot ayollar uchun koni azobning o'zginasidir. Abdulla Qahhor Nodirmohbegim obrazi orqali barcha ayollar uchun birdek ayanchli bo'lgan o'tmishdagi ayollar haq-huquqlarining yerga urilganini qoralamoqda. Ayollar haq-huquqini himoya qilishga qaratilgan qator qonunlar amal qilayotgan bugungi kunda «Dahshat» hikoyasidagi voqealar biz uchun mudhish bo'lsa-da, ertakka aylangan. Biz shunday voqealar qachonlardir bo'lganiga ishonishni ham istamaymiz).

5-qadam. Yakuniy suhbat. 5 daqiqa.

Barcha o'quvchilarga savollar:

Abdulla Qahhor bu ta'sirli hikoyani nima sababdan yozgan? Bu bilan o'z kitobxonlariga nimalarni uqtirmoqchi bo'lgan?

Uyga vazifa. 2 daqiqa.

«Ayollarning haq-huquqlari, jamiyatimizda ayollarga munosabat masalasi» mavzusida ijodiy insho yozing.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi hamda ijtimoiy faol fuqaroni, tafakkuri uyg'oq kitobxonni, aqlli insonni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. Adabiyot o'qitish metodikasi.. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020. - B. 111.
2. Столбунова С.В. Развитие критического мышления. Журнал «Русский язык». - Ярославль. 2003. №28. - С.63.
3. Лекторский В. А., «Субъект, объект, познание». - Москва: Наука. 1980. - С. 358.
4. M.Abdullayeva. Falsafa: ensiklopedik lug'at. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, - 2010. -B.307.
5. Ю.Н.Кулюткин. Эвристические методы в структуре решений. Москва: Издательство «Педагогика», 1970.
6. Хуторской А. В. Эвристическое обучение: теория, методология, практика: Научное издание. Москва: Международная педагогическая академия, 1998. -266 с.



## OLIV TA'LIM TIZIMIDA FIZIKANI O'QITISHDA STEAM TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**G. V. RAXMATULLAYEVA,**

Nizomiy nomidagi TDPU doktoranti

*Maqolada molekulyar fizika va termodinamikaning ta'limdagi o'qitilishi va STEAM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San'at, Matematika) yondashuvining bu jarayondagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, molekulyar fizika bo'yicha turli yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan STEAM asosidagi topshiriqlar va tajribalar taqdim etilgan. STEAM yondashuvining kelajakdagi istiqbollari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan va xulosalar qilingan.*

**Kalit so'zlar:** molekulyar fizika, termodinamika, STEAM yondashuvi, integrative ta'lim, fan va texnologiya, muhandislik ta'limi, san'at.

*This article analyzes the teaching of molecular physics and thermodynamics and the role and importance of the STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) approach in this process. The article also presents STEAM-based problems and experiments designed for students of various ages in the field of molecular physics. Information about the future prospects of the STEAM approach is provided and conclusions are drawn.*

**Key words:** molecular physics, thermodynamics, STEAM approach, integrative education, science and technology, engineering education, art.

*В статье анализируется преподавание молекулярной физики и термодинамики, а также роль и значение подхода STEAM (Наука, Технология, Инженерия, Искусство, Математика) в этом процессе. Также в статье представлены задачи и эксперименты на основе STEAM, предназначенные для студентов разных возрастных групп в области молекулярной физики. Предоставлена информация о будущих перспективах подхода STEAM и сделаны выводы.*

**Ключевые слова:** молекулярная физика, термодинамика, подход STEAM, интегративное образование, наука и технологии, инженерное образование, искусство.

Molekulyar fizika – bu molekularlar va ularning tashkil etilishi, xususiyatlari hamda o'zaro ta'sirlari bilan shug'ullanadigan fizika sohasidir. Bu soha kimyo va fizika o'rtasidagi chegarada joylashgan bo'lib, molekulyar darajadagi hodisalarni o'rganish orqali moddalarning makroskopik xususiyatlarini tushuntirishga yordam beradi.

Molekulyar fizikaning o'rganilishi turli sohalarda, jumladan materialshunoslik, farmatsevtika, energetika va nanotexnologiyalar kabi sohalarda yangi texnologiyalar va materiallarni ishlab chiqishda qo'llaniladi. Shuningdek, bu soha ekologiya



va biologiya kabi fanlar bilan ham chambarchas bog‘liq, chunki u hayotiy jarayonlarning molekulyar asoslarini tushunishga yordam beradi. [1]

STEAM – bu ta’lim sohasida qo‘llaniladigan bir yondashuv bo‘lib, u quyidagi sohalarni o‘z ichiga oladi:

- Science (Fan): Biologiya, kimyo, fizika kabi fanlarni o‘rganish.
- Technology (Texnologiya): Zamonaviy texnologiyalardan, dasturlashdan va axborot tizimlaridan foydalanish.
- Engineering (Muhandislik): Muhandislik tushunchalari va usullarini qo‘llash orqali muammolarni hal etish.
- Art (San‘at): Ijodiylik va dizayn elementlarini qo‘shish orqali boshqa sohalarga yangi yondashuvlar kiritish.
- Mathematics (Matematika): Matematik tushuncha va metodlardan foydalanish.

STEAM yondashuvi ta’lim jarayonini yanada integrativ va amaliy qilishga qaratilgan, bu esa o‘quvchilarning turli sohalardagi bilimlarini birlashtirish va muammolarni ijodiy yechimlar bilan hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. STEAM dasturlari fan, texnologiya va san‘atni o‘zaro bog‘laydi, shu bilan birga o‘quvchilarni turli ko‘nikmalar orqali mustaqil fikrlash va ijodiy ishlashga undaydi. [2]

Molekulyar fizikani o‘qitishda STEAM yondashuvining qo‘llanilishi, ta’limni yanada samarali va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantiruvchi qiladi. STEAM yondashuvi ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematikaning integratsiyasini ta’minlaydi, bu esa molekulyar fizika kabi murakkab mavzularni chuqurroq tushunish va amaliy qo‘llash imkonini beradi.

Molekulyar fizika bo‘yicha turli yoshdagi o‘quvchilar uchun interfaol darslar va tajribalar tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning tushunish darajasini kengaytirish uchun juda muhimdir. Quyida turli yosh guruhlariga mos keladigan ba‘zi dars va tajriba turlari keltirilgan:

Boshlang‘ich sinflar (6-10 yosh):

1. Suv molekularining harakati:
  - Tajriba: Issiq va sovuq suvda rangli sirop yoki bo‘yoqlarni eritib, molekular harakatining haroratga qanday bog‘liq ekanligini kuzatish.
  - Maqsad: Haroratning molekular harakatiga ta’sirini tushuntirish.
2. Modellash:
  - Dars: Plastilin yoki shirinliklardan foydalanib, atomlar va molekular modellari yasash.



- Maqsad: Atomlar va molekular tuzilishini sodda usulda tushuntirish.
- O‘rta Sinflar (11-14 yosh):
  1. Kristallar o‘shishi:
    - Tajriba: Tuz yoki shakar kristallarini o‘stirish va ularning shakllanishini kuzatish.
    - Maqsad: Kristallar tuzilishini va molekulararo ta’sirlarni o‘rganish.
  2. Molekulyar dinamika simulyatsiyasi:
    - Dars: Onlayn simulyatsiya dasturlaridan foydalanib, molekular harakatini va ularning o‘zaro ta’sirlarini kuzatish.
    - Maqsad: Molekular dinamikasini tushunish va ularning o‘zaro ta’sirlarini modellashtirish.
- Yuqori sinflar va litsey (15-18 yosh):
  1. DNA modellashtirish:
    - Tajriba: DNA molekulasini modellashtirish uchun konstruktor yoki boshqa modellashtirish materiallaridan foydalanish.
    - Maqsad: Genetik kodning molekulyar asoslari haqida tushuncha berish.
  2. Raman spektroskopiyasi:
    - Dars: Raman spektroskopiyasi haqida ma’lumot berish va oddiy namunalar yordamida spektrlarni tahlil qilish.
    - Maqsad: Molekular tuzilishini spektroskopik usullar yordamida o‘rganish.
- STEAM asosidagi ta’lim yondashuvi turli fanlararo loyihalar va tajribalar orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan. Quyida o‘quvchilarning STEAM asosidagi loyihalari va tajribalaridan olingan real hayotiy misollar keltirilgan [3]:
  1. Atmosfera bosimi va ob-havo loyihasi:
    - O‘rta maktab o‘quvchilari atmosfera bosimi va uning ob-havo sharoitlariga ta’sirini o‘rganish uchun loyiha ishlab chiqishdi. Ular turli sharoitlarda bosim o‘zgarishlarini kuzatish uchun barometrlar yasashdi va ma’lumotlarni yig‘ish orqali ob-havo bashoratini tuzishga harakat qilishdi. Natijada o‘quvchilar atmosferik jarayonlar haqidagi tushunchalarini amaliy misollar orqali chuqurlashtirishdi va meteorologiya sohasidagi kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdi.
  2. Robototexnika musobaqasi:
    - Litsey o‘quvchilari jamoaviy robot yasash loyihasida qatnashishdi. Ular muhandislik, dasturlash va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida o‘zlarining robotlarini loyihalashdi va qurishdi. Bu loyiha davomida ular Arduino



mikrokontrollerlaridan foydalanishdi va dasturlash tilida kod yozishni o‘rgandilar. O‘quvchilar shuningdek, robotlarining harakatlanishini optimallashtirish uchun matematik modellashtirishdan foydalandilar.

### 3. Suvsiz bog‘ loyihasi:

Bir guruh o‘quvchilar suv tejaydigan texnologiyalarni qo‘llagan holda mahalliy jamoaga suvsiz bog‘ yaratish loyihasini taklif qilishdi. Ular suvni tejash usullari, o‘simliklarning suvga bo‘lgan talablarini tahlil qilish va ekologik jihatdan barqaror bog‘ dizaynini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishdi. Loyiha natijasida o‘quvchilar ekologiya, muhandislik va biologiya sohalarida chuqur bilimlarga ega bo‘lishdi.

### 4. Molekulyar gastronomiya kursi:

Ovqat tayyorlash san‘ati va kimyo o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish uchun o‘rta maktab o‘quvchilari molekulyar gastronomiya kursida qatnashishdi. Ular turli xil kimyoviy reaksiyalar yordamida yangi ta‘m va tuzilmalar yaratish usullarini o‘rgandilar. Masalan, sferifikatsiya (ma‘lum bir mahsulotdan kichik, yumaloq jelatin kapsulalar yaratish) kabi texnikalarni qo‘llash orqali.

Bu misollar STEAM yondashuvi orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan va ularni turli kasbiy sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta‘minlashga yordam beradi.

STEAM yondashuvi molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda muhim o‘rin tutadi, chunki u ilmiy tushunchalarni to‘liqroq va chuqurroq o‘rganish imkonini beradi hamda o‘quvchilarning turli sohalarda bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuvning kelajakdagi istiqbollari o‘quvchilarni zamonaviy fan va texnologiyalar dunyosiga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Quyida STEAM yondashuvining molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishdagi o‘rni va uning kelajakdagi istiqbollari haqida batafsil ma‘lumot berilgan:

STEAM yondashuvining o‘rni [4]:

#### 1. Ko‘p disiplinary o‘rganish:

– Molekulyar fizika STEAM yondashuvi orqali fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika sohalarining integratsiyasi natijasida o‘rganiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarga molekular dunyosini turli nuqtai nazardan ko‘rish va tushunish imkonini beradi.

#### 2. Amaliy tajribalar va loyihalar:

– O‘quvchilar amaliy tajribalar orqali molekulararo ta‘sirlar, kimyoviy bog‘lanishlar va molekular dinamikasini kuzatishlari mumkin. Bu jarayon



o‘rganishni aniq va samarali qiladi, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

3. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:

– San’at va dizayn elementlari orqali molekulyar fizikani o‘rganish o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Masalan, molekular tuzilishini grafik yoki vizual san’at asarlarida ifodalash o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni yanada yaxshi tushunishga yordam beradi.

4. Texnologiya va dasturlash bilan integratsiya:

– Molekulyar fizika darslarida zamonaviy kompyuter simulyatsiyalari va dasturlash vositalaridan foydalanish o‘quvchilarga molekular dunyosini aniq va interaktiv tarzda kuzatish imkonini beradi. Bu, shuningdek, o‘quvchilarning texnologik savodxonligini oshiradi.

Molekulyar fizika bo‘limini o‘qitishda STEAM yondashuvini qo‘llash, o‘quvchilarni fan va texnologiyalarning tezkor rivojlanayotgan dunyosida muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlaydi. Bu yondashuv, ilmiy tushunchalarni to‘liqroq va chuqurroq o‘rganish imkonini beradi va o‘quvchilarning turli sohalarda bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kelajakda molekulyar fizika bo‘limi o‘qituvchilari uchun STEAM yondashuvini yanada integratsiyalash va takomillashtirish zarur bo‘ladi, bu esa o‘quvchilarni zamonaviy fan va texnologiyalar dunyosiga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. National Research Council. (2012). A Framework for K-12 Science Education: Practices, Crosscutting Concepts, and Core Ideas. National Academies Press.
2. Sanders, M. (2009). "STEM, STEM Education, STEMmania". The Technology Teacher, 68(4), 20-26.
3. Bybee, R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. NSTA Press.
4. Emdin, C. (2017). For White Folks Who Teach in the Hood... and the Rest of Y’all Too: Reality Pedagogy and Urban Education.



## AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINING ILMIY METODOLOGIK ASOSLARI

**S.U.IBRAXIMOV,**

*Alfraganus university «Sport faoliyati»  
kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari doktori(DSc)*

*Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining kasbiy-pedagogik tayyorgarligining ilmiy metodologik asoslari bayon etilgan bo‘lib, bunda yuqori kasbiy malaka va kompetentlik, samarali kasbiy ko‘nikma va malakalarning xilma-xilligini va kasbiy vazifalarni hal etishning zamonaviy usullari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kasbiy mahorat, kasbiy rivojlanish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, pedagogik akmeologiya, kasbiy kompetentlik.*

*В данной статье изложены научно-методологические основы профессионально-педагогической подготовки будущего специалиста по физической культуре и спорту на основе акмеологического подхода, при этом приведены сведения о высокой профессиональной квалификации и компетентности, разнообразии эффективных профессиональных умений и навыков и современных методах решения профессиональных задач.*

**Ключевые слова:** *профессиональное мастерство, профессиональное развитие, профессионально-педагогическая подготовка, педагогическая акмеология, профессиональная компетентность.*

*This article presents the scientific and methodological foundations of professional-pedagogical training for a future specialist in physical culture and sports based on an acmeological approach, high professional qualification and competence, the diversity of effective professional skills and abilities, and modern methods for solving professional tasks.*

**Key words:** *professional skills, professional development, professional-pedagogical training, pedagogical acmeology, professional competence.*

Zamonaviy sharoitda kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalarini yechishda bo‘lajak mutaxassisning aqliy, ma‘naviy, madaniy rivojlanishi, kasbiy o‘sishi va ijodiy mustaqilligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Belgilangan vazifalarni ro‘yobga chiqarishda inson haqidagi fanlar tizimidagi yangi fanlararo bilim sohasi – akmeologiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu fanning predmeti yetuk insonning rivojlanishi va o‘z-o‘zini takomillashtirish qonuniyatlari, shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyatga ijodiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonlaridan iborat.



Hozirgi paytda o'qituvchilarning akmeografik tavsiflari va akmeogrammalarining dastlabki namunalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular amaliyotda tobora keng qo'llanilmoqda. Biroq, jismoniy tarbiya va sport mutaxassisini kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirishning ushbu bosqichida akmeologiya yetarli darajada rivojlanmagan. Holbuki, o'qituvchi va murabbiylarning kasbiy shakllanishini belgilovchi shart-sharoitlar hamda omillarni aniqlash, ushbu jarayonni maqsadli va samarali boshqarish imkoniyatini yaratadi.

Akmeologiyaning bugungi rivojlanish bosqichida uning asosiy tushunchalari «kasbiy mahorat» va «kompetentlik» hisoblanadi.

Shaxsning kasbiy mahorati mehnat subyekting sifat tavsifi sifatida qaraladi. Bu tavsif kasbiy jihatdan muhim yoki shaxsiy-ishbilarmonlik fazilatlarining yuqori darajasini, ijodkorlikni, intilishlarning mos darajasini, kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan motivatsion sohani va qadriyat yo'nalishlarini aks ettiradi.

Akmeologiya kasbiy faoliyatning qiyosiy tadqiqotlarini olib boradi, faoliyat jarayonini cheksiz reproduktiv va ijodiy masalalarni yechish sifatida ko'rib chiqadi. Akmeologiya «faoliyat darajasi», «faoliyatning yuqori cho'qqilari», «shart-sharoitlar», «samarali faoliyatning omillari va rag'batlantiruvchi vositalari» kabi tushunchalarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganadi.

Akmeologik professionalizm nafaqat faoliyatning yuqori samaradorligida, balki o'quvchilarning shaxsini alohida o'quv fanlari (xususan, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, sport faoliyati) vositasida rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik yo'nalishida ham namoyon bo'ladi. Bu jarayon o'qituvchining kasbiy mahoratining muhim jihati hisoblanadi.

Inson faoliyatining har qanday sohasidagi o'zgarish va yangilanishlar uning subyekti, yaratuvchisi va yaratuvchisining o'zgarishi va yangilanishidan boshlanishi kerak. Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari majmui pedagogning nazariy va amaliy tayyorgarligi birligini aks ettiruvchi «kasbiy kompetentlik» tushunchasi bilan belgilanadi. Inson faoliyatining har qanday sohasidagi o'zgarishlar va yangilanishlar, avvalo, ushbu faoliyatning subyekti, ijodkori va ijodkorining o'zgarishi hamda yangilanishidan boshlanishi kerak. Bu esa pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlar majmuasi «kasbiy kompetentlik» tushunchasi bilan belgilanadi. Bu tushuncha o'qituvchining nazariy va amaliy tayyorgarligining yaxlitligini aks ettiradi.

Pedagogik faoliyatda tor mutaxassislik kompetensiyasi bilan cheklanish mutlaqo mumkin emas. O'qituvchining kasbiy mahorati barcha kompetensiya turlarining uyg'unligida namoyon bo'ladi. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda buni yodda tutish lozim, chunki pedagogik kompetentlik ta'lim bilan



bog'liq bo'lgan keng qamrovli pedagogik, psixologik, ijtimoiy, sog'lomlashtirish va boshqa masalalarni chuqur tushunishni talab etadi. Bu masalalarni har tomonlama anglab yetish va ularni amaliyotda qo'llay olish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Talabaning kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi va manbai o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojdir. Bu ehtiyojni keltirib chiqaruvchi eng muhim obyektiv sabablar ta'lim muassasasi rahbarlari, murabbiylar, talabalar, sportchilar va ularning ota-onalari tomonidan qo'yiladigan asosli va oqilona talablardan iboratdir. Kasbiy faoliyatga bo'lgan motivatsiya esa cho'qqilarga erishishning subyektiv omili sifatida xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasasida o'qish davrining eng murakkab vazifalaridan biri pedagogik mahoratni shakllantirishdir. Ayniqsa, pedagogik mahoratga ega bo'lish yosh mutaxassisga favqulodda vaziyatlarda va yangi ijtimoiy muhitda to'g'ri munosabat bildirish, ruhiy tushkunlikka tushmasdan qiyinchiliklarni yengib o'tish hamda faoliyat va muloqotning o'ziga xos uslubini yaratish imkonini beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchi faoliyatining ichki mazmuni va tashqi ifodasini uyg'un birlikda namoyon etishga xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat asoslarini o'zlashtirgan talaba ijtimoiy sharoitlarga osonroq moslashadi, chunki pedagogik mahorat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'z xatti-harakatlarini boshqara olish qobiliyati (yuz ifodasi, tana harakatlari);
- o'zining hissiy holatini boshqara olish qobiliyati (dars yoki mashg'ulot paytida ijobiy muhitni yaratish, ortiqcha ruhiy zo'riqishni bartaraf etish);
- nutq mahoratini egallash (fonatsion nafas olish, ovoz qo'yish, talaffuz va nutq tezligini boshqarish).

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishdagi mas'uliyati nafaqat kasbiy faoliyat asoslarini bilishni, balki pedagogik jarayonga alohida munosabatni ham talab qiladi. Bu munosabat o'qituvchining pozitsiyasida namoyon bo'ladi. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari shug'ullanuvchilarning quvonchi va hissiy qoniqishi bilan ifodalanuvchi ijobiy his-tuyg'ular bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Biroq, jismoniy tarbiya va sportning bunday ijobiy ta'siri faqatgina ushbu soha mutaxassisining amaliy faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashi va shu orqali insonparvarlik pedagogik nuqtai nazarini ko'rsatishi sharoitida amalga oshishi mumkin.

Biz insonparvar pedagogik pozitsiyani pedagogik faoliyatning yaxlit tavsifi sifatida ko'rib chiqamiz. Pedagogik pozitsiyaning mohiyati uch tarkibiy qismning birligi bilan belgilanadi: axloqiy qadriyatlarni qabul qilishga asoslangan zo'ravonliksizlik; subyektlilik va shaxsiy munosabat. Shakllangan insonparvar



pozitsiyaning eng yuqori namoyon bo'lishi axloqiy qadriyatlarni subyektiv ravishda amalga oshirishga asoslangan shaxsiy munosabatga barqaror yo'nalganlikdir.

Axloqiy qadriyatlarni amalga oshirish sifati turli darajalarga ega bo'lib, bu darajalar kognitiv va affektiv tarkibiy qismlarning ifodalanishi bilan tavsiflanadi. Intuitiv daraja uchun axloqiy-kognitiv tarkibiy qismning juda past rivojlanganlik darajasi va axloqiylikni amalga oshirishga ongli intilishning yo'qligi xosdir. Me'yoriy daraja axloqiy-kognitiv tarkibiy qismning o'rta yoki yuqori darajada shakllanganligi bilan tavsiflanadi, biroq subyektga axloqiy me'yorlarni amalga oshirishga nisbatan umuman salbiy yoki shartli-ijobiy hissiy munosabat xos bo'ladi. Ma'noviy daraja esa kognitiv tarkibiy qismning yuqori darajada shakllanganligi va axloqiy faoliyatning chuqur hissiy kechinmalari bilan tavsiflanadi.

Taklif etilayotgan kompleks metodikaning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga kiritilishi gumanistik pedagogik pozitsiya tarkibiy qismlarining shakllanganlik ko'rsatkichlarini sifat jihatdan yaxshilash imkonini berdi. Mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida talabalarga o'zlarining subyektiv-axloqiy salohiyatini namoyon etishga imkon beruvchi zo'ravonliksiz muhitni yaratadigan maxsus pedagogik usullarni qo'llash zarur. Bularga quyidagilar kiradi: hamkorlikdagi faoliyat bilan bog'liq yordam va qo'llab-quvvatlash; ko'maklashish tarzida tushuniladigan maslahat; axloqiy qadriyatlarga e'tibor qaratishga undash; aqliy hamkorlik; shaxs tomonidan qabul qilingan axloqiy intilishlar sohasida «mashq» qilish; shaxs tomonidan ongli ravishda qabul qilingan axloqiy mayllarga mos keladigan yangi maqsadlarni taklif etish. Erkin va tabiiy o'zaro munosabatdagi aqliy muloqot orqali axloqiy qadriyatlarni anglash va ularni kasbiy-pedagogik faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini tushunish mumkin. Talabalar shaxsiyatini bostirishga qaratilgan pedagogik usullardan qochish lozim: qat'iy belgilangan talablar, hissiy tazyiq va tahdidlar, buyruq berish, hukm chiqarish, jarima sanksiyalarini o'rnatish, majburlash kabilardan saqlanish kerak. Talabalar shaxsini bostirish bilan bog'liq pedagogik usullardan: qat'iy belgilangan talablar, hissiy shantaj va tahdidlar, buyruq berish, hukm qilish, jarima choralarini belgilash, majburlash kabilardan yiroq bo'lish kerak.

Oliy ta'limning an'anaviy tizimida nutqiy tayyorgarlik unsurlari mavjud bo'lsa-da, ular maqsadli ravishda e'tiborga olinmaydi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonidan jonli nutq tobora ko'proq olib tashlanmoqda, uning o'rmini yozma matn va testlar egallamoqda.

Bizning yo'nalishimizning tadqiqot mavzusi «pedagogik nutqiy xulq-atvor grammatikasi» bo'lib, u nutqiy xulq-atvorning birliklari, shakllari, qonunlari, qonuniyatlari va qoidalari majmuasidan iborat. Bu grammatika, avvalo, muloqot maqsadlariga erishish uchun og'zaki va og'zaki bo'lmagan vositalardan foydalanish mahorati bilan bog'liq.



Talabalarining kasbiy nutqiy xulq-atvor ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonlar belgilandi: verbal vositalardan (nutqning kommunikativ sifatlari), akustik vositalardan (ovoz sifati va talaffuz), kinetik vositalardan (imo-ishoralar, yuz ifodasi, tana harakatlari) hamda proksemik vositalardan foydalanish ko'nikmalarining shakllanganligi.

Proksemika – bu shaxslararo muloqotni faqat og'zaki bo'lmagan darajada o'rganish bilan shug'ullanadigan fandır.

Talabalarda kasbiy nutqiy xulq-atvor ko'nikmalarining shakllanganligi ta'kidlovchi tajriba ma'lumotlari yetarli darajada past darajada ekanligini ko'rsatdi, bu esa kasbiy nutqiy xulq-atvor ko'nikma va malakalarini maxsus o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiya oliy o'quv yurti talabalarining kasbiy-nutqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati haqidagi farazni tekshirish maqsadida tegishli uslubiyat ishlab chiqildi va uni joriy etish hamda samaradorligini aniqlash bo'yicha pedagogik tajriba o'tkazildi.

Talabalarning kasbiy-nutqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishning taklif etilayotgan metodikasi jismoniy tarbiya o'qituvchisining nutqiy xulq-atvori grammatikasi asosida ishlab chiqilgan. Ushbu uslub o'quv-mashg'ulot jarayonida muayyan turdagi nutqiy harakatlarni amalga oshirish uchun zarur va yetarli shart-sharoitlar majmuasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, bu shart-sharoitlardan bayonotlarni mazkur turdagi nutqiy harakatlarga aylantiradigan og'zaki va og'zaki bo'lmagan vositalardan foydalanish qoidalari to'plamini ajratib olishga yordam beradi.

Biz tomonimizdan tuzilgan individual kasbiy-nutqiy profillar asosida kasbiy faoliyatda nutqiy xulq-atvorning verbal, akustik, kinetik va proksimik vositalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va korreksiyalashning individual dasturi belgilandi. Jismoniy tarbiya oliy o'quv yurti talabalarini kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayoniga taklif etilayotgan uslubiyatni kiritish o'quv-mashg'ulot faoliyatining real vaziyatlarida nutqiy xatti-harakatning verbal, akustik, kinetik va proksimik vositalaridan foydalanish ko'nikma va malakalari ko'rsatkichlarini sifat va miqdor jihatdan sezilarli darajada yaxshilashga imkon beradi.

Shunday qilib, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-nutqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv-mashg'ulot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va u amalga oshiriladigan shart-sharoitlarni hisobga olish zarur. Ushbu xususiyatlar nutqiy vaziyatlarni, jismoniy tarbiya faoliyatining nutqiy harakatlari turlarini, qo'llaniladigan nutqiy xulq-atvor vositalarining nisbatini tavsiflash imkoniyatini taqozo etadi.

Agar sanab o'tilgan komponentlarning har biri boshqa komponentlar bilan aloqasiz holda mustaqil tashkil etuvchi sifatida ko'rib chiqilsa, ularning birgalikdagi



o'zaro ta'sir samarasi e'tibordan chetda qoladi. Ushbu tadqiqotlar pedagogik faoliyatning alohida jihatlarini «qismlar va statik» tarzda ko'rib chiqishdan mutaxassisning «ko'p yo'nalishli» ligini maqsadli kompleks shakllantirishga o'tishni tayyorladi. Bunday yondashuv erta «pedagogik inqirozlar», «pedagogik holsizlanish», o'qituvchining kasbiy turg'unligi kabi salbiy holatlarni bartaraf etish (va oldini olish) zarur bo'lgan maktab amaliyotida ham talab etiladi.

Xulosa qilib shuni takidlash lozimki talabalarning kasbiy-pedagogik yo'nalishini o'rganish jarayonida jismoniy tarbiya va sport oliy o'quv yurti talabalarida tashkilotchilik va muloqot faoliyatiga yo'nalganlikning yuqori darajasi muhim hisoblanadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi va murabbiy faoliyatidagi ishi aynan shu yo'nalishdagi keng qamrovli ko'nikmalarni talab etadi. Biroq, fan va intellekt kabi yo'nalishlarda rivojlanish xususiyati bir oz past darajaga ega bo'lib, bu esa fan mazmuniga bo'lgan qiziqishni oshirish va talabalarning ijodiy salohiyatini oshirish va rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Завьялова О.Б. Формирование профессионального речевого имиджа будущего тренера по борьбе: Автореф. канд. дис. 2000. - 23 с.
2. Чучалина А.И. Формирование профессиональной речи у студентов отделений «Физическая культура» педагогического колледжа: Автореф. канд. дис. Омск, 2001. - 24 с.
3. Петрова Г.В. Развитие коммуникативного потенциала студентов физкультурных вузов средствами педагогических дисциплин: Автореф. канд. дис. СПб., 2003. - 26 с.
4. Гордиенко В.Е. Формирование культуры речи у будущих специалистов в области физической культуры и спорта на этапе довузовской подготовки: Автореф. канд. дис. М., 2003. - 23 с.
5. Реан А.А. Психология педагогической деятельности. Ижевск, 1994. - 349 с.



## UZLUKSIZ KIMYO TA'LIMIDA SABAB-OQIBAT MUNOSABATLARINI O'RNATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN VAZIFALAR TIZIMI

**M.A. QODIROVA,**  
QDPI mustaqil tadqiqotchisi

*Ushbu maqolada uzluksiz kimyo ta'limida sabab-oqibat munosabatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Kimyo ta'limida fan ichidagi va fanlararo integratsiya vositasida o'quvchi va talabalarning nazariy bilimlarini amaliy masalalar bilan bog'lashga imkoniyat yaratadigan vazifalar tizimi ishlab chiqilgan. Eritmalar nazariyasiga oid tushunchalar tizimining didaktik asoslari va integratsion tamoyillari ilmiy jihatdan asoslangan.*

**Kalit so'zlar:** sabab-oqibat munosabatlari, integratsiya, eritmalar nazariyasi, didaktik asoslar, amaliy kimyo.

*В этой статье будут проанализированы подходы, направленные на формирование причинно-следственных связей в непрерывном химическом образовании. В химическом образовании разработана система задач, позволяющих связать теоретические знания учащихся и студентов с практическими задачами посредством научной и междисциплинарной интеграции. Дидактические основы и интеграционные принципы системы понятий теории решений научно обоснованы.*

**Ключевые слова:** причинно-следственные связи, интеграция, теория решений, дидактические основы, практическая химия.

*This article will analyze approaches aimed at the formation of causal relationships in continuing chemical education. A system of tasks has been developed in chemical education that allows linking the theoretical knowledge of students with practical tasks through scientific and interdisciplinary integration. The didactic foundations and integration principles of the system of concepts of decision theory are scientifically substantiated.*

**Key words:** causal relationships, integration, theory of solutions, didactic foundations, practical chemistry.

Uzluksiz kimyo ta'limi – ilmiy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beruvchi murakkab metodologik asosga ega sohadir. Tabiiy fanlar ta'limida metodologik yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri integral yondashuv bo'lib, bu yondashuv orqali o'rganilayotgan obyektning tabiat bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Ushbu yondashuv, o'quvchi va talabalarda sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, mavhum bilimlarni konkret amaliy holatlar bilan bog'lash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Tabiiy fanlar ta'limida metodologik aspektning asosiy tarkibiy qismlaridan biri integral yondashuv bo'lib, o'rganiladigan obyektning tabiat bilan bog'langanligi bilan tavsiflanadi. Uning asosiy vazifasi o'quv mashg'ulotining didaktik elementlarini



o'zlashtirishga yo'naltirilgan birlashmalardan ma'lum bir alohida kompleks tizimga o'tishni amalga oshirishdan iborat. Ushbu o'tish fan ichida va fanlararo integratsiya orqali, mos ravishda, subyektlararo ulanishlar orqali amalga oshirilgan.

Fan ichidagi integratsiyaning qo'llanilishi va sabab-oqibat munosabatlarining amalga oshirilishda, bo'limdagi asosiy tushunchalarning ta'rifi orqali eritmalar nazariyasini o'rganishni umumiy o'rta maktablari va oliy ta'lim muassasalari kimyo kurslarida tahlil qilish mumkin. Masalan, Eritmalar nazariyasi kimyo fanining fundamental ta'limotlaridan biri bo'lib, u nafaqat kimyoning maktab yo'nalishida, balki oliy ta'limning kimyoviy fanlar tizimida ham mavjud. Maktab kimyo kursida «Eritmada erigan moddaning massa ulushi, foiz, molyar konsentratsiyasi» mavzusida «eritma», «erituvchi», «eruvchi modda», «eruvchanlik», «eritma konsentratsiyasi» kabi tushunchalar shakllantiriladi. Oliy ta'limda esa bu tushunchalar yanada takomillashtiriladi. Ya'ni erishdagi fizik-kimyoviy jarayonlar, eritmalar kimyoviy xossalarni chuqurroq o'rganiladi. Bundan ko'rinadiki, kimyo ta'limida mavzularning uzluksizligi ta'minlanmoqda. Ta'lim standartlarining muhim vazifalaridan biri bu har bir ta'lim mavzusining mazmuniga bo'lgan minimal talabdir. Kimyo fani bo'yicha o'quv dasturiga binoan, eritmalar, elektrolitik dissotsiatsiya, elektrolitlar va elektrolitmaslar, eritmalarda reaksiyalarning borish shartlari kabi asosiy tushunchalarni o'rganish majburiy hisoblanadi.

Suvli eritmalarda, elektrolitik dissotsiyanish nazariyasi asosida tuzlar, kislotalar va asoslarni ta'riflash va ajratish orqali kimyo ta'limining boshlang'ich bosqichida anorganik moddalarning asosiy sinflari mavzusiga integrativ yondashiladi. Shu bilan birga ushbu mavzularni o'rganishda eksperimental kimyo alohida o'rin tutadi va amaliy mashg'ulotlar dastur va darsliklarda alohida e'tibor bilan qayd etiladi. Kimyoning ushbu bo'linmasida asosiy e'tibor suvli eritmalarda yuzaga kelgan reaksiyalarga asoslangan tajribalarga qaratiladi. Kimyo bo'yicha o'quv dasturlariga murojaat qilinsa, unda mavzulararo va fanlararo integratsiya vositalaridan foydalangan holda eritmalar nazariyasini oliy ta'lim tizimida o'rganish qo'shimcha mazmunga ega bo'ladi. Fan konsepsiyasi erish jarayonini boshlang'ich bosqichida ta'kidlanganidek fizikaviy jarayon emas, balki fizik-kimyoviy jarayon sifatida tushuntirilib, moddalar eritilganda tarkibi va formulasini o'zgartirilmagan holda, issiqlik ajralishi yoki yutilishi hodisasini izohlash, erish jarayonlariga ta'sir etuvchi faktorlar, eruvchi moddaning agregat holatiga bog'liq holatda, ularning eruvchanligiga haroratning, bosimning ta'siri, chin va kolloid echimlar, moddalar konsentratsiyasini ifodalash usullari, ularning o'zaro bog'lanishlari, kuchli va kuchsiz elektrolitlar, Eritmalar muhiti, vodorod ko'rsatkichi (pH), sifat reaksiyalari haqida tushunchalar hisobiga kengaytiriladi.

Ta'lim jarayonining, ayniqsa uzluksiz kimyo ta'limining ilmiy-metodologik xususiyatlaridan biri tushunchalar va tushunchalar tizimining doimiy ravishda shakllanib, rivojlanib borishi bilan bog'liq.



Maktabda «Eritmalar» tushunchasini murakkab moddalar, aralashmalar, suvning xossalari kabi tushunchalar asosida kiritiladi. Eritmalar erituvchi, unda erigan moddalar va ularning o‘zaro ta’sirining mahsulotlaridan iborat bo‘lgan bir jinsli aralashmalardir. Eritmalarning fizik va kimyoviy xossalari o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari ilmiy talqini aniq namoyon bo‘ladi.

Akademik litseylarda esa shin eritma, kolloid eritma, dag‘al dispers tizimlarning xususiyatlari erigan modda zarrachalarining o‘lchamiga bog‘liqligining sodda algoritmi tuziladi. Bu yerda «bir jinsli tizim», «gomogen tizim» tushunchalari talqin qilishga harakat qilinadi. Eritma bilan boshqa aralashmalarning farqi, tarkibiy qismlarning zararalari unda teng taqsimlanishi va bunday aralashmaning har qanday mikro hajmida tarkib bir xil bo‘lishi uqitiriladi. Suv va eruvchi modda orasidagi ta’sirlar fizik kimyoviy jarayon hisoblanishiga qaramay erish, eritmalar tayyorlash jarayoniga fizikaviy hodisa prizmasidan qaralsa, dissotsiyalanish, gidroliz jarayonlariga ko‘proq kimyoviy jarayon nuqtai nazaridan yondashiladi. Shu asosda dissotsiyalanish, ion almashinuvi reaksiyalari, gidroliz tushunchalari alohida bo‘limga joylashtirilib, alohida kognitiv yuklama bilan o‘rganiladi. Eritmalar mavzusining asosiy tushunchalari eng to‘laligicha fanning yaqqol printsiplari va mavzulararo vertikal integrativ yondashuvni o‘z ichiga oladi. Eritmalar mavzusida «sof moddalar va aralashmalar» haqida tushunchalar berilishiga imkon yaratiladi, bu birinchi navbatda suv, tabiiy aralashmalarning turlari, xususiyatlari haqida tushuncha berish imkonini yaratadi. Eritmalar bir necha komponentdan iborat bir jinsli tizim bo‘lib, komponentlarning miqdoriy nisbatlari keng doirada farq qilishi mumkin. Ularning miqdoriy nisbatlarini ifodalash statik kimyoviy hisoblashlarni boshlashga imkon beradi. Statik kimyoviy hisoblashlar, dinamik kimyoviy hisoblashlardan farq qilib, ularda kimyoviy jarayonlar, reaksiyalar ishtirok etmaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’rif yana bir bor eritmalarining mohiyatini aralashmalar sifatida ta’kidlaydi va ikkita muhim xususiyatga urg‘u beradi: o‘zgaruvchan kompozitsiya va bir jinsli tizim. Bundan tashqari «erigan modda» va «erituvchi» tushunchalarni ham joriy etiladi. Eritmalar tomonidan namoyon etiladigan xususiyatlarning o‘ziga xosligi ularni mexanik aralashmalar va kimyoviy birikmalar o‘rtasida oraliq aniq holatni egallashiga imkon beradi.

Uzluksiz kimyo ta’limida birgina eritmalarga oid tushunchalarning berilistartibida turli yondashuvlarni uchratish mumkin. Ularning har biri o‘rganilgan bo‘limda mavzuning o‘rnini, tushunchalarni berilish, izoxlash tartibini turlicha ifodalaydi. Yuqoridagi nazariyaning asosiy tushunchalarini ochib berishdan oldin, o‘rganilayotgan obyektlarni ko‘proq yoki kamroq darajada xarakterlovchi mantiqiy zanjirini qurish zarur. Keyin qanday sabab-oqibat munosabatlari paydo bo‘lishini aniqlash, qaysi didaktik printsiplarni birinchi navbatda yo‘lga qo‘yish kerakligini tanlash mumkin bo‘ladi.



Aralashmalar tarkibiy jihatdan bir va ko'p jinsli bo'lar ekan, bir jinsli gomogen tizim sifatida eritmalar bog'lanadi. Shu bilan birga kislorod, vodorod kabi gaz moddalarning xossalari o'rganish, gazlarning zichligi, nisbiy zichligi kabi tushunchalar eritmalarining ham zichligini hisoblashni o'rganishga yordam beradi ( $d=m/v$ ). Gazlarning suvda erishi haqidagi ma'lumotlar ham bu mavzuni eritmalar, eruvchanlik mavzulari bilan integratsiyalashga yordam beradi. Suv mavzusi ham kislorod, vodorod mavzularini eritmalar mavzusiga mantiqiy bog'lanishiga xizmat qiladi. Erituvchi, erigan modda tushunchalari eruvchanlik va eritma tarkibini ifodalash usullari mavzularini bog'lab turadi. Avvalroq tanishilgan nisbiy molekulyar massa, modda miqdori, mol, tushunchalariga oid ma'lumotlar eritmalarining foiz konsentratsiyasi, molyar konsentratsiyalariga oid statik kimyoviy hisoblashlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Eritmalar – bu ikki yoki undan ortiq komponentlar va ularning o'zaro ta'siridan hosil bo'lgan bir jinsli tizim bo'lib, uning tarkibi ma'lum chegaralar doirasida doimiy ravishda o'zgartirilishi mumkin. Bir jinsli aralashmalar sifatida eritmalarining eng muhim xususiyati gomogen bo'ladi. Bu degani, taqsimlangan moddaning (erigan) zarralari soni eritma hajmining har qanday nuqtasida bir xil bo'ladi.

Uzluksiz kimyo ta'limida sabab-oqibat munosabatlarini shakllantirish o'quvchilarning nazariy bilimlarini real hayotdagi amaliy holatlar bilan bog'lash imkonini beradi. Eritmalar nazariyasini o'rganishda fan ichidagi va fanlararo integratsiyani qo'llash, tushunchalar o'rtasida mantiqiy bog'lanishlarni ta'minlaydi. Bu jarayon o'quvchilarda nafaqat mavzuga oid bilimlarni, balki analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Чернобельская Г.М. Методика обучения химии в средней школе: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. -М.: ВЛАДОС, 2000. - 336 с.
2. Зайцев О. С. Практическая методика обучения химии в средней и высшей школе. Учебник. - М.: КАРТЭК, 2012. - 470 с.
3. Космодемьянская С.С., Гильмяншина С.И. «Методика преподавания химии». - Казань: ТГГПУ, 2011. - 136 с.
4. Лакоба С. Е., Толкач Л. Я. «Методика преподавания химии в условиях современной школы». - Гродно: ГрГУ, 2011. - 110 с.



## KIMYO O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

**Z.SH.USMONOVA,**

*Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti*

*Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga olib chiqish, soha mutaxassislarini tayyorlash sifatini umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga moslashtirish va oliy ta'limning qamrov darajasini oshirish borasida kechiktirilmas chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish orqali ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar; mustaqil ta'limning vazifalari va uning natijalari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *mustaqil ta'lim, bilish faoliyati, muammoli vaziyat, jamoaviy faoliyat, interfaol harakat.*

*В нашей стране принимаются неотложные меры по выведению системы образования на новый уровень, приведению качества подготовки специалистов отрасли в соответствие с общепринятыми международными стандартами и повышению уровня охвата высшего образования. В данной статье речь пойдет о работе, направленной на повышение эффективности уровня профессиональной подготовки студентов путем организации их самостоятельного обучения, задачах и результатах самостоятельного обучения.*

**Ключевые слова:** *самостоятельное обучение, познавательная деятельность, проблемная ситуация, коллективная деятельность, интерактивное движение.*

*Urgent measures are being taken in our country to bring the education system to a new level, bring the quality of training of industry specialists in line with generally accepted international standards and increase the level of coverage of higher education. This article will focus on the work aimed at improving the effectiveness of the level of professional training of students by organizing their independent learning, tasks and results of independent learning.*

**Key words:** *independent learning, cognitive activity, problem situation, collective activity, interactive movement.*

Bugungi kunda vatanimiz milliy ta'lim tizimining huquqiy-meyoriy asoslarini hukumatimiz qaror va farmonlari orqali mustaxkamlanib bormoqda. O'z navbatida, tub islohotlar o'qitish metodologiyasi va uning mazmun-mohiyatini modernizatsiya qilishga imkon berdi. Prezident SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «... ta'limni rivojlantirmasdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta'limdir» [1]



Z.T.Rahimovning fikricha, hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalari(OTM)dagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadqiq qilish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi [2; 3-8 b.].

R.Sh.Berdiqulovning «Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida bo'lajak kimyo o'qituvchilarning deduktiv tahlil ko'nikmalarini shakllantirish» nomli tadqiqot ishida shunday yozadi: «Tushunchalarni o'zlashtirmasdan turib, qonunlarni ham, nazariyalarni ham o'zlashtirish mumkin emas. Shuning uchun ham o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning asosiy tushunchalarni yuqori darajada o'zlashtirishlariga alohida e'tibor berish lozim. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi tushunchalarni o'zlashtirish va shakllantirish jarayonini to'g'ri tashkil qilishi va boshqarishi kerak» [3; 134-b.].

Tabiiy-ilmiy bilimlarni targ'ib qilish, bugungi hayotni kimyoning aralashuvvisiz tasavvur qilib bo'lmasligi kabi masalalar kimyo ta'limi tizimini qayta qurish, maktablarda o'qish va o'qitish ishlarini tubdan yaxshilash, litsey va professional ta'lim muassasalariga yo'naltirilgan holda o'qitish, OTMlarda bo'lajak kimyogarlarni sifatli tayyorlash singari muhim ijtimoiy vazifalarni real voqelikka aylantirdi.

Ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatida fan mazmunini mustaqil o'zlashtirishlari uchun ta'lim jarayonini tashkil etishning quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin:

1) nazariy mashg'ulotlarda mustaqil ta'limning ahamiyatini oshirish. Buning uchun professor-o'qituvchilardan nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida talabalarning yuksak darajada mustaqil fikrlashi, o'quv maqsadlariga erishishda intiluvchanligi va o'rganishga tayyorgarlik samaradorligini ta'minlaydigan yo'riqnomalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

2) Talabalarning nazariy ta'limdan tashqari vaqtlarda maqsadli ko'rsatmalar asosida mustaqil ta'lim olishlaridagi faolliklarini ta'minlash

Ta'lim oluvchilarning nazariy ta'limdan tashqari yetgishli fan mazmunini o'rganishlari uchun ulardagi faolliklarni ko'tarishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolar turli omillar bilan bog'liq. Ayni vaqtda talabalarning mustaqil ta'limini yo'lga qo'yishda aksariyat talabalardan tashqari ba'zi professor-o'qituvchilar ham bunga tayyorgarligi yetarli emasligini keltirish mumkin.

Yuqoridagi holat ko'p xollarda kasbiy yoxud psixolo-pedagogik yo'nalishda seziladi. Shuningdek, yo'nalishga bevosita mos kelmaydigan adabiyotlar va axborot ta'minotini ham keltirish mumkin. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quv mazmuni uchun axborot ta'minoti yetarli emasligi va shu sababli o'quv natijalarini ta'minlanishi past ko'rsatkichlarni bermoqda. Bundan tashqari, ta'lim oluvchilarda



o'ziga nisbatan ishonchning pastligi va og'zaki hamda yozma nutq madaniyatining yaxshi emasligi ham mustaqil ta'limda ular tomonidan faollik ko'rsata olmasliklarini salbiy omillar qatoriga qo'shishimiz mumkin.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini yo'lga qo'yishda birlamchi vazifa sifatida turli shakldagi o'quv mashg'ulotlarda shaxsiy tashabbus va erkin fikrlashni rivojlantirish uchun psixolo-pedagogik hamda didaktik ta'minotlarni yaratish lozim. Mustaqil ta'limni amalga oshirishdagi asosiy prinsip bu ta'lim oluvchilarning erkin ishlashga o'rgatish bo'lishi kerak. Buning uchun fan topshiriqlarini stereotip asosli va kamaktiv bajarishdan ko'ra, tanqidiy fikrlash orqali aktiv bajarishga yo'naltirish birinchi o'rinda turishi lozim bo'ladi. Fan topshiriqlarini bajarishda mustaqil ta'limning asosiy maqsadi sifatida avvalambor fan mazmunini, undan so'ng ilmiy, ilmiy-metodik axborotlarni bilan mustaqil o'rganishga o'rgatish, shaxsiy yo'naltirish hamda rivojlantirish, shundan keyin kasbiy malakasini doimiy oshirib borish ko'nikmasini shakllantirish kerak.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini amalga oshirishda o'qituvchi koordinator bo'lishi lozim. Professor-o'qituvchi talaba shaxsi uchun emas, balki bo'lajak mutaxassisni shakllantirayotganligini o'z diqqat markazida tutishi kerak. O'qituvchi talabaning aktiv va passiv tomonlarini yaxshi tushunib yetishi, shaxsiy qobiliyati hamda qiziqishlarini nazarda tutishi mustaqil ta'limni samarali yo'lga qo'yish uchun asos bo'ladi. Ayni o'rinda o'qituvchining funksiyasi bo'lajak mutaxassisning kuchli tomonlarini aniqlash va uni rivojlantirishdan iboratdir. [4, 131-135]

Ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini amalga oshirish sharoitida talaba o'quv fanini samarali o'zlashtirishi uchun talab qilinadigan quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lish kerak:

a) axborot bilan mustaqil ishlay olish. Bunda asosiy mazmunni aniq, uzviy va izchillikda qayd etib borish; fan doirasida o'quv topshirig'i hamda vazifalarini ham etish uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni topishi, taxlil qilishi, tushunib yetishi, tanqidiy baholay olishi, qayd etishi, hisobot tayyorlashi, shuningdek infografikalar ko'rinishida taqdim eta olishi; belgilangan talablarga muvofiq shaxsiy ma'lumotlar katalogini (maqola, tezis, ma'ruza va boshq.) yaratish;

b) taqdimot ko'nikmalari. fan doirasida o'quv topshiriqlari natijalarini ma'ruza qilayotganda o'zini dadil tutishi, turli namoyish vositalardan unumli foydalana olishi;

v) ta'limdagi interfaol harakatini qo'llab quvvatlash. O'z qarashlarini himoya qila olishi va zarurat bo'lganda murosa qila olishi, qizg'in suhbatga kirisha olishi, savollarni qabul qila olishi hamda asosli javoblar berishi, munozara qoidalariga amal qilgan holda olib borishi, debatlarida ishtirok nutq va kasb madaniyatiga amal qilishi;

g) jamoaviy faoliyatga tayyorligi va qobiliyati. Fan doirasida o'quv topshiriqlarini bajarish yuzasidan hamkorlikda jamoa a'zolari bilan rejalashtirish,



qo'yilgan vazifani ham etishda hamkorlikdagi muloqot va harakat, o'zaro qo'llab quvvatlash va baholashda aks etadigan hamkorlikda ishlash;

d) Muammoni hal qilishda faol ishtirok etish. Muammoli vaziyatlarni (Keystadi) yechimini ta'minlovchi vazifalarni tahlil qila olishi, o'quv topshiriqlarini yechimini taklif etishda noodatiy yo'llarni topish, g'oya va farazlarni ilgari sursh hamda hulosalarni shakllantirish;

e) axborotlar bilan ishlay olish. Axborotlarni izlash, yig'ish, qayta ishlash va saqlash uchun axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish.

Mustaqil ta'lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, uzviyligi va izchilligi hamda o'quv mazmunining bevosita zarurligi, qiziqarliligi, nazariya va amaliyot bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, bundan tashqari topshiriqlarni bajarish ijodiy xarakterga bo'lishi muhimdir. Ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limi fan doirasida zarur sanalgan va mustahkam asoslarga tayanadi. Eng zarur omil sifatida shuni ko'rsatish mumkinki, talabanning kelgusida kasbiy faoliyatga samarali tayyorgarligidir[5]. Mustaqil ta'lim olish uchun yetarlicha tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalar ijodiy hususiyatga ega bo'lgan va shu bilan birga murakkab sanalgan topshiriqlarni ham bajara olishga qodir bo'ladilar. Ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun fan doirasida yo'naltirilgan metodik qo'llanmalar zarurati xam asosiy omillardan hisoblanadi. Yo'naltirilgan metodik qo'llanmalarda mustaqil ta'lim topshiriqlarining algoritmi, debat va diskussiyalar uchun mavzular, mustaqil o'qish uchun adabiyotlar, o'z-o'zini baholash uchun testlar, taqdimotlar yaratish uchun ko'rsatmalar, o'z-o'zini nazorat qilish uchun sinov materiallari, amaliy vazifalar va boshqalar berilishi maqsadga muvofiq keladi.

Har qanday fanni o'rganishda mustaqil ta'limni tashkil etishning o'zaro aloqador uch shakli kuzatish mumkin:

Auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim(yo'riqnoma asosida talabanning mustaqil faoliyati).

O'qituvchi rahbarligida tashkil etiladigan mustaqil ta'lim, (masalan, kurs ishi, BMI, amaliyot va boshq.).

Ijodiy. Ijodiy shakl nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin.

Jumladan, o'rganilayotgan fanning alohida boblariga oid berilgan mavzu bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, ma'ruza va yozma ishlar tayyorlash va boshq. Talabaga mavzu, hatto rahbarni ham tanlash huquqini berish maqsadga muvofiq bo'ladi; tanlangan fan bo'yicha illyustrativ materiallarni tayyorlash, bunda mavzu o'qituvchi tomonidan beriladi, uning mazmuni va shakli, ijrosi talaba tomonidan belgilanadi; hajmi, murakkabligi, mazmuni talabanning o'zi tomonidan shakllantiriladigan ilmiy krossvord, chaynvord, anagrammalar tuzish; sohaga oid ilmiy monografiya va boshqa ilmiy nashrlardagi mualliflarning asariga asosiy g'oya va qoidalarni ajratgan



holda, o‘z shaxsiy asoslangan bahosi hamda foydalanishga tavsiyasi ko‘rsatilgan taqriz yoki xulosa yozish; turli xarakterdagi uy vazifalarini bajarish. Bunga mashq va masalalarni yechish, uy sharoitida bajarish mumkin bo‘lgan tajribalar o‘tkazish, adabiy yoki ilmiy manbalarni tanlash va o‘rganish, turli jadvallarni tuzish, diagramma va grafik ishlarni bajarish, turli hisob-kitoblarni amalga oshirish kabilar kiradi; talabadagi tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan individual topshiriqlarni bajarish. Alohida topshiriqlarni har bitta talaba yoki talabalarning bir qismi olishi mumkin; kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish; ilmiy-nazariy yoki ilmiy-amaliy anjumanlar, ko‘rik-tanlovlar, olimpiadalarga tayyorgarlik; tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy insho yozish yoki kimyoviy diktant o‘tkazish.

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilganda, mustaqil talim olishga ijobiy munosabati shakllantirish va rivojlantirish uchun har bir bosqichda ishning aniq maqsadi va qo‘yilgan vazifalari tushuntirilishi, talabalar tomonidan ana shu maqsad va vazifalarning anglanganligi nazorat qilinishi kerak. Bu ishlar keyinchalik talaba tomonidan vazifalarni mustaqil tarzda qo‘ya bilish hamda maqsadlarni tanlash ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga asos bo‘ladi. Kimyo fanlarining amaliy mashg‘ulotlarida masala va mashqlarni mustaqil bajarilishiga kengroq e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq keladi. O‘quv-metodik adabiyotlar faqat axborot berishgina emas, balki tashkiliy-nazorat qilish vazifalarini ham bajarishi kerak. O‘quv-metodik adabiyotlarning boshqaruvchilik vazifasi sahifalar belgilashda, o‘quv materialining asosiy qoidalarini matnda ajratib ko‘rsatishida, o‘quv materiallarining o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatib beruvchi tarkibiy-mantiqiy jadvallarning mavjudligida namoyon bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31.08.2023 (<https://president.uz/oz/lists/view/6637>)

2. Raximov Z.T. Pedagogik kompetentlik ta‘lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida. // Zamonaviy ta‘lim. -Toshkent: -2019. №7(80). 3-8 -b.

3. Бердикулов Р. Ш. Таълимни модернизациялаш шaroitida булажак кимё ўқитувчиларининг дедуктив тахлил кўникмаларини шакллантириш. Педагогика фанлар бўйича фалсафа доктори диссертация иши. Педагогика фанлар бўйича фалсафа доктори диссертация иши. Тошкент: -2020.

4. Usmanova Z.Sh. Innovatsion ta‘lim muhitida talabalar mustaqil ta‘limining tashkiliy masalalari. // O‘zMU xabarlar jurnali, 2023, 1/12/1, 231-235 b. ISSN 2181-7324

5. Usmanova Z.Sh. Talabalar mustaqil ta‘limini tashkil etishda keyslardan foydalanish metodikasi. // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2024, №10.



## O'QUV-TARBIYA JARAYONINI LOYIHALASHDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV FAOLIYATDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**F.I.IBRAGIMOVA,**

*Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktranti(DSc)*

*Bugungi kun o'qituvchisi tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan innovatsion metodlarni tanlay olishlari, uni qo'llashga yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashtira olishlari kerak. O'qituvchi tomonidan tanlanadigan innovatsion metodlarning tarbiyaviy jarayonlarning maqsadiga mos kelishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanishda ulardagi kognitiv faoliyatni rivojlantirishning xiga xos ahamiyatiga bag'ishlanadi.*

**Kalit so'zlar:** bo'lajak o'qituvchilar, loyihalash faoliyati, kognitiv xususiyatlar, kognitiv faoliyat, zamonaviy ta'lim usullari va vositalari.

*Today's teacher must be able to select innovative methods necessary for the implementation of educational processes, design educational processes aimed at their application. It is important that the innovative methods chosen by the teacher correspond to the goals of the educational processes. This article is devoted to the special importance of developing cognitive activity in future teachers when using modern educational tools.*

**Key words:** future teachers, design activity, cognitive characteristics, cognitive activity, modern educational methods and tools.

*Современный педагог должен уметь выбирать инновационные методы, необходимые для реализации образовательных процессов, и проектировать образовательные процессы, направленные на их применение. Важно, чтобы выбранные преподавателем инновационные методы соответствовали целям образовательного процесса. В статье подчеркивается особая значимость развития познавательной активности будущих учителей при использовании современных средств обучения.*

**Ключевые слова:** будущие учителя, проектная деятельность, познавательные особенности, познавательная активность, современные образовательные методы и средства.

Tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash o'z ichiga ta'lim dasturlari va texnologiyalariga oid yangiliklarni qamrab oladi. Tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash har uchala yo'nalishdagi yangiliklarni o'zida mujasamlashtirishni talab qiladi.

Oliy pedagogik ta'lim muasasalarida bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday inovatsion pedagogik turlaridan biri bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashdan iborat. YuNESKO huzurida ta'limni rivojlantirish Osiyo pedagogik



innovatsiyalar markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu markaz turli rivojlangan mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilikka taqdim etmoqda.

«Innovatsiya» tushunchasi dastlab XIX asrda madaniyatshunoslar tomonidan iste'molga kiritilgan. Innovatsiya tushunchasi muayyan bir madaniyat elementlarini boshqasiga singdirish sifati talqin etilgan. XX asrning boshlariga kelib, ushbu atama muayyan sohalar, shu jumladan ta'lim-tarbiya sohasiga ham yangi yondashuvlar va yangi texnologiyalarni tatbiq etishga yo'naltirildi. Innovatsion pedagogika an'anaviy pedagogikaga nisbatan qiyoslanganda, ilg'or g'oyalar va tajribalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda innovatsion pedagogika va o'qituvchining kognitiv faoliyatiga nisbatan ilmiy yondashuvlar vujudga kelmoqda. Kognitiv faoliyatning asosiy maqsadi – mavjud o'quv-tarbiya jarayonini yangi g'oyalar va texnologiyalar asosida qayta qurish hamda muntazam rivojlantirishdan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash ta'lim jarayonidagi mavjud muammolarning samarali yechimlarini topishga yo'naltirilganidir. Ta'lim jarayonidagi muammolarni yechish vaziyatida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash uning tajribasiga singgan yangi bilimlar, usullar va texnologiyalar majmuidir. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash ob'ektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, ilmiylik, o'zaro mutanosiblik xarakteriga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi darsga kirishdan oldin o'zining kognitiv faoliyatini loyihalashtiradi, tahlil etadi va uning natijalarini bashorat qiladi.

O'qituvchining o'quvchilarning mavjud bilimlari, intellektual taraqqiyoti va tarbiyalanganlik darajasini hisobga olishi, uning kognitiv faoliyatida ob'ektivlikni ta'minlovchi mezon hisoblanadi. G'oyaviylik o'qituvchi kognitiv faoliyatining muhim belgisidir. Chunki, u o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarga milliy g'oya asoslarini har tomonlama chuqur singdira olishi lozim. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish o'ta murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi kognitiv faoliyatining ta'lim maqsadlariga muvofiqligiga bog'liq.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash avvalom bor, o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning mustaqil, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish, ularda o'qishga havas uyg'otishga qaratilishi lozim. O'quvchilarning maqsadga muvofiq tarzda rivojlanishlari, barkamol shaxs sifatida shakllanishlari, o'zlariga yoqqan kasbni tanlashlari, qiziqishlariga qarab turli mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari, kelajakda mikrosotsiumda munosib o'rin topishlari ko'p jihatdan o'qituvchilarning samarali kognitiv faoliyatlariga bog'liq.

Har bir o'quvchini sevish, ardoqlash, ularga hurmat nazari bilan qarash va ularning rivojlanishi uchun zarur pedagogik sharoitni yaratish o'qituvchining



kasbiy mahoratiga bog'liq. O'qituvchi insonparvar pedagogika tamoyillariga tayangan holda, o'quvchining to'laqonli rivojlanishi uchun barcha pedagogik chora-tadbirlarni qo'llashi lozim. Insonparvar pedagogika kognitiv faoliyat me'yorlarini o'zida mujassamlashtiradi. Chunki, insonparvar pedagogikada o'qituvchi hamda o'quvchi orasidagi yangicha munosabatlar va hamkorlik o'z ifodasini topgan. Kognitiv faoliyat natijasida o'quv-tarbiya jarayoni yangi usullar va texnologiyalar yordamida qayta tashkil etiladi.

Pedagogik ensiklopediyasida innovatsiya atamasiga quyidagicha izoh berilgan: innovatsiya (ing. innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1. oldin mavjud bo'lmagan predmet, tuzilma, qadriyat va faoliyat metodlari (texnologiyalari)ni yaratish, paydo bo'lgan yangiliklarni belgi, obraz va simvollarida ifodalash, ijtimoiy o'zlashtirish hamda tarqatish orqali jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga tatbiq qilish jarayoni. 2. Yangilanishni, o'zgarishni amalda ta'lim tizimiga joriy etish jarayoni va faoliyati.

Innovatsiya – eskilikni yangilik bilan o'zaro o'rin almashinishiga xizmat qiladigan tezkor jarayon bo'lib, ta'lim muassasasi faoliyatining turli sohalarini, jumladan tarbiyaviy jarayonlarga ham yangi loyihalarni tatbiq etishni nazarda tutadi. Innovatsion pedagogik loyiha esa qabul qilingan va qismlarga ajratilgan innovatsion pedagogik g'oya, fikr. Innovatsion pedagogik g'oya – tizimlashtirilgan pedagogik g'oyalar, tarbiyaviy jarayon prognoztikasi, ma'lumotlar. Ko'rinib turibdiki, o'quv tarbiya jarayonining loyihasi innovatsion pedagogik hodisa sifatida o'ziga yangi g'oyalar, fikrlar va texnologiyalarni mujassamlashtiradi.

Kognitiv faoliyatga nisbatan pedagogika va psixologiya fanlarida ham kuchli qiziqish vujudga keldi. Bir guruh olimlar faoliyatli yondashuvning ilmiy asoslarini yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Jumladan G.P.Shedrovskiy va uning izdoshlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar bunga misol bo'la oladi. Ular innovatsion jarayonlarni bir butun, yaxlit tarzda tahlil qilib o'rganishga muvaffaq bo'lganlar. B.V.Sazonovning ko'plab maqollari va monografiyasida innovatsion xarakterdagi kognitiv jarayonlarning tahlili o'z ifodasini topgan. Chunki innovatsiya kognitiv xarakterdagi pedagogik hodisa sifatida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlashda muhim o'rin egallaydi.

O'quv-tarbiya jarayoni loyihalashda bo'lajak o'qituvchilar birinchi navbatda insonparvarlik prinsipiga tayanishlari lozim. Insonparvarlik prinsipi har bir o'quvchi hayoti uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar va qadriyatlarni mujassamlashtirish va tizimlashtirgan holda loyihalarni singdirishni taqozo qiladi. Chunki insonparvarlik prinsipi qadriyatlar va axloqiy me'yorlar tizimi sifatida ijtimoiy pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Insonparvarlik pedagogikasi o'quv-tarbiya jarayoni subyektlari bo'lgan o'quvchilarni muntazam rivojlantirish teng huquqli, ongli,



ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashni nazarda tutadi. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor maqsad hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilardan insonparvarlikka asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlar va nazariyatlarni chuqur o'zlashtirishlari talab etiladi.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan holda tarbiyaviy jarayonlar loyihasida o'quvchilarning mustaqil rivojlanishi, tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishi, o'zini shaxs sifatida namoyon qilishiga sharoit yaratilishini nazarda tutish lozim. Tarbiyaviy jarayonlarning loyihasi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tuzilishi natijasida o'quvchilar o'zlarini namoyon eta olishlari, tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari, erkin faoliyat ko'rsatishlari, kreativ fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishlarini nazarda tutgan qulay vaziyatlarni tashkil etish imkoniyati vujudga keladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarga loyihalashga tayyorlashda o'quvchilarga insonparvarona munosabatda bo'lish metodikalarini o'zlashtirishlariga e'tibor qaratish talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilar kognitiv faoliyatning belgilari sifatida yangi bilim va axborotlarning o'zlashtirilganligi, o'quvchini intellektual, jismoniy, ma'naviy rivojlantirish haqidagi yangi bilimlar va mahoratni egallaganligi; mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishga oid nazariy bilimlar va ijtimoiy tajribani o'zlashtirganligi, har qanday o'quv-tarbiya vaziyatida muhim pedagogik qarorlar qabul qila olishi; ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga yo'naltirish uchun zarur bo'lgan didaktik vositalarni tanlay olishida namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilar tarbiyaviy jarayonlarni muvaffaqiyatli loyihalashtirishlari uchun eng zarur ko'nikmalar sifatida o'zi bilan o'quvchilar orasida haqiqiy, insoniy munosabatlar, rivojlantiruvchi o'quv-tarbiya vaziyatini tashkil etish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абатуров В. Наумова Ю. Медиатехнологии в имидже государства. // Экономическое обозрение. 2003, №6. - С.37.
2. J.Meliqulov. Importlashayotgan ong yoxud globallashayotgan dunyo muammolari. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2006 yil, 1 dekabr. 48-son (3877), 2-bet.
3. Смирнов С.Д. Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. М.: Академия, 2005. 400 с.



## TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI JORIY QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**I.E. SHERNAZAROV,**

*Nizomiy nomidagi TDPU, p.f.d. DSc, professor v.b.*

*Ushbu maqolada so'ngi yillarda mamlakatimizda ta'limga bo'lgan e'tibor, fanlarni o'qitishda xalqaro baholash dasturlari, metod va texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish, hamda ushbu xalqaro baholash dasturlari, metod va texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Xalqaro baholash dasturlari, o'qitish texnologiyasi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayorlash milliy dasturi, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, PISA, TIMSS, PIRLS.*

*This article discusses the attention paid to education in our country in recent years, the use of international assessment programs, methods and technologies in teaching subjects to raise the quality of education to a new level, and the legal basis for the use of these international assessment programs, methods and technologies.*

**Key words:** *International assessment programs, teaching technology, Law on Education, national personnel training program, Organization for Economic Cooperation and Development, PISA, TIMSS, PIRLS.*

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida hususan huquq fanlarini o'qitishda Xalqaro baholash dasturlari metodlari va texnologiyalarni joriy qilishning huquqiy asoslari sifatida «O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida»gi qonuni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilish to'g'risida»gi 5712-son Farmoniga[2] muvofiq qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» hamda sohaga oid boshqa huquqiy va me'yoriy hujjatlarni keltirish mumkin.

Ekspirimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi deb takidlangan. Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek ta'lim to'g'risidagi qonunning 10-bobi ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik deb nomlanib maskur bobning 67-moddasiga muvofiq ta'lim tashkilotlari quyidagilar vositasida tegishli xorijiy mamlakatlarning ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Ta'lim muammolari yuzasidan:  
ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish;



qo'shma fakultetlar, o'quv markazlari va ilmiy laboratoriyalar tashkil etish; xalqaro darajadagi birgalikdagi ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot loyihalari va dasturlarini tayyorlash;

hamkorlikda fundamental hamda amaliy ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar o'tkazish; talabalar, magistrlar, doktorantlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlar almashinishini amalga oshirish;

ikki tomonlama diplomlar (Double Diploma) dasturlarini joriy etish; qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarni amalga oshirishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlari qonunchilikka muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlashni amalga oshirishi mumkin ekanligi belgilab qo'yilgan. Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha boshqa tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston ta'lim tizimida Xalqaro baholash dasturlari va metodlaridan foydalanishning yana bir huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 5538-son Farmoni[3] ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya xalq ta'limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab berib bular jumlasiga O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish.

Xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga



tabiiq etish, xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.

Xalq ta'limi tizimiga maktab yoshidagi bolalarga zamon talablariga mos ravishda ta'lim-tarbiya berishda ayrim bo'shliq va kamchiliklar mavjud, shu jumladan umumiy o'rta ta'limni boshqarish sohasida umumta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish hamda mavjud muammolarni o'z vaqtida hal etish talab etilmoqda. Umumta'lim muassasalariga yuklatilgan vazifalarning deklarativ xarakterga egaligi, ularni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning yetishmasligi amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [4].

Ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek malakali professional pedagog kadrlarni tayyorlash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar:

pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida o'quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirishni, pedagogik psixologiyani tushunish, ta'lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish;

umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo'lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

avvalo chekka hududlarda joylashgan, o'quvchilar soni kam bo'lgan umumta'lim maktablari o'qituvchilariga qo'shimcha yangi ixtisosliklar va malakalarni o'zlashtirishga imkon beradigan ta'lim infratuzilmasini shakllantirish;

malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o'qitish mazmuni va metodlarini yangilash, baholash tizimini qayta ko'rib chiqish;

pedagog xodimlarning malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish mexanizmini takomillashtirish;

xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratishdan iborat [5].



Ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga mos baholash tizimini yaratish maqsadida turli davlatlar xalqaro baholash dasturlarini, ilg'or metodlarni va zamonaviy texnologiyalarni o'z ta'lim tizimiga joriy qilmoqda. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda islohotlar olib borib, xalqaro baholash tizimlarini tatbiq etishning huquqiy asoslarini mustahkamlamoqda [6].

Xalqaro baholash dasturlari va ularning ahamiyati. Jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan xalqaro baholash dasturlari quyidagilardir:

PISA (Programme for International Student Assessment) – o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi darajasini baholaydi.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasini o'lchaydi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholaydi.

Ushbu dasturlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va amaliy bilimlarini baholashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga xalqaro baholash dasturlarini joriy qilish bo'yicha quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har bir fuqaro bilim olish huquqiga ega. 50-modda: Davlat ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'lim sifatini nazorat qilishni ta'minlaydi.

Xalqaro standartlarga mos keluvchi baholash tizimlarini joriy etish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qoidalarni o'z ichiga oladi [8].

PF-6108-sonli farmon (2020-yil 6-noyabr) – O'zbekistonda xalqaro baholash dasturlarini joriy qilish va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan muhim hujjatlardan biri.

PQ-4884-sonli qaror (2020-yil 6-noyabr) – PISA va PIRLS dasturlarida ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko'rish va baholash tizimini rivojlantirishga qaratilgan.

Milliy ta'lim sifatini baholash tizimi

Davlat ta'lim standartlari (DTS) – xalqaro talablarga muvofiq ishlab chiqilgan va baholash tizimi bilan uyg'unlashtirilgan.

Davlat test markazi (DTM) – xalqaro baholash dasturlariga mos keluvchi test tizimlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga mas'ul.

Xalqaro baholash tizimlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi usullar joriy etilmoqda:

baholashning zamonaviy metodlari



Kompetensiyaga asoslangan yondashuv – nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikmalarni baholash [9-10].

Elektron test tizimlari – onlayn platformalar orqali baholash jarayonlarini avtomatlashtirish.

Innovatsion texnologiyalar

Sun‘iy intellekt asosida baholash tizimlari – o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish va individual o‘quv yo‘nalishlarini belgilash.

Big Data va Learning Analytics – o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqtda tahlil qilish va ta‘lim jarayonini optimallashtirish.

Xalqaro baholash tizimlarini joriy etishda uchraydigan muammolar va yechimlar.

Muammolar.

O‘qituvchilarning xalqaro baholash tizimlariga tayyor emasligi.

O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va amaliy bilimlarni qo‘llash bo‘yicha tajribasining yetishmovchiligi.

Texnik infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani.

Yechimlar.

O‘qituvchilar uchun maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilish.

Tanqidiy fikrlash va kompetensiyaga asoslangan ta‘lim metodlarini rivojlantirish. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va texnik infratuzilmani takomillashtirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimida xalqaro baholash dasturlari, metodlari va texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy asoslarni yaratishdan, yuqorida takidlangan konsepsiyalarni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsad va kutilayotgan natijalar sifatida konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasining xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash darsliklarga kiritiladi;

axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat ta‘lim standartlari joriy etiladi;

xalq ta‘limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar PISA, TIMSS, PIRLS kabi dasturlar va boshqalarda O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta‘minlash, ta‘lim dasturlari va muassasalarini akkreditatsiya qilish uchun



O‘zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro birlashmalarga kirishi ta’minlanadi; kimyo, biologiya, matematika, fizika, xorijiy til, informatika fanlarini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorlanadi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli farmoniga muvofiq tasdiqlanga 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining sohaqa oid tegishli qismlarini xalq ta’limi tizimida xalqaro baholash dasturlari, metodlari va texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asosi sifatida ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda xalqaro baholash dasturlarini joriy qilish ta’lim sifatini oshirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Bu jarayonni huquqiy asoslar, ilg‘or metodlar va zamonaviy texnologiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Ta’lim to‘g‘risida». Toshkent, 20209 y., 23 sentabr. № O‘RQ-637.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi». PF-5712-sonfarmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi «Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PF-5538-sonli farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-3893445>
4. PISA 2018 Reading framework - [www.oecd.org](http://www.oecd.org) Беруний А.Р. Жавоҳирот китоби. -Т.: Мерос, 1991.
5. Бектошева С., Шерназаров И. Совершенствование методики развития функциональной грамотности учащихся. Наука и инновации, 1 (8). 2022. 1570-1577.
6. Шерназаров И. и Ходжабаева Н. Значение современных технологий в использовании материалов международных оценочных исследований. Наука и инновации, 1 (8). 2022. 1578-1582.
7. Эргашович С.И. Подготовка будущих учителей химической химии к подготовке к международным исследованиям. Журнал педагогических изобретений и практик, 15, 2022. С. 71-76.



## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA MAVZULARNI O‘ZLASHTIRISHDA RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH

**L. M. QARAXONOVA,**

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi  
milliy instituti bo‘limi mudiri,  
katta ilmiy xodim, loyiha rahbari

*Bugungi kunda texnologiyalashtirishning zamonaviy bosqichida dizaynerlar, arxitektorlar, fiziklar, biologlar va boshqalar o‘z loyihalari va ishlanmalarida, ilmiy tadqiqot faoliyatida multimedia imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Kompyuter modellarini yaratish faoliyati o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini chuqurlashtiribgina qolmay, balki modellashtirish sohasida ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.*

**Kalit so‘zlar:** multimedia texnologiyasi imkoniyatlari, multimedia mahsulotlari elementlari, dizaynerlar, arxitektorlar, fiziklar, biologlar; o‘quvchilarni tadqiqotchilikka kompetensiyalarini rivojlantirish.

*На современном этапе развития технологий конструкторы, архитекторы, физики, биологи и другие широко используют возможности мультимедийных технологий в своих проектах и разработках и научно-исследовательской деятельности. Деятельность по созданию компьютерных моделей не только углубляет пространственное воображение учащихся, но и способствует развитию их интеллектуальных и творческих способностей в области моделирования.*

**Ключевые слова:** возможности мультимедийных технологий, элементы технологии моделирования, технологии виртуального существования, дизайнеры, архитекторы, физики, биологи, развитие исследовательских компетенций студентов.

*At the present stage of technological development, designers, architects, physicists, biologists and others widely use the possibilities of multimedia technologies in their projects and developments and research activities. The activity of creating computer models not only deepens the spatial imagination of students, but also contributes to the development of their intellectual and creative abilities in the field of modeling.*

**Key words:** possibilities of multimedia technologies, elements of modeling technology, technologies of virtual existence, designers, architects, physicists, biologists, development of students' research competencies.

Virtual borliq texnologiyalari uzoq vaqtdan beri qarorlarni, shu jumladan davlat qarorlarini qo‘llab-quvvatlash uchun muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinmoqda, ammo shuni ta’kidlash kerakki, «virtual haqiqat» atamasining talqini umuman qabul qilinmaydi. Ko‘pincha bu atama haqiqatning uch o‘lchovli kompyuter modellariga murojaat qilish uchun ishlatiladi. «Kompyuter grafikasi va



animatsiyasining tanqidiy tarixi»da W.Carlson, J.Brigts va S.Brayson tomonidan virtual haqiqatni «o'Ichovli kompyuter simulyatsiyasi» va «interfaol uch o'Ichovli dunyoning ta'sirini yaratish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish» deb ta'riflaydi, mos ravishda. Braysonning ta'rifi atama muallifi deb hisoblanadigan, virtual haqiqatni tushunadigan va foydalanuvchi real vaqt rejimida ishlashi mumkin bo'lgan muhitga dasturiy kompyuter majmuasi yordamida yaratilganligini ta'kidlaydigan J.Lanierning «virtual haqiqat» sharhiga juda yaqin. 1986 yilda Doe o'sha paytda «virtual muhit» («Virtual muhit») muammosi ustida ishlagan S. Fisherning tadqiqoti muhokamasida ushbu atama birinchi marta ishlatilganligini aytib o'tgan. Shunday qilib, ushbu atama ilgari M. Krugerning «Sun'iy borliq» va V. Gibsonning «Gibspace» atamalariga alternativa bo'lgan.

Texnologiyalashtirishning zamonaviy bosqichida dizaynerlar, arxitektorlar, fiziklar, biologlar va boshqalar o'z loyihalari va ishlanmalarida, ilmiy tadqiqot faoliyatida texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Tabiiyki, bu yangilik ta'lim sohasini, o'quv-tarbiya jarayonini ham chetlab o'tmadi.

Har qanday zamonaviy multimedia dasturi kompyuter grafikasisiz amalga oshirilmaydi. O'quvchilar oldida turgan vazifalar qiziqarli va ko'pincha hal qilish qiyin, bu esa o'quv motivatsiyasini oshirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, informatika fani bo'yicha o'z qobiliyatlarini ishga solish va biologiya fani bilan aloqani aniqlash, ijodiy imkoniyatlaridan foydalanishni talab etadi.

Табийий фан mashg'ulotlarda modellashtirish texnologiyasi elementlaridan foydalanish maktab o'quvchilarining amaliy tayyorgarligini yaxshilaydi, bu esa texnik mutaxassisliklarni muvaffaqiyatli egallashga olib keladi. Kompyuter modellarini yaratish faoliyati o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini chuqurlashtiribgina qolmay, balki modellashtirish sohasida ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning bir qismi sifatida o'rganish o'qituvchining ijodiy vazifasi bo'lib, o'quv jarayoniga ko'plab pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi:

muammoli ta'lim texnologiyasida foydalanish, o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga yordam beradi;

tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi, kuchli o'quvchilar o'zlarining kreativ qobiliyatlarini tasdiqlaydi, zaif talabalar o'quv muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi va kasbiy izlanuvchanlik darajasi oshadi;



loyihalash texnologiyasi talabalarning individual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy va ijtimoiy o'z-o'zini aniqlashga ongli ravishda yondashish imkonini beradi;

tadqiqotchilik metodi talabalarga mustaqil ravishda bilimlarini to'ldirishga, o'rganilayotgan muammoni chuqur o'rganishga va uni hal qilish yo'llarini taklif qilishga imkon beradi, bu esa dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu har bir talabaining individual rivojlanish yo'lini aniqlash uchun muhimdir.

O'quv jarayonini tashkil etish uchun o'quv jarayonining xarakteri va tashkil etilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan axborot texnologiyalaridan foydalaniladi, chunki talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tabiati o'zgarib, pedagogik funksiyalarning bir qismi kompyuterga o'tkaziladi.

Metodik tayyorgarliksiz va didaktik materiallarsiz 3D-modellashtirish yordamida o'qitishni samarali o'tkazish mumkin emas, chunki modellashtirish bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlarni qamrab olish deyarli ko'pchilikni tashkil etadi va ularning tayyorgarlik darajasi ham turli darajada bo'ladi. Har bir o'quvchiga berilgan o'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha batafsil ko'rsatmalar mavjudligi uning qobiliyatiga va materialni o'zlashtirish tezligiga qarab samarali ravishda «yuklash» imkonini beradi.

Har bir o'quvchi o'z shaxsini namoyish qilishi mumkin. Ushbu tajribada individual, guruhli va frontal ish shakllari qo'llaniladi: ma'ruza, amaliy ish, ijodiy loyiha, o'quv o'yini, raqobat, mavzuga oid mashqlar.

3D texnologiyalarining elementlaridan foydalanib o'rganiladigan topshiriqlar darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil o'tkazilishi rejalashtirilgan. Topshiriqlar har xil tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilar tomonidan bajarilishi uchun mo'ljallangan.

3D dasturidagi amaliy topshiriqlar fazoviy modellashtirish elementlariga murojaat etilishi bilan ijodiydir. Bunday mashg'ulotlar quyidagi metodlardan foydalanishni o'z ichiga oladi: o'quvchilarning kompyuterlarda sinxron ishlashi, bilimlarini mustahkamlashga doir topshiriq, ko'nikmalarini tekshirish, o'quvchilarning dars materiallarini onlayn o'zlashtirish; mustaqil ish topshiriqlarini rejalashtirish, kompyuterda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun zarur.

Biologiya darslarida 3D-texnologiya yordamida mavzularni o'rganishda o'quvchilar organizmdagi ancha murakkab o'zgarishlarni amalga oshiradilar. Ish guruh shaklida tashkil etiladi, bu deyarli har bir o'quvchiga munozaralar,



hamkorlikda qaror qabul qilish, mavzu bo'yicha bilim darajasini sozlash, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish va yetakchi, boshqaruvchanlik xususiyatini namoyish etishda o'zini muvaffaqiyatini isbotlashga imkon beradi.

Amaliy ishlarni bajarish jarayonida guruh a'zolari hodisa va jarayonlarni qanday modellashtirish, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish usullari va ularning kuchli tomonlarini baholash to'g'risida o'z taxminlarini taqdim etish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, guruh faoliyati muloqotda tajriba orttirishga, o'z nuqtai nazarini isbotlash qobiliyatiga ega bo'lishga imkon beradi, bu o'quvchilarning axborot kompetensiyalarini shakllantirishda muhimdir.

Tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan ustuvor ish shakli loyiha metodi bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarga turli xil fanlardan bilimlarni integratsiyalashni talab qiladigan muammo va topshiriqlarni hal qilish jarayonida mustaqil ravishda bajarish, bilim olish imkoniyatini berishidir. Ushbu texnologiya o'quvchilarga ilgari olingan bilim va ko'nikmalardan foydalangan holda vazifalarni hal qilish, amaliy mustaqil faoliyatda o'zini namoyon qila olish qobiliyati tufayli bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli amalga oshirish imkonini beradi. Muammoni hal qilish vosita va metodlarini tanlash imkoniyatini o'quvchilarning o'zlariga qoldirgan ma'qul. Bu muvaffaqiyat holatini yaratishga hamda o'quv va kasbga yo'naltirishga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Джурраев Р. Х., Карахонова Л. М. Медиаобразование как фактор повышения качества обучения школьников //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. - 2013. - Т. 11. - №. 2. - С. 322-323.

2. Карахонова Л. М. Эффективное использование электронных образовательных ресурсов в обучении биологии //Наука и образование сегодня. - 2020. - №. 6-1 (53). - С. 41-42.

3. Karakhonova L. M. Using the electronic educational resources in biology lessons //International scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy. - 2019. - С. 35-39.

4. Караханова Л. 6. Development of students' knowledge based on the use of 3d educational technologies in the biology education //Образование и инновационные исследования международного научно-методического журнал. - 2020. - Т. 1. - №. 2. - С. 55-59.



## TA'LIM MUASSASALARI UCHUN ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI YARATISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

**S.M.MO'MINOV,**

Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil tadqiqotchisi

*Zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsion vositalardan o'quv jarayonlarda foydalanish, turli sohalarda mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishi ma'lum. Jumladan, Xalq ta'limi tizimidagi maktablarda o'quv jarayonlarini sifat va samaradorligini oshirishda yagona axborot-ta'lim portalini shakllantirish axborot-texnologiyalari sohasida muhim ilmiy-texnik masala hisoblanadi. Mazkur maqolada elektron axborot ta'lim resurslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va pedagogik omillari keltirilgan.*

**Tunyach so'z va iboralar:** ta'lim tizimi, zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli texnika vositalari, elektron resurslar, elektron qo'llanmalar, portal, sayt va sayt ma'lumotlaridan foydalanish.

*Известно, что использование современных информационных технологий и средств телекоммуникаций в образовательном процессе повышает эффективность подготовки специалистов различного профиля. В частности, формирование единого информационно-образовательного портала для повышения качества и эффективности образовательных процессов в школах системы народного образования является важной научно-технической проблемой в сфере информационных технологий. В статье представлены основные направления и педагогические факторы формирования электронных информационно-образовательных ресурсов.*

**Ключевые слова:** система образования, современные информационные технологии, цифровые инструменты, электронные ресурсы, электронные приложения, портал, сайт и использование информации сайта.

*It is known that the use of modern information technologies and telecommunications in the educational process increases the efficiency of training specialists in various fields. In particular, the formation of a single information and educational portal to improve the quality and efficiency of educational processes in schools of the public education system is an important scientific and technical problem in the field of information technology. The article presents the main directions and pedagogical factors in the formation of electronic information and educational resources.*

**Key words:** education system, modern information technologies, digital tools, electronic resources, electronic applications, portal, site and use of site information.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida umumta'lim maktablarining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash axborotlashtirilgan umumta'lim maktablarining istiqbolli ekanligini yaqqol namoyon qiladi. Buni quyidagi fikrlar asosida tasdiqlash mumkin. An'anaviy didaktika o'z oldiga shaxsni aqliy rivojlantirish, uning o'quv



faoliyatida bilimni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarini egallash jarayonini optimallashtirishga qaratilgan metodik usullarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish nazariyasini shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi.

Axborotlashgan umumta'lim maktablarida didaktika jamiyatning zamonaviy ehtiyojiga mos keluvchi ta'lim va tarbiya nazariyasini ifodalab, u shaxsning intellektual rivojlanishini jadallashtiruvchi ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik ta'sirga ega bo'lib, shaxsning intellektual salohiyatini namoyish etish va rivojlantirishni o'zining asosiy maqsadi qilib qo'yadi. Bu maqsadga, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini joriy etish orqali samaradorlikka erishish mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatining keng jabhali turlarini taklif etadi. Bunda didaktika fikrlashni, shaxsning qobiliyat va imkoniyatlari darajasini, estetik didni, axborot madaniyatini, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishni, o'quv-axborot faoliyatiga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi.

Ta'lim muassasalar uchun yaratilayotgan elektron axborot ta'lim resurslari yaratish va ta'lim tizimiga joriy etishda elektron ta'lim tizimiga qo'yilgan talablar juda muhim ahamiyat kasb etadi. tadqiqot muallifi, olimlar va AKT mutaxassislari ishtirokida «Elektron ta'lim milliy tizimiga kiritiladigan elektron metodik komplekslar va boshqa ta'lim resurslariga yagona talablar» to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti ishlab chiqilgan bo'lib, u O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligidan tomonidan 2017-yilning 17 noyabrida O'zDSt 36.2030:2017-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mazkur standart elektron ta'lim kontentini yaratishni qo'llab quvvatlash maqsadida elektron ta'lim resurslariga umumiy texnik talablar ishlab chiqishni va ta'lim oluvchilarning axborot ta'lim muhitini takomillashtirishga qaratilgan elektron ta'lim tizimini, elektron axborot-ta'lim resurslarini tartibga soladi. Ushbu standart yangi elektron axborot-ta'lim resurslari mazmunini takomillashtirish, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirish, elektron axborot-ta'lim muhitini yaratish, elektron o'quv adabiyotlarini bosqichma-bosqich ta'lim amaliyotida keng joriy etish, xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan masofadan o'qitish usullarining samaradorligini oshirish hamda halqaro standartlarga javob beradigan ta'lim tizimida yagona elektron axborot-ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan.



Mazkur Davlat standarti amaliyotga joriy etilib unga muvofiq ta'lim muassasalar uchun elektron ta'lim resurslari yaratilib kelinmoqda.

Virtual o'quv-resurslarining portal tarkibida yuqorida aniqlangan ko'rinishdagi joylashuvi o'quvchilarning barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. O'z navbatida bunday holat o'quvchilarning mazkur fanlardan chuqur o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Elektron axborot-ta'lim resursi (EATR) – o'rganish va ta'lim berish uchun qulay tarzda keltirilgan, ilmiy va amaliy xarakterga ega tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, turli yoshdagi va ta'lim olish darajasidagi o'quvchilarga mo'ljallangan elektron resurs.

Elektron axborot-ta'lim resurslaridan o'quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun berilgan qo'shimcha mashg'ulotlar, audio va videomateriallardan uy vazifasi sifatida foydalanishi mumkin. Mustaqil holda uy vazifasi sifatida ta'lim resurslaridan foydalanishning afzalligi quyidagilardir:

- mustaqil bilim olish;
- mustaqil fikrlash;
- bilim samaradorligini oshirish;
- fanga bo'lgan qiziqishini orttirish;
- tinglangan audio-video materiallar orqali o'rganilayotgan tildagi so'zlar talaffuziga amal qilish;
- video materiallarni ko'rish orqali esda saqlab qolish;
- vaqtdan istalganicha foydalanish;
- tinglab-tushunish malakasini oshirish;
- mamlakatshunoslikka oid materiallarni ko'rish orqali mamlakatimiz hamda tili o'rganilayotgan mamlakat haqida tasavvurga ega bo'lish;
- o'z bilimini nazorat qilishga erishish.

Elektron axborot-ta'lim resurslarini ikki turga bo'lingan:

- elektron darslik;
- multimediali elektron axborot-ta'lim resurs.

Bugungi kunga qadar yaratilgan elektron darsliklar quyidagi axborot-resurslarini o'z ichiga olganligi e'tirof etilgan:

- nazariy ma'lumotlar;
- video ma'lumotlar;
- to'liq qo'llanma (darsliklarda mavjud barcha ma'lumot)lar



- mavzular kesimida interfaol nazoratlar;
- tovush va matn ma'lumotlari;
- interfaol elementlar va lug'atlar.

Tadqiqot davomida axborot ta'lim resurslarini shakllantirishning pedagogik talablari keltirilgan.

Axborot ta'lim resurslarini shakllantirishda dastlab quyidagi pedagogik omillar aniqlanishi lozimligi uqtirilgan:

- resurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- ta'lim resurslarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va muloqot.

Tadqiqot davomida elektron axborot ta'lim resurslarini uzatish vositalari va ularning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirilgan.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali elektron axborot ta'lim resurslari yordamida o'quv axborotlarini uzatish va qabul qilish usuli bo'yicha sinxron va asinxron tizimlar mavjudligi qayd etilgan.

Sinxron tizimlar elektron o'qish jarayonida bir vaqtning o'zida ham o'quvchilarni ham o'qituvchi ni qatnashishini talab etadi. Bunday tizimlarga interaktiv televidenie, audio grafika, kompyuter telekonferensiyalar, IRC, MUD, MOO formatlardagi muloqot shakllari kirishi ko'rsatib o'tilgan.

Asinxron tizimlar elektron o'qish jarayonida o'quvchi va o'qituvchini bir vaqtning o'zida qatnashishini talab etmaydi. O'quvchilarning o'zi mashg'ulotlar rejasi va vaqtini tanlashi, bunday tizimlarga nashr materiallari, audiokassetalar, videokassetalar, Internet asosidagi resurslarni kiritish mumkinligi ko'rsatilgan.

Bugungi kunda yaratilgan elektron darsliklardan foydalanish uchun uni o'rnatiladigan kompyuterning operatsion tizimi va dasturiy ta'minotiga qo'yiladigan minimal talablar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan bo'lishiga qaramay foydalanuvchilar bu qo'llanmalar bilan tanishmaganlar.

Amalga oshiralayotgan tadqiqot doirasida «Elektron axborot-ta'lim reurslaridan samarali foydalanish usullari» nomli elektron qo'llanma yaratildi. Mazkur elektron axborot ta'lim resursi vazirlikning axborot-ta'lim portaliga



o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan ta'lim jarayonida foydalanishi uchun joylashtirilgan. Resurs maqola muallifi bilan hamkorlikda yaratilib, O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi AGU 0155-sonli patent guvohnomasi olingan.

Elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratishda zamonaviy animatsion dasturiy vositalar bo'lgan Macromedia Flash, 3D Studio Max va Adobe PhotoShop dasturlaridan, ma'lumotlar bazasi uchun MySQL Server MBBT, Adobe (Macromedia) Flash Player, SUN JRE 1.4.1\_01, Microsoft Java VM kabi turli dasturlardan foydalanilgan.

Ta'lim resurs «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi uchun ta'lim elektron resurslariga umumiy sanitariya-gigiena talablari» qoidalari va me'yorlari (SanPiN №0261-09)ga mos ravishda yaratildi.

Tadqiqot davomida turkum fanlardan elektron axborot axborot-ta'lim resursidan foydalanishning metodologik asoslari keltirilgan. Dasturiy mahsulot Delphi dasturlash tilida yozilganligi, uni yaratishda Flash, Corel Draw, Photoshop va Sound Forge kabi dasturiy vositalardan ham foydalanilganligi qayd etib o'tilgan. Barcha darslar bo'yicha yetarlicha nazariy ma'lumotlar mavjudligi, ma'lumotlarning ovoz va turli animatsiyalar bilan uyg'unligi, asosiy atamalar va negizlarga giper murojaat mavjudligi va boshqa ko'rsatkichlari bilan dasturiy mahsulot ahamiyatligi asoslangan. Dasturiy mahsulot Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки. joylashtirilganligi qayd etilgan.

Muallif ishtirokida 2017 yilda ishga tushirilgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot-ta'lim portali haqida fikr yuritilgan. Portalning internetdagi manzili [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz) bo'lib, u Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazining serveriga joylashtirilgan.

Portal tarkibidagi sahifalarni 3 tilda (o'zbek, rus va ingliz tillarida) ko'rish va ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati mavjud.

Portalning asosiy maqsad va funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim muassasalari pedagoglari va o'quvchilari uchun yagona axborot va ta'lim muhitini shakllantirish;
- respublikadagi maktab tizimida axborot almashuv jarayonlarini integratsiyalash;
- bevosita maktab internet manzillari orqali barcha parametrlar bo'yicha muloqot tizimini o'rnatish;
- respublika maktab tizimida masofaviy ta'lim tizimini joriy qilish;



– respublikadagi maktablarning tegishli ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar monitoringini umumlashtirishdan iborat

Portal keng ko‘lamdagi foydalanuvchilar uchun yaratilgan bo‘lib, foydalanuvchidan maxsus bilimlarni talab qilmaydi, ko‘pgina Windows tipidagi dasturlarga o‘xshab menyulardan iborat.

Umumta‘lim fanlarining axborotlashuvi – o‘quv faoliyatining takomillashuviga, bilish jarayonining intensivlashuviga, fanlar sohasining kengayishiga, chuqurlashuviga va ularning integratsiyasiga sabab bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, ta‘lim resurslari mazmunini tanlash mezonlariga o‘zgartirishlar kiritishni taqozo qiladi.

Ta‘limni elektron axborot ta‘lim resurslarining mazmuni va hajmini o‘zgarishiga, o‘quv fanlari (resurslari) dasturlarini qayta ishlab chiqishga, alohida mavzular yoki fanlarning integrallashuviga asos bo‘ladi. Bu esa, o‘quv fanlarining mazmuni va tuzilmasini o‘zgarishiga, binobarin, ta‘limning mazmuni va tuzilmasini o‘zgarishiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Джураев Р.Х., Тайлақов Н.И. Ахборотлашган таълим муҳити-ўқитиш самарадорлигини ошириш воситаси Узлуксиз таълим. -2004.- №3. -Б. 3-7.

2. Джураев Р.Х., Тайлақов Н.И., Расулова Г.А. Узлуксиз таълим тизими учун электрон ўқув қўлланмалар шакллантиришга оид илмий-методик талаблар. Узлуксиз таълим. -2005. -№2. -Б. 14-27.

3. Околелов О.П. Процесс обучения в виртуальном образовательном пространстве // Информатика и образование.- 2001.- № 10.- С.66-70.

4. Мўминов С.М. Мактаб ўқувчиларининг интернет тармоғида жойлашган таълим ресурсларидан оқилона фойдаланиш кўникмаларини ривожлантириш ҳамда глобаллашув шароитида медиа хавфсизлик масалалари // Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти. Тошкент, 2017. - Б. 8-10.



## BOSHQARUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL QILISH

**N.X.ESHANKULOVA,**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada boshqaruv malakalarini shakllantirishda ta'lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishning ahamiyati tahlil qilingan. Innovatsion yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *innovatsion yondashuv, boshqaruv malakalari, ta'lim jarayoni, loyihaviy ta'lim, muammo asosida o'qitish, teskari sinf (Flipped classroom), aralash ta'lim (Blended learning).*

*This article analyzes the importance of organizing the educational process based on an innovative approach to develop management skills. The innovative approach aims to foster independent thinking, creative approaches, and analytical skills in students.*

**Key words:** *project-based learning, problem-based learning, flipped classroom, blended learning, adaptive learning, independent thinking*

*В данной статье анализируется важность организации образовательного процесса на основе инновационного подхода для развития управленческих навыков. Инновационный подход направлен на развитие у студентов независимого мышления, творческого подхода и аналитических навыков.*

**Ключевые слова:** *инновационный подход, управленческие навыки, образовательный процесс, проектное обучение, обучение на основе проблем, перевернутый класс, смешанное обучение, адаптивное обучение, независимое мышление.*

Boshqaruv malakalarini rivojlantirishda quyida keltirilgan innovatsion metodlar yuqori samara berishi isbotlangan: 1) Loyihaviy ta'lim: bu metod o'quvchilarni real hayotdagi loyihalar ustida ishlashga undaydi. Masalan, talabalar boshqaruv bo'yicha o'z loyihalarini ishlab chiqishadi va ularni amalga oshirish rejasini tuzishadi. Bu jarayon ularni amaliy tajribaga ega bo'lishga, vaqtni boshqarish, vazifalarni taqsimlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini o'rganishga yordam beradi. 2) Muammo asosida o'qitish: muammoli ta'lim yondashuvi o'quvchilarga muayyan muammoni aniqlash va uni yechish yo'llarini izlash imkonini beradi. Masalan, o'quvchilar o'zaro fikr almashib, muammoga yechim topish uchun guruh bo'lib ishlaydilar. Bu metod o'quvchilarda tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularga boshqaruv muammolariga ijodiy yondashishni o'rgatadi. 3) Flipped classroom (teskari sinf): bu metodda o'quvchilar nazariy bilimlarni uyda mustaqil ravishda o'zlashtiradi, dars vaqtida esa, amaliy



mashg'ulotlar, loyihalar yoki muammolar ustida ishlaydi. Bu yondashuv o'qituvchiga har bir o'quvchiga individual yondashish imkonini beradi va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. 4) Blended learning (aralash ta'lim): mazkur metod onlayn va an'anaviy ta'limni uyg'unlashtiradi. O'quvchilar ma'lumotlarni onlayn platformalar orqali o'rganib, shu bilan birga sinfda o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega. Bu yondashuv boshqaruvga oid dolzarb bilimlarni tez va qulay tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. 5) Adaptiv ta'lim: adaptiv ta'lim dasturlari algoritmlar yordamida har bir o'quvchining individual o'zlashtirish darajasiga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etadi. Bu esa, boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan aniq va samarali usullarni tanlash imkonini beradi.

Mavzu bo'yicha amalga oshirilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion ta'lim metodlari, xususan, loyiha asosida o'quv, muammo asosida o'quv va «flipped classroom» metodlari, bugungi kunda talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi interaktiv va jamoaviy o'qitish jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Olimlar ushbu mavzuga oid ko'pgina tadqiqot ishlarida boshqaruv malakalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan innovatsion metodlar jumladan, loyihaviy ta'lim o'quvchilarga real dunyo muammolarini yechishda amaliy tajriba olish imkonini beradi, bu esa, boshqaruv malakalarini mustahkamlashga yordam beradi deya ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar (Barrows, 2000; Hung, 2015) «Muammo asosida o'qitish» metodini o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali deb topdilar. Bu yondashuv talabalarga real muammolarni hal qilishni o'rganishga yordam beradi. O'quvchilar guruhda ishlash va birgalikda muammolarni tahlil qilish orqali boshqaruv malakalarini rivojlantiradi deya ta'kidlaydi. Boshqaruv malakalarini shakllantirishda «Teskari sinf» modeli («flipped classroom») metodi, ayniqsa, samarali hisoblanadi chunki talabalar o'z bilimlarini mustahkamlash va boshqalar bilan muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar deydi bu metod asoschilari, Jonatan Bergman va Aaron Sams o'z asarlarida. 2007-yilda ular avval sportchilar uchun darslarni uyda tomosha qilish imkoniyatini yaratish maqsadida o'zlarining video darsliklarini ishlab chiqdilar, chunki sport bilan shug'ullanadigan talabalar ko'pincha darslardan qolib ketishardi. So'ngra, bu g'oya kengroq ta'lim yondashuviga aylanishi bilan, «teskari sinf» deb ataladigan yangi usulni rivojlantirdilar. Bu usulda talabalar darslarni uyda tomosha qilib, sinfda vaqtni interaktiv mashg'ulotlar, guruh ishlar yoki amaliy topshiriqlarni bajarishga sarflaydilar. Bu yondashuv talabalar uchun ko'proq faollik va chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi, chunki ular dars materialini uyda o'zlarining tezligida o'rganib, sinfda yanada murakkab faoliyatlarga vaqt ajratadilar. Teskari sinf ta'limi ko'plab o'qituvchilar tomonidan talabalarni markazga qo'ygan ta'limni qo'llashda keng tarqaldi va bu ta'lim jarayonini o'zgartirishga yordam beradigan samarali metodlardan biri sifatida tan olingan. Bu metod, ayniqsa, boshqaruv



malakalarini shakllantirishda samarali, chunki talabalar o'z bilimlarini mustahkamlash va boshqalar bilan muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kanadalik olimlardan Garrison va Kanuka (2004) ta'lim va onlayn o'qitish metodologiyasi sohasidagi ishlar bilan tanilgan. Ularning 2004-yildagi «Blended Learning: Understanding the Concept, Context, and Application» nomli maqolasi onlayn va an'anaviy o'qitish metodlarini birlashtirgan o'qitish modeliga oid tadqiqotlarni o'rganish uchun asos bo'lgan. Bu maqolada blended learning (aralash ta'lim) kontseptsiyasining dastlabki tushunchalari va unga qanday moslashish kerakligi haqida so'z yuritiladi. Garrison va Kanuka ta'lim texnologiyalari va onlayn ta'limning ta'sirini tahlil qilishda katta hissa qo'shgan. Ularning ishlari XXI-asr ta'limi uchun yangi yondashuvlarni taqdim etadi, bu esa, an'anaviy o'qitishdan texnologiyalarga asoslangan o'qitish modellariga o'tishni ko'rsatadi. Ushbu maqolada, onlayn ta'lim va aralash ta'lim metodlarining o'quv jarayonini qanday yaxshilash mumkinligi, shuningdek, bu metodlarning ta'limni yanada samarali qilishdagi roli tahlil qilinadi. Onlayn va an'anaviy ta'lim usullarini birlashtirish, talabalarga turli masofadan turib ham ta'lim olish imkonini yaratadi. Bu metod o'quvchilarga ta'limni o'zlashtirishning moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan usullarini taklif etadi deydi Garrison & Kanuka.

Yuqoridagi metodlarning barchasi boshqaruv malakalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Bularning har biri o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoaviy ishlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi asosiy malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ular o'quv jarayonida faolroq ishtirok etadi va o'rganganlarini amalda sinab ko'rish imkoniga ega bo'lishadi. Innovatsion metodlar yordamida boshqaruv malakalari shakllantirilganda quyidagi afzalliklarni kuzatish mumkin: 1) Talabalarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari rivojlanadi: ular loyihalar va muammolar ustida mustaqil ishlash orqali o'z fikrini ifodalash, qaror qabul qilish va mas'uliyatni his qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. 2) Ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi: innovatsion yondashuvlar talabalarni yangicha yondashuvlar izlash, yangi yechimlar yaratish va mavjud muammolarni ijodiy yechishga undaydi. 3) Jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlanadi: loyihaviy va muammoli ta'lim metodlari talabalarni guruh bo'lib ishlashga va jamoa ichida o'zaro hamkorlik qilishga o'rgatadi, bu esa, boshqaruv malakalari uchun muhimdir. 4) Mas'uliyatli rahbarlik qobiliyatlari shakllanadi: o'quvchilar loyihalar ustida ishlash jarayonida mas'uliyatni his qiladi, o'z vazifalarini bajarishda boshqalarga yordam berish va jamoani boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, talabalarining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Masalan, loyiha asosida ta'lim talabalariga real hayotdagi



masalalarni hal qilish uchun amaliy bilimlarini qo'llash imkoniyatini beradi. Muammolarga asoslangan o'qitish metodi esa, talabalarining muammolarni to'g'ri va samarali hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, «flipped classroom» usuli talabalariga darslardan tashqari vaqtda videolarni tomosha qilish va klassdagi vaqtni amaliyotlar bilan o'tkazish imkoniyatini yaratadi, bu ularga o'qitish jarayonida ko'proq shaxsiy e'tibor va vaqt talab qiladi. Adaptiv ta'limning yordamida har bir talaba uchun ta'lim jarayoni individuallashtiriladi, bu esa, har bir talabani o'ziga xos o'qish sur'atini va talablarini hisobga olishga yordam beradi. Shu bilan birga, innovatsion usullardan foydalanish-dagi muammolarga ham e'tibor qaratildi. Bu jumladan, o'qituvchilarni malakali tayyorlash, qo'shimcha resurslarni ta'minlash va ta'lim dasturlarini yangi usullarga moslashtirish talablaridan iborat.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish, talabalarining ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda innovatsion yondashuvlar asosida boshqaruv malakalarini shakllantirishning samaradorligi va ahamiyati ko'rib chiqildi. Ta'lim jarayonida innovatsion metodlar, ayniqsa loyiha asosida ta'lim, flipped classroom (teskari sinf), adaptiv ta'lim va muammo asosida o'qitish kabi yondashuvlar, talabalarni faollashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuvlar ta'limning sifatini oshirish, talabalar ko'nikmalarini yangilash va zamonaviy boshqaruv malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'qituvchilarni malakali tayyorlash, qo'shimcha texnologik resurslarni ta'minlash va o'quv dasturlarini yangilash zarurligi ta'kidlandi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning XXI-asrda talab qilinadigan ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni amaliyotga tayyorlashga olib keladi. 1) O'qituvchilarni malakali tayyorlash: innovatsion ta'lim metodlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'qituvchilarni muntazam ravishda yangilab borish zarur. Bu, ularning innovatsion metodlarni samarali qo'llay olishlari va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishlariga yordam beradi. 2) Resurslarni kengaytirish: innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologik vositalar, onlayn resurslar va o'quv materiallarini ta'minlash kerak. Shu bilan birga, talabalar uchun qo'shimcha o'quv resurslari ham yaratilishi lozim. 3) O'quv dasturlarini moslashtirish: an'anaviy ta'lim dasturlarini yangilash va innovatsion metodlarga moslashtirish zarur. O'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish, ularning amaliyotga yaqinligini ta'minlaydi. 4) Jamoaviy ishlarni rivojlantirish: talabalarining jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu, ularning boshqaruv malakalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. 5) Ta'limdagi



innovatsiyalarni kengaytirish: innovatsion metodlarni barcha sohalarida joriy etish, ularni doimiy ravishda takomillashtirish va yangi texnologiyalarni integratsiya qilish ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Umuman olganda, innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini yaxshilash va talabalar ko'nikmalarini yangilashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular jamiyatning rivojlanishiga va o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Mazkur tadqiqotda ta'lim jarayonida boshqaruv malakalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilindi. Shu bilan birga, innovatsion ta'lim metodlarini joriy etishda o'qituvchilarni malakali tayyorlash, qo'shimcha texnologik resurslar va o'quv dasturlarini yangilash kabi muammolarni hal qilish zarur. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va XXI-asrda talab qilinadigan ko'nikmalarni shakllantirishga olib keladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси 2020 йил 23 сентябрдаги «Таълим тўғрисида»ги Қонуни: <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.
3. Bergmann, J., Sams, A. (2007). Flip your classroom: reach every student in every class every day.
4. Garrison, D.R., Kanuka, H. (2004). Blended learning: uncovering its transformative potential in higher education.
5. P21 (2015). Framework for 21st century learning.



## RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMNING MOXIYATI

**L.I.BERDIQULOV,**  
Guliston davlat universiteti

*Mazkur maqolada raqamli ta'lim sharoiti, talabalarning mustaqil ta'lim olish metodikasini yanada takomillashtirish, talim jarayonida raqamli va axborot texnologiyalaridan unumli va samarali foydalanish, talabalar uchun ilm olish jarayoni va ular uchun mustaqil ta'limni tashkil etishda e'tibor qaratadigan jihatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror va farmonlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, mustaqil ish, raqamli ta'lim, mustaqil ta'lim olish metodikasi.

*This article discusses the conditions for digital education, the further improvement of students' independent learning methods, the efficient and effective use of digital and information technologies in the educational process, the learning process for students and the aspects that they pay attention to in the organization of independent education for them are also discussed. Opinions were expressed about the relevant decisions and decrees of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.*

**Key words:** information technology, independent work, digital education, independent learning methodology.

*В данной статье рассматриваются условия цифрового образования, дальнейшего совершенствование методов самостоятельного обучения студентов, эффективное и результативное использование цифровых и информационных технологий в образовательном процессе, процесс обучения студентов и аспекты, на которые они обращают внимание в организации. Самостоятельного образования для них также обсуждены. Высказаны мнения о соответствующих решениях и постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан.*

**Ключевые слова:** информационные технологии, самостоятельная работа, цифровое обучение, методика самостоятельного обучения.

Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.



Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida 1998-1999 yildan boshlab mustaqil ta'limga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi. Mustaqil ta'lim hajmi o'quv faniga ajratilgan soatlarning bakalavriatda 15-20 foizini, magistraturada esa 40-45 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy talim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlarda mustaqil ta'lim o'quv jarayonining auditoriyadan tashqari shaki bo'lib, u kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan dastur bo'yicha nazariy va amaliy topshiriq shaklida tashkil etilishi ko'rsatilgan. Mustaqil ta'lim olish-oliy ta'lim tizimida talabalarning maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyatidirki, bunda talabalarning o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi tomonidan mustaqil bilim olishga yo'naltiriladi (mustaqil o'rganish uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tavsiya etiladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilishi nazorat qilinadi) va boshqariladi. Bugungi kunda talim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri – bu talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish va ularda mustaqil o'qish faoliyatini shakllantirishdan iborat. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishda va o'zgartirishda kreativ texnikalarni qo'lab yechimni topish mumkin bo'lgan ijodiy vazifalar muhim ahamiyatga ega. Har qanday o'quv fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil o'quv faoliyati muhim hisoblanib, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Bugungi kunga kelib esa axborotlar olamidani bahramand bo'lishning tezlashgani, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani, globallashtirish jarayonlari jadallashtirishga bois talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish masalasi asosiy vazifa hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ishi bu talabaning o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga qiziqirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan. Talabalarning mustaqil ishlari mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Odatda talabalarning mustaqil ishlari talabaning to'la mustaqil faoliyati bilan birgalikda auditoriyadan tashqarida bajariladigan o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishini ham o'z ichiga oladi.

Izlanishlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining barcha pog'onalarida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish va amaliy tajribalarni



qo'yishda texnologik muammolar yuzaga keladi. Ya'ni, aksariyat talabalarda mustaqil o'qish va mustaqil ishlash ko'nikmalari yetarlicha emas, shuning uchun o'qituvchilar ko'p hollarda talabalarga mustaqil ishlash uchun har doim bir xil shakldagi vazifalarni (taqdimot tayyorlash, seminarda ma'ruza qilish, test tuzish, konspekt qilish, referat yozish va hokazo) beradi. Bu esa talabaning ijodiy ishlash faoliyatiga salbiy ta'sit ko'rsatadi.

Mustaqil o'qishning asosiy maqsadi, talabaning o'qituvchi yordamisiz o'zi mustaqil ravishda shug'ullanishi bilan emas, balki uning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Talabalarning mustaqil o'qish faoliyatining samaradorligi quyidagi faktorlar bilan aniqlanadi:

– o'zida tasavvur qilish ko'nikmasini shakllantiruvchi qiymatli-motivatsion komponenta va kasbiy motivatsiya;

– umumlashgan bilimlarni egallagan kognitiv komponentalar.

Talabalarning mustaqil ishlari quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin:

– talabaning bevosita o'zi tomonidan mobil qurilmasi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari;

– axborot izlash – o'z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o'rganish;

– forum – fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

– test yechish – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materiallarni mustahkamlash;

– kollokvium – o'quv modulining nazariy qismining o'zlashtirilishini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;

– nazorat ishiga tayyorlanish-fan bo'yicha kutilayotgan oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorgarlik ko'rish masala yechish-amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha berilgan masalalarni yechish va uni yozma tarzda taqdim qilish;

– referat – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi yoki ilmiy ish, kitoblar tahlil bayon qilinadi;

– esse-dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

– taqdimot – berilgan mavzu bo'yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish;

– keys – stadi ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatlar bo'yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo'yicha yechim izlash;



– ish o‘yinlari – kasbiy faoliyat jarayonlarini immitatsiya qilish, sahnalashtirish, rollarni ijro qilish orqali kasbiy ko‘nikmalar o‘rttirish;

– kurs ishi – fan yoki fanlar majmuasi (korxonalar iqtisodiyoti, menejment asoslari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, fuqaro himoyasi va h.k.) muammolari bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida bajariladigan belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan yozma va hisob ishlari;

– kurs loyihasi – fan yoki fanlar majmuasi (texnik mexanika, texnologik jarayon va qurilmalar, mutaxassislikka oid loyiha ishlari bajariladigan fanlar) muammolari bo‘yicha belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida bajariladigan grafik chizmalar ilova qilinadigan belgilangan uslubiy qo‘llanmalar asosida yoziladigan hisob ishlari;

– fan to‘garaklarida ishtirok etish – talabanning fan to‘garaklarida maket, slayd, namunalar kabi ko‘rgazmali materiallarni tayyorlashi;

– tanlovlarda ishtirok etish – talabanning o‘qituvchining ilmiy rahbarligi ostida turli tanlovlarda ishtirok etishi (Yosh ixtirochi?, talabalar startap loyihalari va h.k.); ilmiy anjumanlarda ma‘ruza qilish – fanga oid ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha OTM, Respublika va xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy-texnikaviy anjumanlarda ma‘ruza qilish;

– ilmiy tezis va maqolalar chop etish – ilmiy anjumanlarning to‘plamlarida tezislari va ilmiy jurnallarda ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha maqolalar chop qilish;

– elektron shakldagi o‘qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari.

O‘qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari ularning bayoni, mavzulari, topshiriqlari, o‘tkazish shakllari, soatlar hajmini ham ko‘rsatgan holda fanning sillabusida fan modullari bo‘yicha keltiriladi. Talabalarning mustaqil ishlari mazmuni fanning xususiyatidan, oliy o‘quv yurtining texnik imkoniyatlaridan va kutubxonaning o‘quv-uslubiy ta‘minlanganidan kelib chiqib aniqlanadi. Talabalarning mustaqil ishlari innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlarining auditoriyadagi shakli berilgan topshiriq doirasida talabalarning darslik va birlamchi manbalar, guruhli topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi tahliliy faoliyatlarni ko‘zda tutadi. O‘qituvchi rahbarligida talabalarning mustaqil ishlari har bir fan bo‘yicha butun akademik o‘qish davrida sana, vaqti, auditoriyasi ko‘rsatgan holda grafik bo‘yicha o‘tkaziladi.

Talabalarning mustaqil ishlari doirasidagi mashg‘ulotlar maslahat va interfaol shakllarda bo‘lishi mumkin, ularning nisbati o‘rganilayotgan fanning murakkabligi, ularni o‘rganishga ajratilgan audtoriya soatlari hajmi, talabalarning tayyorgarlik



darajasi bilan aniqlanadi. Bir soʻz bilan aytganda, mazkur tizim talabaniy kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yoʻnaltirilgandir. Hozirgi zamon talabalarining butun hayoti davomida bilim olishini taʼminlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

### **Adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 dagi «Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilaotgan keng qamrovli isloxtlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha choratadbirlari toʻgʻrisida» gi PQ -3775-son qarori.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 y dagi «Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida» gi PF-5847-son Farmoni.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

4. L.A.Rustamova (2023) «Raqamli taʼlim shartida talabalarning mustaqil taʼlim olish metodikasini takomillashtirish».

5. L.A.Rustamova (2023) «Sunʼiy intellekt-fan va taraqqiyotning yuksak bosqichi» GOLDEN BRAIN ISSN:2181-4120 VOLUME 1 ISSUE 17 118-126 bet.



## TA'LIM-TARBIYANING YAXLIT BIR PEDAGOGIK JARAYON EKANLIGI XUSUSIDA

**M.U.ISHONQULOV,**

Angren universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori

*Yangi O'zbekistonning yangi o'qituvchisi vatanparvarlik, ijodkorlik, tashkilotchilik maxoratiga ega bo'lishi kerak talabaning xalokatlilik dushmani ongsizlik, ilmsizlikdir. Tuyg'uni cheklangan tarbiya texnologiyasining nazariy asoslarini yaratib bo'lmaydi. Bilimlar xayotiy konuniyatlarni bilishga, tarbiya esa shu xayotga nisbatan to'g'ri munosabatni ta'minlaydi.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim-tarbiya, Yangi O'zbekistonning yangi o'qituvchisi, ongsizlik, ilmsizlik, uzluksiz tarbiya, g'ururlanish tuyg'usi, tarbiya texnologiyasi.

*Новый учитель нового Узбекистана должен обладать патриотизмом, креативностью и организаторскими способностями. Злейший враг ученика - невежество и невежество. Без чувства невозможно создать теоретические основы технологии образования. Знания дают знание фактов жизни, а образование обеспечивает правильное отношение к этой жизни.*

**Ключевые слова:** образование, воспитание, новый учитель нового Узбекистана, неразумие, невежество, непрерывное воспитание, гордиться чувством, технология воспитания.

Davlatimiz va jamiyatimizning yuksak ma'naviyati ta'lim – tarbiyadan boshlanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash, komillik sari intilib yashash barcha say-xarakatlar va ezgu amallarning asosini tashkil etadi. 2020 yilda Respublikamizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi qonunda ta'lim va tarbiyaga aloxida ta'rif berilgan, shunga muvofiq ta'lim – maxsus tayyorlangan mutaxassislar raxbarligida o'tkaziladigan talabalarni bilim, malaka va kompetensiyalar bilan qurollantiradi, bilish qobiliyatlarini o'stiradi, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir: tarbiya – bu aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir jarayoni: shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli amaliy pedagogik jarayon.

Tarbiya insonni yaxshilikka undaydi, ruhini poklaydi, ma'naviy-axloqiy go'zallik baxsh etadi, fikrini, qalbini ilm nuri bilan charog'on qiladi. Noto'g'ri tarbiya insonni xalokat sari yetaklaydi, unga falokat keltiradi deb o'gohlantiradi. Ta'lim tarbiyaning sifati kimga bog'liq? Avvalo o'qituvchilarga buning uchun ular yangi O'zbekistonning yangi o'qituvchisi degan yuksak ma'naviy va intellektual maqomga ko'tarilishi kerak. Ular vatanparvar bo'lishi, talabalarni, pedagogik ishini sevishlari, dars o'tish maxoratini kun sayin oshirib borishi, ta'lim tarbiyaning zamon talablariga mos bo'lishiga intilishi, mexnatsevarlik, haqiqatgo'ylik, ifodalilik, notiqlik, pedagogik



takt, ijodkorlik, tashkilotchilik maxoratiga ega bo'lishi: sabrli, bag'rikeng, qat'iyatli, intizomli bo'lishlari zarur. Yangi O'zbekiston nodavlat universitetlari o'qituvchilariga xam shunday ma'suliyatni yuklamog'qa.

Ma'lumki ota-bobolarimiz xam qadimda ilmu-ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti sifatida bilishgan. Albatta, ta'lim-tarbiya ong maxsuli xamda ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydi, ya'ni xalqimiz ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muxim omildir. Shuning uchun xam ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongini o'zgartirmasdan turib ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Talabaning o'ziga yaqin xalokatlik dushmani ongsizlik, ilmsizlikdir. Lekin o'z vatanini, xalqini saqlash uchun zamonaviy fan – ilmlarini egallash xayotiy extiyoj, burchga aylanishi shart. Bugungi ijtimoiy xayotga, uning rivojiga katta g'ov bo'lib kelayotgan illatlar dunyo axli bilan talabalarni xam ogoxlikka undamoqda. Hozirda dunyo miqyosida talaba qalbi va ongini zabt etish uchun global kurash tobora keskin tus olmoqda. Erkin va xolis fikrlaydigan, o'z yurtida va olamda bo'layotgan voqea-xodisalarni teran taxlil qila biladigan, yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik prinsiplarini faoliyati asosiga qo'yadigan talabagina o'z yurtining kelajagini yaratish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Uzlusiz tarbiya yo'nalishlaridan barcha isloxlarning bosh maqsadi dunyo miqyosida shaxsni qadsizlanish jarayonini sekinlashtirish va uning oldini olishga xizmat qilmog'i xamda ta'lim tizimini insonparvarlashtirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Dunyo mehr va yaxshilikka to'lishi uchun avvalo biz talabalarimizning qalbini mexr va yaxshilikka to'ldirishimiz kerak. Tarbiya texnologiyasida oqibatni ko'rishdan ko'ra, uning kelib chiqish sababini o'rganish va ko'rsatish ma'quldir.

«Odam bolalari ibtidoda bir gavxardan bino bo'lganlari tufayli yaxlit bir vujud kabidirlar. Binobarin, zamon uning bir a'zosiga jaroxat yetkazsa, boshqa a'zolari xam o'z tinchini yo'qotadi». Bu so'zlar BMT xavfsizlik kengashi imorati peshtoqiga bitilgan, uning avtori Sa'diy Sheroziydir. Bu talabalarimizda buyuk millatga mansublik iftixorini uyg'otishi kerak. Dunyoda yozuvchilar kammi?, shoirlar kammi?, ularning purma'noli so'zlari yo'qmi?, lekin xavfsizlik kengashi binosi peshtoqiga bizning ajdodimizning purma'no so'zlari yozilgan, bu bizda g'ururlanish tuyg'usini paydo qilishi kerak.

Tuyg'u tirik vujud xosilasi. Ammo u milliy xarakter kasb etishi bilan axamiyatlidir. Tuyg'uni chetlab tarbiya texnologiyasining nazariy asoslarini yaratib bo'lmaydi. Chunki odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligi aynan, tuyg'uning ruxiy moxiyati bilan bog'liq.

Ilmiy tilda bu jarayonni intuitsiya deb ataymiz, ya'ni ko'ngil sezish jarayoni. Buning uchun talabaning fikri toza bo'lishi kerak.



Davlatimiz miqyosida talim tizimiga axborot va innovatsion texnologiya-larning kirib kelishi nodavlat ta'lim muassasalarida xam o'tilayotgan fanlarni muntazam yangilab, takomillashtirib borishga undamoqda. Ta'lim tizimi o'qitishning interfaol metodlarni tadbiiq etish va bilimlarni nazorat qilish xamda baxolashga yangi yondashuvlar joriy etish vazifalarini amalga oshiradi. Ma'lumki ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlash pedagogika fanining asosiy prinsiplaridan biri xisoblanadi. Eng asosiysi ta'lim-tarbiya berishga keng imkoniyatlar ochmoqda. Tarbiya asosida ta'lim berish xam pedagogika fanining asosiy prinsiplaridan biri.

Ma'rifatparvar allomamiz A. Avloniy «Dars ili tarbiya orasida biroz farq bo'lsa xam ikkisi bir-biridan ayirmaydirgan, birining vujudi biriga boylangan jon ili tan kabidir» deb ko'rsatadilar. Bularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ammo ilmiy nuqtai nazardan ta'limning o'ziga xos maqsad va vazifalari bor. Aslida bilim bosh miya, ong orqali, tarbiya qalb, ya'ni tuyg'u orqali qabul qilinadi. qalb bilan xis etiladi va tuyg'u bilan javob beriladi.

Ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi isbot talab etmaydigan xaqiqatdir. Har qanday bilim ma'lum tarbiyaviy ta'sirga ega va xar qanday tarbiyaviy tadbiiq o'zida bilim asosini aks ettiradi. Bu xayotiy qonuniyat. Bilimlar xayotni, xayotiy qonuniyatlarni bilishga xizmat qilsa, tarbiya ana shu xayotga nisbatan to'g'ri munosabatni tarkib topishini ta'minlaydi. Qadimgi Avestoda: aql-da-manmanlik, talantda-baxillik, vazminlikda-qasoskorlik, xulqda – tubanlik, saxiylikda – talon-tarojlik umidda – faoliyatsizlik, qaramda – ta'magirlik, bilimda-qalloblik bo'lmasligi qayd etilgan.

Nodavlat ta'lim muassasalarida talabalar qadr – qimmatiga nisbatan xurmat ruxi, tarbiyalovchilar bilan tarbiya oluvchilarni bir-biriga ishonch ruxi, talabada ishonish ruxi hukmron bo'lmog'i kerak. Mehribonlik va yaxshi so'z talabaning ruxiy olamiga kirib borishi lozim. Oila mexrini ko'rmagan yoki mexrga qonmay o'sgan farzand kelgusida o'zi xam birovga mexr berishda qiynalishi tabiiy. Shuning uchun nodavlat universiteti ustozlari talabalarini qanday xolda kelishlaridan qat'iy nazar ularga mehr berib, mexribonlik va yaxshilik ko'rsatib yetuk mutaxassis sifatida tayyorlashlari kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. T. 2020 yil
2. Sh. Qobilov, X. Abdukarimov. Ta'lim-tarbiya xavfsizlik va taraqqiyot kafolati. T. 2005.
3. X. Abdukarimov. Kasbiy pedagogik faoliyat. «O'qituvchi», «Matbaa ijodiy uyi». -T., 2010 y.
4. X. Ibragimov, M. Quronov Umumiy pedagogika. -T., 2022 .



## TA'LIM MUASSASALARIDA SIFATLI TA'LIMNI TASHKIL ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

**I. G. MAMAJANOV,**

Qo'qon universiteti Andijon filiali  
akademik ishlar bo'yicha prorektor, p.f.f.d., dotsent

*Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar; hukumatimiz tomonidan mazkur sohada qabul qilingan me'yoriy hujjatlar tahlili va ularning natijalari, oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, talabalar mustaqil ta'limini etish, ularga yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy texnik baza va uni yanada rivojlantirish borasidagi fikr-mulohazalar nazariy tahlil qilingan.*

**Tayanch so'zlar:** oliy ta'lim, sifat va samaradorlik, ta'lim, fan va ishlab chiqarish, integratsiya, mustaqil ta'lim, professor-o'qituvchilar tarkibi, moddiy-texnik baza.

*В данной статье изучаются реформы, проводимые в системе высшего образования, анализ нормативных документов, принятых нашим правительством в этой сфере, и их результаты, факторы, влияющие на организацию образования в высших учебных заведениях. Кроме того, теоретический анализ мнений об обеспечении интеграции науки, образования и производства, интеграции науки, образования и производства, достижении самостоятельного обучения студентов, создаваемых для них условий, материально-технической базы и ее дальнейшего развития.*

**Ключевые слова:** высшее образование, качество и эффективность, образование, наука и производство, интеграция, самостоятельное образование, профессорско-преподавательский состав, материально-техническая база.

This article examines the reforms carried out in the higher education system, the analysis of regulatory documents adopted by our government in this area, and their results, factors influencing the organization of education in higher educational institutions. In addition, a theoretical analysis of opinions on ensuring the integration of science, education and production, the integration of science, education and production, achieving independent learning for students, the conditions created for them, the material and technical base and its further development.

**Key words:** higher education, quality and efficiency, education, science and production, integration, independent education, teaching staff, material and technical base.

O'zbekistonda 1997 yildan buyon har bir yilga shu davrda rivojlanishlarning muhim yo'nalishlarini ifoda etuvchi nom berish an'anaga aylangan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan shu an'nanani davom ettirgan holda, 2022-yil 20-dekabr



kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasi chog'ida 2023-yil nomini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» [6] deb, e'lon qilinganligi, bugungi kundagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni yanada jadallashuviga olib keldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Oxirgi yillarda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni sanab adog'iga yeta olmaydigan darajaga yetdiki, u ham bo'lsa hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ta'lim siyosati zamirida hamda mazkur soha rivoji uchun qabul qilinayotgan me'yoriy huquqiy hujjatlar zamirida namoyon bo'lmoqda.

Aniqlangan tendensiyalar maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirish, ta'lim mazmuni, professor-o'qituvchilar tarkibi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi, modiy texnik ta'minot, talabalar mustaqil ishini tashkil etish kabi boshqa muammolarini hal qilish orqali mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga bo'lgan talab yuqoriligini ko'rsatadi.

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijasi o'laroq ta'lim muassasalarida sifatli ta'lim asosida o'quv jarayonini tashkil etishga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Ta'lim mazmuni. O'quv jarayonlarini sifat va samadorligini ta'minlashda aosiy ko'rsatgichlardan biri bu, albatta ta'lim mazmunidir. Ta'lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shart-sharoit, fan va texnika, san'at holati va shu kabini hisobga olgan holda belgilanadi va u Davlat ta'lim standarti, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning malaka talablari, o'quv reja, darslik va o'quv qo'llanmalarini o'z ichiga oladi.

Davlat ta'lim standarti – kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'limning mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni, ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy talablarni, o'quv yuklamasining hajmini, ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda mexanizmini belgilaydi. Malaka talablari – oliy ta'lim bosqichi bitiruvchisining bilim, konikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni ifodalaydi. O'quv reja - oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddatini belgilaydigan hujjatdir [8]. Darslik-muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan



va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan kitob bo'lib, o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turidir.

Ma'lumki, ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladigan omillardan biri bu pedagoglarning tarkibi, ularning ilmiy salohiyati va albatta, o'quv jarayonida qo'llaydigan ta'lim metodlari va vositalaridir.

Shuni ta'kidlash joyizki, har qanday sifatli ta'lim muallimga, o'qituvchiga, tarbiyasiga hamda ularning pedagogik mahoratiga bog'liq. Pedagogik mahorat – «O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassisga xos bo'lgan xislatdir» [9]. Bugungi kunda pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda «O'qituvchilarning mahorati», «Zamonaviy o'qituvchining qiyofasi», «O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi» mavzularida bir qator izlanishlar olib borilmoqda.

### 3. Pedagog va talaba-yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar.

Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladigan omillardan biri ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Bugungi kunda Respublikada uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasalarida ham talaba-yoshlarga ham o'qituvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bir hil emas. Shuningdek, davlat ta'lim muassasalarida yaratilgan sharoitlar bilan nodavlat yoki xorijiy ta'lim muassasalarida yaratilgan shart-sharoitlar tubdan farq qilmoqda. Ba'zi davlat ta'lim muassasalarida nodavlat va xorijiy ta'lim muassasalariga nisbatan yetarli darajada talaba-yoshlar va o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar yetarli bo'lmaganligi uchun ham davlat ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tajribali, ilmiy darajaga ega bo'lgan pedagoglarni nodavlat yoki xorijiy ta'lim muassasalariga o'tib ketishlariga sabab bo'lmoqda. Bu albatta, ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Avvalo, uzluksiz ta'lim tizimida shart-sharoitlar deganda asosan ta'lim oluvchining o'qishi, bilim olishi uchun hamda o'qituvchining faoliyat olib borishini ta'minlay olishiga xizmat qila oladigan jihatlar nazarda tutiladi.

4. Ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash. Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan omillardan biri bu ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlashdir. Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan olib



borilayotgan ta'lim islohotlari natijasida ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Ammo, bu borada yana bir qator ishlarni amalga oshirish, innovatsiyalarni tadbqiq etish har bir ta'lim muassasasi rahabari oldida turgan vazifalardandir.

5. Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan omillardan biri bu, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishdir. Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni «yangi iqtisodiyot»ni vujudga keltirdi. Bu iqtisodiyotning nomi bir so'z bilan aytganda «Raqamli iqtisodiyot»dir. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining «ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish» asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur yo'nalishda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilganligi quvonarli holdir. Bu borada, ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratildi, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etila boshlandi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etilmoqda.

5. Ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan omillardan yana biridir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis hamda O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida «...xususiy tashabbuslarni yanada kengaytirish, ularga yangi istiqbollarni ochish maqsadida endi «qo'l boshqaruvi» dan – aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o'tish vaqti keldi» deb ta'kidlaganligi zamirida bugungi kun rahbari odamlarni rozi qila olishi, boshqaruv faoliyatiga vijdonan yondoshishi, o'z fidoiyligi va vatanparvarligi bilan ibrat bo'la olishi bugungi kunda barcha sohalarda kabi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan boshqaruv kadrlariga yana bir bor mas'uliyat yuklaydi [10]. Shu nuqta nazardan 2023 yil «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim» deb e'lon qilinganli bejjga emas, albatta.

6. Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan omillardan asosiyalaridan hisoblanadi. Bugungi oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri bu, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta'minlashdan iborat. Shu



sababli so‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan, oliy ta‘lim tizimiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada B.Usmonov oliy ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini klasterli yondashuv asosida innovatsion rivojlantirish masalasini o‘rgangan bo‘lib, u «Oliy ta‘lim muassasasi generator rolini bajarishi ifodalangan «Uchlik spiral» modeli (davlat-OTM-ishlab chiqarish) mexanizmini qo‘llash asosida «ta‘lim, fan va ishlab chiqarish» ning simbiotik innovatsion rivojlantirishga asos bo‘ladi» [11] deb ta‘kidlaydi.

7. Ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlar ta‘sirchanligini oshirish o‘quv jarayoni sifat va samaradorligini ta‘minlashning eng asosiy omillaridan hisoblanadi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilga rivojlantirish konsepsiyasida «Maktab - ma‘naviyat va ma‘rifat o‘chog‘i» konsepsiyasi doirasida oliy ta‘lim muassasalarining umumta‘lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarni ma‘naviy-ma‘rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish [4] masalasi ilgari surilganligi bejiz emas, albatta. .

8. O‘quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish jarayonida talabalarni mustaqil ta‘limini tashkil etish bugungi kunda oliy ta‘limda ta‘lim sifatini va samardorligiga ta‘sir etadigan omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Talabalarining mustaqil ta‘limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir [11].

Bugungi kunda ta‘lim sifatini va samardorligi oshirishda quyidagilarga e‘tibor qaratish zarur:

– birinchidan, uzluksiz ta‘lim tizimida faoliyat olib borayotgan har bir rahbarning o‘rni va roli, muassasada sifat menejmentining tashkil etilganlik darajasi;

– ikkinchidan, har qanday ta‘lim muassasalarini kadrlar bilan ta‘minlanish darajasi (kadrlar ta‘minoti), kadrlar zahirasi yaratilganligi;

uchinchidan, o‘quv jarayonini jarayoni tashkil etish va boshqarishning holati, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar bilan ta‘minlanganligi;

– to‘rtinchidan, moddiy-texnik bazaning yetarliligi va moliyaviy ta‘minot – darslarning to‘liq yangi pedagogik texnologiyalar va texnikaviy jihozlar asosida o‘tilishini ta‘minlash;

– beshinchidan, ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning pedagogik mahorat va pedagogik kompetensiyaga egaligi;



– oltinchidan, oliy ta’lim muassasalarida kadrlarning raqobatbardoshligi va bandligi ta’minlanganligi;

– yettinchidan, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasidagi integratsiyaning yo‘lga qo‘yilganligi;

– sakkizinchidan, olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijadorligi.

Mazkur masalalarni tizimli hal qilinishi natijasida, o‘ylaymizki, barcha ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samardoriligini oshirishga erishamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. 2020-йил 23-сентябр. ЁРҚ-637.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 29-апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида»ги ПФ-5712-сон Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 8-октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармони.

4. И.Мамажанов. Инновацион фаолият асосида таълим тизимини бошқариш. «Mug‘allim hem uzlisiz bilimlendirio» илмий-методик журнал, Нукус, 2023 йил, 2/2-сон. (март-апрел). 126-135 бетлар.

5. Б.Усмонов. Олий таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини кластерли ёндашув асосида инновацион ривожлантириш. Педагогика фанлари доктори диссертация автореферати. Т.:2020, 32-бет.



## TABIYIY FANLAR O'QITISHDA «5E» MODELINING TATBIQI VA TAJRIBALAR ORQALI O'QITISH

**Z.B. SANGIROVA,**

*Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi  
Pedagogik mahoratni rivojlantirish bo'limi boshlig'i,  
pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Maqolada 5E modeli so'rovga asoslangan ta'lim bo'lib, o'quvchilarni tadqiq qilish, tajriba o'tkazish orqali kashfiyotlar jarayoniga olib kirish, tajriba va o'z-o'zini tahlil qilish orqali rivojlanish, muammoga yechim topish va o'z-o'zini baholash haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** 5E modeli, konstruktiv yondashuv: jalb qilish, tadqiq etish, tushuntirish, qo'llash, baholash.

*В статье рассматривается модель 5E как модель обучения, основанная на исследованиях, которая вовлекает студентов в процесс открытия нового посредством исследований, экспериментов, развития посредством опыта и самоанализа, решения проблем и самооценки.*

**Ключевые слова:** модель 5E, конструктивный подход: вовлекать, исследовать, объяснять, применять, оценивать.

Hozirgi kunda duniyoda XXI asrda o'rganish ham o'qitish ham innovasion yondashuvni ya'ni yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini qo'llashni talab etadi. Innovasion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad XXI asr o'quvchisi portretida eng muhimi, ijtimoiy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish va muammolarni hal qilish qobiliyati shakllantirishda «5E» ko'nikmalarini rivojlantirish davr talabi. Bunda ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

5E ta'lim modeli XX-asr boshlarida Johann Herbart tomonidan kuzatilgan. Uning ta'lim psixologiyasida o'quvchilarning hozirgi bilimi va yangi g'oyalarni shakllantirishga yordam beradi va ular o'rtasidagi tushunchalarni bog'laydi. Herbart fikriga ko'ra bu ta'lim model ta'lim jarayonida o'quvchining o'z fikrlarini va tajribalarini mustaqil ravishda namoyon qilishga imkoniyat yaratadi. Undan keyingi qadam o'qituvchi o'quvchi o'z tajribalarini namoyon etishida kashf etishi mumkin bo'lgan yangi g'oyalarni muntazam ravishda tushuntiradi va to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar beradi. Natijada o'qituvchi o'quvchiga yangi g'oyalarni kashf etilishidagi o'z tushunchalarini namoyish qilish imkoniyatiga yo'l ochib beradi.



5E modeli 1987-yilda Rodjer Byb (Roger Bybee) va uning hamkasblari tomonidan bologiya fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini o'rganishda ishlab chiqilgan. Bu model ta'lim jarayonida o'quvchilarning hamkorlikda faol o'rganishni targ'ib qiladi. Unda o'quvchilar savollar berish, kuzatish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish orqali muammolarni hal qilish va yangi tushunchalarni o'rganish uchun birgalikda ishlaydi.

5E modeli ta'limga konstruktiv yondashuv bo'lib, beshta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: jalb qilish (engagement), tadqiq etish (exploration), tushuntirish (explanation), qo'llash (elaboration), baholash (evaluation).

Tadqiqotchilikka asoslangan ta'lim modeli:

o'quvchi tadqiqotchi sifatida o'z faoliyatini o'zi rejalashtiradi;

o'qituvchi ushbu jarayonda fasilitator, ya'ni o'quvchini tadqiqotchilikka yo'naltiradi va o'quvchi faoliyatini baholaydi.

Tabiiy fanlarda laboratoriya tajribalari natijasida erishish kerak bo'lgan o'quv maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- Mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishni oshirish;
- Ilmiy fikrlashni rivojlantirish;
- Ishning murakkabligi va noaniqligini tushunish uchun reja tuzish;
- Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish;
- Fanning mazmun va mohiyatini tushunish;
- Fanni o'rganishga qiziqishni oshirish
- Jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish

Mazkur model o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish asosida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Ta'lim jarayonidagi ahamiyati.

– Faol o'quv muhitini yaratadi: O'quvchilar faol o'rganish jarayoniga jalb qilinadi va ularga mustaqil fikrlash imkoniyati beriladi.

– Mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi: O'quvchilarni ko'proq o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirishga sharoit yaratadi va rivojlantiradi.

– Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi: Har bir bosqichda o'quvchilardan o'z fikrlarini erkin bayon qilish va yangiliklarni kashf etish uchun imkoniyat yaratadi.

– Mavzularni mukammal tushunishlarini talab etadi: Bilimlar bosqichma-bosqich kengayib boorish usullarini ko'rsatadi hamda o'quvchilarning qobiliyatlarini oshiradi.

5E modeli ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Shu boisdan, bugungi kunda ushbu model ko'plab ta'lim tizimlarida



muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. 5E modeli dastlab tabiiy fanlarni o'qitishda qo'llanilgan bo'lsa-da, bugungi kunda u matematika, til o'qitish, ijtimoiy fanlar kabi boshqa sohalarida ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Bosqich	Mazmuni
Jalb qilish	Bu o'quv jarayonidagi birinchi va muhim qadam bo'lib, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini uyg'otadi. Bu bosqich o'quvchilarga avval bo'lgan amaliy tajriba va kuzatishlar bilan bog'lanish va ularni qayta esga olish imkonini beradi. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini darsga jalb qilishga qaratadi va ularning boshlang'ich avval olgan bilimlarini qay darajada o'zlashtirganligi tekshiradi. Dars mazmunidan kelib chiqib, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish uchun turli tadbirlar tashkil etish mumkin.
Tadqiq qilish	Bu bosqichda o'quvchilar o'quv vaziyatlarida bevosita ishtirok etish, faoliyatni bevosita boshdan kechirish, jihozlar bilan ishlash, mashq qilish... o'rganilgan mavzu bo'yicha o'z tushunchalarini shakllantirish uchun izlanish va kashf qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Izlanish faoliyati jarayonlarda o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalari aniqlanadi va ularning kontsepsiyasini o'zgartirishga yordam beradi. O'quvchilar yangi g'oyalarni yaratish, savollar va imkoniyatlarni o'rganish, oldingi bilimlaridan foydalanib, amaliy mashg'ulotlarni bajarish (masalan, tajriba o'tkazish, kuzatish, muammoni hal qilish) orqali yangi mavzuni tadqiq qiladilar.
Tushuntirish	Ushbu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarga kashfiyot tajribalari va ularning natijalari va hodisalarni tushuntirish ko'nikmalarini namoyish qilish imkoniyatini beradi. O'quvchilar mavzuni amaliy ko'nikmalari orqali tushuntiradi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. O'qituvchi mavzuni chuqurroq o'rganishga yo'naltirishi mumkin, bu bosqichning muhim qismi hisoblanadi.
Qo'llash	O'qituvchilar o'quvchilarga yangi o'rganilgan bilimlarni izlanishda va muammolarni hal qilishda foydalanish uchun sharoit yaratadilar. O'quvchilar muayyan vaziyatlarida bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchilar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazadilar va qo'shimcha ma'lumotlar beradi. Buning natijasida o'quvchilar mavzularni chuqurlashtirib, bilimlarini kengaytirishlari mumkin.
Baholash	Ushbu bosqich natijalarni qayd qiladi va keyingi mashg'ulotlarga moslashadi. O'qituvchilar o'quvchilarning ta'lim maqsadlariga erishish yo'lidagi o'z bilim, qobiliyatlarini va yutuqlarini baholash imkoniyatini beradi. Baholash jarayoni o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasini aniqlashga va kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi.

Ta'limning har bir bosqichi o'quvchilarning izlanishlari uchun zarur bo'lgan g'oyalarni, tushunchalarni va ko'nikmalarni batafsil bayon qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun kutilgan maqsadga erishish, shuningdek, qo'llash orqali o'rganishni namoyish qilish imkoniyatlari mavjud. 5E modelining kuchlilikligi shundaki, u baholash uchun ko'plab tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi. 5E modeli asosida quyidagi mavzuni tushuntirish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.



Mavzu. Moddalar mayda zarrachalardan tashkil topgan

1-bosqich. Diqqatni jalb etish. Bolg'a qattiq jism ekanligini ko'rsatish

O'quvchilarga ular ko'rgan va bizni o'ram turgan hamma narsa materiya deb ataladi. Yerdagi barcha moddalar qattiq, suyuq yoki gaz holatda mavjud bo'lishini tushuntirish. Qattiq modda, suyuqlik va gazlar atom va molekular deb ataladigan juda kichik zarralardan iborat ekanligini tushuntiring. O'quvchilarga atom moddani eng kichik bo'lagi bo'lib, molekula bir-biriga bog'langan ikki yoki undan ortiq atom ekanligini ayting. Atomlar va molekular shunchalik kichikki, biz ularni ko'z bilan ko'ra olmaymiz. Olimlar atomlar va molekularning xatti-harakatlarini tushunishga va moddani xususiyatlarini tushuntirishga yordam berish uchun modellardan foydalanadilar.

Jarayonda boshlashda qattiq materiallar bir-biriga juda tortiladigan atomlardan iborat ekanligini tushuntiring.

Ushbu tajribani bajarib ko'rsating. O'quvchilarning diqqati jalb qilinadi. Agar mixni yog'ochga kirgizmoqchi bo'lsak, mixni ushlab turib, bolg'a bilan uramiz. O'quvchilarga bolg'a, mix metalli kabi qattiq bo'lganligi uchun ular bir-biriga mahkam ushlanadi.

Qattiq jismdagi zarrachalar bir-biriga juda yaqin joylashganini va joyida tebranishini tushuntiring.

2-bosqich. TADQIQ QILISH

O'quvchilarga «bo'sh» baklashka qo'lida tutib turishini ayting.

Savol. Agar baklashkaga suyuqlik quymasak, u bo'sh bo'ladimi yoki baklashkada biror narsa bormi? O'quvchilar fikrlari tinglanadi.

O'quvchilar Baklashka ichida havo borligini aytishi mumkin.

O'qituvchi baklashkani ichida havo borligini va havo biz har kuni nafas oladigan kislorod, azot va karbonat angidrid kabi turli gazlardan iboratligini tushuntiradi. Gaz juda mayda zarrachalardan tashkil topganligini tushuntiring. O'quvchilarga gazning qattiq moddadan farq qilishini tushuntiring.

Agar o'quvchilar baklashkada biror narsa borligiga shubha qilsalar, ular baklashka og'ziga sharni bog'lang. O'quvchilardan so'rang.

Baklashkani siqsangiz, shar bilan nima sodir bo'ladi, Gaz molekularini siqib chiqarganingizda nima bo'ldi deb o'ylaysiz, Baklashka va shar kengaydimi?

O'quvchilar kuzatishlari orqali tajriba natijarini tadqiq qiladilar.

Baklashkani siqqaningizda, ichidagi gaz molekulari siqiladi va bosim ortadi. Bosim ortgani uchun havo shar ichiga tomon harakat qilib, uning kengayishiga



olib keladi. Gaz molekulari siqilganda, ular bir-biriga yaqinlashadi va tez harakat qiladi. Bu bosimning ortishiga olib keladi. Agar baklashkani siqish kuchli bo'lsa, havo tashqariga chiqib ketishi yoki shar yorilishi ham mumkin. Agar baklashkani yana bo'shatsangiz, bosim pasayadi va shar o'zining dastlabki hajmiga qaytishi mumkin.

### 3-bosqich. TUSHUNTIRISH BOSQICHI.

Bundan o'quvchilarga gaz molekularining zarrachalari qattiq jismlarnikiga qaraganda bir-biridab uzoqda joylashgan bo'lib, bir-biriga unchalik tortilmasligini, ular bir-biriga urilib, sakrab turishini tushuntiring.

Baklashkani siqqanda gaz molekulari Baklashkadan sharga o'tib uni kengayishini tushuntiring.

### 4-bosqich. RIVOJLANTIRISH

O'quvchilarga quyidagi topshiriqni bering.

1. Baklashkada gaz molekulari mavjud. Baklashkaning og'zi qopqog'i bilan mahkam yopilganda, baklashkani siqib, gaz molekularini bir-biriga yaqinlashishiga majburlay olish mumkinmi? Ha yoki yo'q.

Metall yoki tosh kabi qattiq jismini siqib bo'lmaydi, shuning uchun uning molekulari haqida nima deyish mumkin?

Xulosa. Gazdagi molekular bir-biridan juda uzoqda, shuning uchun ularni kichikroq bo'shliqqa siqib chiqarish mumkin.

### 5-bosqich. BAHOLASH

O'quvchilar o'tkazilgan tajribalar va savollar yuzasidan dars mashg'ulotlarida bergan javoblari qarab baholanadi. Bu 5-bosqich baholash komponenti bo'lib xizmat qiladi.

5E modeli esa so'rovga asoslangan ta'lim bo'lib, o'quvchining tadqiqot, tajriba va tadqiqot orqali kashfiyot jarayoniga olib boradi. Tajriba va o'z-o'zini tahlil qilish orqali o'quvchi muammoga qanday javob topish uchun nima kerakligini aniqlaydi. Bunda ochiq savollar, real hayotiy tajribalar, yo'naltirilgan tadqiqotlar, amaliy loyihalar va tadqiqotlar orqali o'quvchilar ilmiy mavzularni chuqur o'zlashtirib oladilar. Shuningdek, o'quvchilar o'zlariga savollar berishlari va bu savollarni tekshirish yo'llarini topishlari mumkin. Ular loyihalash strategiyalarini topishga yordam beradigan ko'nikmalarni o'rganadilar. O'quvchilar tadqiqot usulidan foydalanib, tanqidiy fikrlashni o'rganadilar. Ushbu tanqidiy fikrlash qobiliyatlar ularga o'rgananganlarini umumlashtirish va boshqa mavzularda qo'llash imkonini beradi.



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sinfda zerikish va mashg‘ulotlardan voz kechish bilan kurashish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi, u ham ijodiy, ham o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga javob beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rodger W. Bybee, Joseph A. Taylor, April Gardner, Pamela Van Scotter, Janet Carlson Powell, Anne Westbrook, and Nancy Landes "the BSCS 5 E Instructional Model: Origins, Effectiveness, and Applications" 2006.
2. Trilling, Bernie, Fadel, Charles. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. - Jossey-Bass, 2009
3. Robinson, Ken. Out of Our Minds: Learning to be Creative. - Capstone, 2011.
4. Costa, Arthur L., Kallick, Bena. Learning and Leading with Habits of Mind: 16 Essential Characteristics for Success. - ASCD.



## SOLO TAKSONOMIYASI YORDAMIDA TALABALARNING FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**F.A.XAMROYEVA,**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Geografiya kafedrasini mudiri, dotsent*

*Ushbu maqolada SOLO taksonomiyasi yordamida talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, SOLO taksonomiyasining yaratilishi, bilimlarni tushunish darajalari hamda «Ekologik muammolar» mavzusini SOLO taksonomiyasining bosqichlariga asoslanib o‘rgatilishi to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *SOLO taksonomiyasi, qobiliyat, daraja, modernizatsiya, Ekologik muammolar, Bloom taksonomiyasi, samaradorlik, tadqiqot.*

*В данной статье представлена подробная информация о развитии навыков мышления учащихся с использованием таксономии СОЛО, создании таксономии СОЛО, уровнях понимания знаний и преподавании темы «Проблемы окружающей среды» на основе этапов таксономии СОЛО.*

**Ключевые слова:** *таксономия СОЛО, способности, уровень, модернизация, экологические проблемы, таксономия Блума, эффективность, исследования.*

*This article provides detailed information about the ways to develop students' thinking skills using the SOLO taxonomy, the creation of the SOLO taxonomy, the levels of understanding of knowledge, and teaching the topic «Environmental Problems» based on the stages of the SOLO taxonomy.*

**Key words:** *SOLO taxonomy, abilities, level, modernization, environmental problems, Bloom's taxonomy, effectiveness, research.*

Bugungi kunda jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish va kelajakda muvaffaqiyatli, ijtimoiy faol va innovatsion fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash maqsadida ta'lim jarayonida talabalar mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O‘zbekistonda ta'lim tizimi xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘lishi va zamonaviy talablarga mos ravishda yangilanishi davom etmoqda. Shu bilan birga, ta'limda innovatsion metodlarni qo‘llash, interaktiv o‘qitish usullarini joriy etish va talabalarga mustaqil fikrlashni o‘rgatish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish hamda ilg‘or ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali



ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida, 2019-yil 8-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan farmon bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi» yangi islohotlar uchun asosiy dasturiy hujjat sifatida xizmat qilmoqda [1]. Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda yuqori malakali va innovatsion fikrlovchi kadrlarni tayyorlash orqali iqtisodiyot va ijtimoiy soha taraqqiyotiga hissa qo‘shish ko‘zda tutilgan. Innovatsion ta’lim metodlari, jumladan, interaktiv o‘qitish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalar o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini egallashadi, bu esa ularni kelajakda raqobatbardosh va ijtimoiy faol shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi

Talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Talabalarga faqat ma’lumot berish emas, balki ularni tahlil qilish, sintez qilish va masalalarni yechish qobiliyatlarini oshirish zarur. Talabalar fikrlash qobiliyatlarini yaxshilash uchun tanqidiy, ijodiy, analitik va metakognitiv yondashuvlarni birlashtirish kerak. Har bir yondashuvning o‘ziga xos metodlari orqali talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishdan tashqari, mustaqil ravishda o‘ylash, tahlil qilish va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vositalardan biri SOLO taksonomiyasidir. SOLO (Structure of the Observed Learning Outcome) taksonomiyasi talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning bilim va tushunchalarni qanday darajada tushunishini hamda qo‘llashini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu taksonomiya talabalarning o‘quv jarayonidagi bilimlarini tuzilishga asoslangan holda baholash imkonini beradi.

SOLO taksonomiyasini avstraliyalik pedagog John Biggs va Kevin Collis 1982 yilda ishlab chiqqan. SOLO taksonomiyasi talabalarning ta’lim olish jarayonida erishgan natijalarini aniqlash va tasniflash uchun yaratilgan. Taksonomiya asosan talabalarning fikrlash va tushunish darajalarini baholashga qaratilgan. 1970-1980-yillarda o‘qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilarga talabalar bilim darajasini aniqlash va ularga mos ta’lim metodlarini tanlash uchun yangi usullar zarur bo‘ldi. Talabalarni faqat testlarda qaysi javobni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri berganini o‘lchash o‘rniga, ularning to‘liq tushunishi, fikrlash jarayoni va bilimni qanday tashkil etishlari ham hisobga olinishi kerak edi. John Biggs va Kevin Collis o‘z ilmiy ishlari orqali talabalarning bilim darajasini qanday tasniflash va ularni qanday



o'lchash kerakligini tushunishga harakat qilishdi. Ular taksonomiyasini yaratishda talabalarning bilimlarini yanada chuqurroq o'rganishga, ayniqsa, bilim va tushunchalarni bir-biri bilan qanday bog'lashini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratdilar [3].

Biggs va Collis o'zlarining tadqiqotlari davomida talabalarning bilimlarini faqat o'zlashtirish (yodlash) darajasida qoldirishdan ko'ra, ularning bilimni qanday qo'llashi va yangilanishi haqida chuqurroq o'ylashni talab qilish zarurligini tushundilar. SOLO taksonomiyasida bilim darajalari (bosqichlar) shunday shakllangan: ularning har biri talabaning ma'lumotni qanchalik chuqur tushunishini ko'rsatadi.

SOLO taksonomiyasida talabalar ma'lum bir mavzuni o'rganayotganda qanday qilib alohida qismlarni birlashtirish va tizimli tarzda fikr yuritishlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Taksonomiya talabalarning bilimlarini oddiy faktlar va tushunchalardan tortib, murakkab va kengaytirilgan fikr yuritishlarga o'tishini yoritadi. Talabalar o'z bilimlarini har bir yangi bosqichda kengaytirib, ularga yangi nuqtai nazardan qarashni o'rganadilar. Bu taksonomiya rivojlanayotgan tushunchalar va o'qituvchilar uchun yangi strategiyalarni taklif qiladi.

Biggs va Collis SOLO taksonomiyasida bilimlarni tushunish darajalarini besh bosqichga ajratganlar:

1. Prestructural (Dastlabki daraja): Talaba ma'lumotni faqat yuzaki qabul qiladi, ma'lumotni to'liq va chuqur tushunish darajasiga ega bo'lmaydi.

2. Uni-structural (Bitta struktura): Talaba faqat biror bir jihatni tushunadi, ammo turli elementlarni bir-biri bilan bog'lashda qiynaladi.

3. Multi-structural (Bir nechta struktura): Talaba bir nechta alohida jihatlarni tushunadi, lekin ularni bir tizimda birlashtirish va o'zaro bog'lashni bilmaydi.

4. Relational (Bog'lanishli): Talaba turli jihatlarni o'zaro bog'lab, yanada murakkab va tizimli tushunchalar hosil qiladi.

5. Extended abstract (Kengaytirilgan abstrakt): Talaba keng qamrovli va abstrakt fikrlashni amalga oshiradi, yangi tamoyillarni ishlab chiqadi hamda o'rgangan bilimlarini yangi va murakkab kontekstlarda qo'llaydi [2].

Har bir bosqich talabaning fikrlash darajasini ko'rsatadi, shuning uchun SOLO taksonomiyasi talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Talabalar bilim, ko'nikma va tushunchalarni bosqichma-bosqich va tizimli



ravishda egallashlari SOLO ta'lim bosqichlarining asosiy qismini tashkil etadi. SOLO taksonomiyasining dastlabki bosqichlari talabalardan faktlarga asoslangan bilimlarning mustahkam poydevoriga ega bo'lishni, aniq dalillar va g'oyalarni kontseptual asosda tushunishni, shuningdek, bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq etishni osonlashtiruvchi usullarda tashkil qilishni talab qiladi. Bunga erishish uchun o'qituvchilar ko'proq vaqtni qisqa mavzularni chuqurroq o'rgatishga ajratishlari kerak. Bu o'qituvchilardan eng muhim tarkibiy qismlarni tanlash, shuningdek, talabalarni o'rganishning yuqori darajalariga erishish uchun yetarli fan bilimlari va pedagogik ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. [4]

SOLO taksonomiyasining asosiy g'oyasi shundaki, talabalarning biror mavzuni qanchalik yaxshi o'zlashtirganini faqat faktlarni bilish orqali emas, balki ularni qanday tushunish va qanday qo'llash orqali ham baholash mumkin. O'rganishni kognitiv bosqichlarga ajratuvchi Bloom taksonomiyasidan farqli o'laroq, SOLO taksonomiyasi asosiy e'tiborni tushunish sifatini baholashga qaratadi va o'quv maqsadlari hamda vazifalarini yanada aniqroq shakllantirish imkonini beradi. SOLO taksonomiyasi talabalarni quyidagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiradi:

– Tushunish darajasi: SOLO taksonomiyasi talabalarning bilimlarni qanday tushunishi va ularni qanday tartibda o'zlashtirishini baholaydi. Bu o'z navbatida talabalarning chuqurroq fikrlashini va ma'lumotlarni nafaqat eslab qolish, balki tushunish va qo'llashga qodir bo'lishini ta'minlaydi.

– Tanqidiy fikrlash: Taksonomiya yordamida talabalarning fikrlash darajasi nafaqat oddiy yodlashdan iborat bo'ladi, balki ularni muammolarni hal qilishga va ularni chuqur tahlil qilishga yo'naltiradi.

– Ijodiy fikrlash: SOLO taksonomiyasining yuqori darajalarida talaba mavjud bilimlarni yangi kontekstlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Extended Abstract bosqichiga erishgan talaba, oldindan o'rgangan tushunchalarni murakkab vaziyatlarda, innovatsion usullarda qo'llashga qodir bo'ladi.

– Muammolarni hal qilish: SOLO taksonomiyasi talabalarni bilimlarini mustahkamlash va qo'llashda, shuningdek, muammolarni hal qilishda ham samarali usul hisoblanadi. Talabalarni bilimlarini real hayotga tatbiiq qilishga undash, ularning fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Quyida «Ekologik muammolar» mavzusini SOLO taksonomiyasining bosqichlariga asoslanib, qanday o'rgatish mumkinligini ko'rib chiqamiz:



Pre-structural	Uni-structural	Multi-structural	Relational	Extended abstract
Talaba ekologik muammolar haqida faqat umumiy tushunchaga ega, lekin ular haqida chuqurroq fikrlashga qodir emas	Talaba ekologik muammolardan faqat bir jihatni tushunadi	Talaba bir nechta alohida ekologik muammolarni tushunadi, lekin ularni bir tizimda bog'lashni bilmaydi	Talaba ekologik muammolarni o'zaro bog'lab, murakkab tushunchalarni hosil qiladi	Talaba ekologik muammolarni keng qamrovli va abstrakt fikrlash orqali tushunadi, yangi tamoyillar yaratadi va o'rgangan bilimlarini yangi kontekstlarda qo'llaydi.
<b>Misol:</b> Talaba global ifloslanish yoki iqlim o'zgarishi kabi ekologik muammolarni eshitgan, lekin ularning sabablarini va oqibatlarini tushunmaydi	<b>Misol:</b> plastik chiqindilarning tabiatga ta'siri haqida ma'lumotga ega, lekin ularning iqlim o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunmaydi.	<b>Misol:</b> Talaba ekologik ifloslanishning turlarini (havoning, suvning ifloslanishi, qishloq xo'jaligi ifloslanishi va h.k.) biladi, lekin ularning o'zaro bog'lanishi va umumiy ta'sirini tushunishga qiynaladi	<b>Misol:</b> Talaba turli ekologik muammolarni masalan, iqlim o'zgarishi, ekologik ifloslanish va tabiiy resurslarning kamayishini bir-biriga bog'lab, bu muammolarning o'zaro aloqalarini va global o'zgarishlarga ta'sirini tushunadi.	<b>Misol:</b> Talaba ekologik muammolarni hal qilish uchun yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi, masalan, ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida yangi texnologiyalar yoki strategiyalarni taklif qiladi va ularni iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik jihatlarini hisobga olgan holda baholaydi.
<b>Savol:</b> Ekologik muammo haqida bilasizmi? (Tushuncha darajasida savol)	<b>Savol:</b> Plastik chiqindilarning tabiiy muhitga ta'sirini tushuntiring	<b>Savol:</b> Havo va suv ifloslanishining sabablarini va oqibatlarini taqqoslab, ularning bir-biriga ta'sirini tushuntiring.	<b>Savol:</b> Iqlim o'zgarishi va ekologik ifloslanishning bir-biriga ta'sirini va bu muammolarning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini qanday tushuntirasiz?	<b>Savol:</b> Yangi ekologik strategiyalar yoki texnologik yechimlar yordamida global ekologik muammolarni hal qilishning yangi yo'llarini tavsiflang



Ekologik muammolar mavzusida SOLO taksonomiyasini qo'llash orqali talabalar birinchi bosqichlardan (oddiy ma'lumotlarni bilish) murakkab, tizimli tahlil qilish va yangi yechimlarni ishlab chiqishgacha bo'lgan rivojlanish jarayonini amalga oshirishlari mumkin. Bu jarayon talabalarni nafaqat ekologik bilimlar bilan tanishtiribgina qolmay, balki ularni amaliy va ijtimoiy masalalarni yechishda chuqur fikrlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, SOLO taksonomiyasining talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda o'rni va ahamiyati aniq ko'rindi. Ushbu taksonomiya yordamida talabalarning fikrlash darajasini aniqlash va ularni yuqori darajadagi tafakkurga yo'naltirish mumkin. Taksonomiya ta'lim jarayonida qat'iy o'qitishdan tashqari, talabalarga o'z bilim va ko'nikmalarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. SOLO taksonomiyasining qo'llanilishi o'qituvchilarga har bir talabani shaxsiy yondashuv orqali rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, bu yondashuv talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi va ularga yuqori darajadagi tahlil, sintez va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Farmoni, PF-5847-son
2. Biggs, J. & Collis, KF (1982). Assessment of the quality of education: Solo taxonomy (observed learning structure of results). New York: Academic the press.
3. Biggs, J. va Collis, K. (1989). SOLO taksonomiyasidan foydalangan holda maktabda o'quv dasturlarini ishlab chiqish va baholash modeliga. Avstraliya ta'lim jurnali, 33(2), 151-163
4. Heather Clements SOLO Taxonomy for Deepening the Learning Journey Volume 8.2 & 8.3 n Creative Teaching & Learning. pp. 78-88 <https://www.teachingtimes.com/solotaxonomy/>



## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI O‘QUVCHILARDA 4K KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY - PEDAGOGIK ZARURIYATI

**Q.A.ABDIYEVA,**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti,  
Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va  
medikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Barchamizga ma‘lumki, barcha sohalarda o‘zgarishlar, jumladan, maktabgacha ta‘lim va boshlang‘ich ta‘limda yangi metodika, modellarning o‘rni, bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda 4K ko‘nikmalarini o‘rni, zamonaviy ta‘limning muammolari ko‘rib chiqilgan. Boshlang‘ich ta‘limda 4K ko‘nikmalarini joriy etishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, boshlang‘ich ta‘limning xususiyatlari va imkoniyati, ulardan oqilona va samarali foydalanish talablari keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** 4K ko‘nikmalari, rivojlantirish, ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, funktsiyaning yoritilishi, tizim, mohiyat, darslik, o‘quv materiallari integratsiyalashgan ta‘lim.

*As we all know, changes in all areas, including new methodologies in preschool and primary education, the role of models, the role of 4K skills in the training of future primary school teachers, and the problems of modern education are considered. The socio-pedagogical necessity of introducing 4K skills in primary education, the features and possibilities of primary education, and the requirements for their rational and effective use are presented.*

**Key words:** 4K skills, development, socio-pedagogical necessity, clarification of the function, system, essence, textbook, educational materials integrated education.

*Все мы знаем, что происходят изменения во всех сферах, в том числе новые методы в дошкольном и начальном образовании, роль моделей, роль навыков 4К в подготовке будущих учителей начальных классов, рассматриваются проблемы современного образования. Представлены социально-педагогическая необходимость внедрения навыков 4К в начальное образование, особенности и возможности начального образования, требования к их рациональному и эффективно использованию.*

**Ключевые слова:** навыки 4К, развитие, социально-педагогическая потребность, уточнение функции, система, сущность, учебник, учебные материалы интегрированного образования.

Ilm san‘atlar kabi, madaniyat va obodonchilikka tobe bo‘ladi. Madaniyat taraqqiy etgan sari ilm ham taraqqiy etadi, obodonchilik, faravonchilik oshgan sari mo‘tabar ilmga ehtiyoj ko‘payadi. Dars berish usuliga rioya etsih o‘qituvchining faxrli burchi sanaladi. Bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-



pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish orqali ilmiy, pedagogik, metodik tayyorgarligini, sohaning raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida zamonaviy raqamli ta‘lim transformatsiyasi sharoitlariga moslashtirish va mazmunan yangilash, zamonaviy ta‘lim imkoniyatlarini orttirish sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilib borilmoqda. Xozirgi vaqtda, zamonaviy ta‘lim tendensiyalariga muvofiq kompetensiyali yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish, ilmiy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirish, kasbiy faoliyatda kompetentli-yo‘naltirilgan texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini orttirish muammosi alohida dolzarblik kasb etdi.

Bilamizki, yoshlarni intellektual qobiliyatlarini shakllantirish, ularni ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ta‘lim tizimini isloh qilish, dars jarayonlariga yangi metodlar va texnologiyalarni targ‘ib etilishi natijasida dars sifatini oshirishga erishish mumkin. Bugungi kundagi muammoli masalalardan yana biri talabalarni XXI asr talablariga javob beradigan aqliy yetuk, dunyoqarashi keng kabi sifatlarini ularda aks ettirishdan iborat. Shunday ekan ta‘lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni, yangi didaktik vositalarni qo‘llash, yoshlarni yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirish va boshqalar nazarda tutiladi. Vatan kelajagi va istiqboli yo‘lida ko‘plab buyuk ishlarni amalga oshirish yoshlarimiz oldida turgan ulkan vazifalardandir.

Hozirda ta‘lim berishda bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish sifatini yanada oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash borasida ko‘plab faoliyatlar olib borilmoqda. Aytishimiz joizki, bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy-pedagogik mahoratlarini rivojlantirish uchun pedagogik va ilmiy bilimlar integratsiyasini ta‘minlash bugungi kunning eng dolzarb mavzusidir. Kelajak avlodimizni yetuk mutaxassis bo‘lib ulg‘ayishida, bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida ilmiy bilimlar kesimini fanga oid tushunchalar tizimini innovatsion usulda ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Hozirgi kunda, talabalarga beriladigan nazariy manbalar mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishish, oliy ta‘lim muassasasida boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida bo‘lajak mutaxassisning egallagan bilim darajasi bilan Davlat ta‘lim standartidagi malaka talablarining mazmuni hamda uning hajmiga qo‘yilayotgan talablar va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik



kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini amalga oshirish darajasi o'rtasida; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik rivojlantirish jarayonida ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda oliy ta'lim faoliyati bilan talabani faoliyat jarayonini rivojlantirish mexanizmi va qonuniyatlari o'rtasida; bo'lajak boshlang'ich ta'lim mutaxassislarni tayyorlashda ularning kasbiy hamda metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonida o'qitish shakllarida qo'llanilayotgan an'anaviy hamda innovatsion metodlar o'rtasida; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish borasida umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan bog'liq holda yetarlicha foydalanilmayotganligi o'rtasida; oliy ta'lim muassasalarida o'quv rejalaridan o'rin olgan fanlar hamda mazmuni o'rtasidagi ziddiyatlarni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq sanaladi.

Shunday ekan oliy ta'lim muassasalarida barcha o'quv faoliyat harakatli, hayotiy ko'nikmalarga boy tarzda qurilishi kerak. Shunda talabalar ta'lim jarayonining jonli ishtirokchisi bo'lishi kerak. Sir emas, bugungi kunda ayrim talabalarning dars davomida borligi ham bilinmaydi. Shu talabalarni darsga jalb qilish, ularni mavzuga bo'lgan qiziqishlarini oshirish muxim sanaladi.

Har bir bo'lajak boshlang'ich ta'lim mutaxassislari bo'yicha mavjud bilimlaridan tashqari o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya o'qitish metodikalariga doir zarur metodik bilimlarni egallagan bo'lishlari kerak. Ana shularni e'tiborga olgan holda, yosh pedagoglarning 4k ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy masalalar quyidagicha belgilandi:

– o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik texnologiyalarni shakllantirish;

– ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakkurni shakllantirish;

– o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash;

– o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash.

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqqan holda, o'qituvchilik faoliyati uchun ba'zi muhim shaxsiy belgilovchilar – empatiya, bag'rikenglik, nizolarga moyillik boshqalar bilan o'zaro munosabatlarning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida ta'kidlangan. Xammamizga ma'lumki, allaqachon o'qituvchilik kasbining murakkabligini va o'qituvchining psixologik ijtimoiy salomatligini



saqlash zarurligini ta'kidlaganlar. O'qituvchining xatti-harakati ko'p jihatdan shaxsning nizolarga moyillik darajasiga bog'liq - bu nizolarga kirish chastotasini aks ettiruvchi xususiyat. Agar o'qituvchi yuqori darajadagi ziddiyatga ega bo'lsa, u nizolarni keltirib chiqaradi, bolalar o'rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, mashhur donishmandlardan biri: «Bolalaringizni o'z zamoningiz uchungina emas, kelajak zamon odamlari qilib voyaga etkazingiz, chunki ular kelajak zamon odamlari bo'lishi uchun dunyoga kelganlar», – degan. Uning bu so'zi juda ham ulug' so'zdir. Bunday to'g'ri, ma'noli so'zni aytish ota-ona, muallim va aqlli, sof, pok ko'ngilli zotlargagina muayassar bo'la oladi. Bu zotlar bunday ma'noli so'zni o'zlariga qo'llanma qilib olib, bolalarini shu qoida bo'yicha tarbiyalashga kiritishadi. Ma'sum, sof, pok yosh o'smirlar jamiyatning qoni, jamiyat esa bir jismdir. Agar qon buzilsa, albatta jism kasallanadi. Yoshlar ilmni egallashmasa, hech shubhasiz mana shu jism halokatga uchraydi. Har kim bilan go'zal muomalada bo'lib, tinch va totuvlik bilan yashash yo'lini bilishni muoshirat odobi deyiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika (darslik) -T.: 2009 y.
2. Mavlonova R., Vohidova N.X. Ijtimoiy pedagogika (o'quv qo'llanma) -T.: 2009 y.
3. Sh. Egamberdiyev, A. Maxmudov, R. Tojiboyev. «4k ko'nikmalarini baholash rubrikalari», - Toshkent, 2024-yil.
4. Галагозова М.А. Социальная педагогика (Учебное пособие) -М.2000 г.
5. Mavlonova R., Vohidova N.X., Rahmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma) -T.Fan va texnologiyalar: 2010 y
6. Ishmuhamedov R. Abduqodirov A. Pardayev A. «Ta'limda innovatsion texnologiyalar» -T. 2008-yil.



## OLIV TA'LIM TIZIMIDA INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA MENEJMENT TA'LIMINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

**SH.A.ARIPOVA,**  
TDIU tadqiqotchisi

*Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida individual yondashuv asosida menejment ta'limini shakllantirishning pedagogik mazmuni o'rganilgan. Talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini moslashtirish tamoyillari, shuningdek, individual rivojlanish trayektoriyasini tashkil etishning metodik jihatlari tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarini amalda qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish va kasbiy malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so'zlar:** individual yondashuv, rivojlanish trayektoriyasi, o'quv jarayonini moslashtirish, menejment ta'limi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

*В статье рассматривается педагогическое содержание формирования обучения менеджменту на основе индивидуального подхода в системе высшего образования. Анализируются принципы адаптации учебного процесса с учетом индивидуальных потребностей, способностей и интересов студентов, а также методические аспекты построения индивидуальных траекторий развития. Данный подход играет важную роль в применении принципов лично-ориентированного обучения, повышении эффективности образовательного процесса и подготовке квалифицированных специалистов.*

**Ключевые слова:** индивидуальный подход, траектория развития, адаптация учебного процесса, обучение менеджменту, лично-ориентированное обучение.

*This article explores the pedagogical content of forming management education based on an individual approach in higher education. The principles of adapting the educational process to the individual needs, abilities, and interests of students, as well as the methodological aspects of building individual development trajectories, are analyzed. This approach plays a vital role in implementing student-centered education principles, enhancing educational effectiveness, and preparing qualified professionals.*

**Key words:** individual approach, development trajectory, educational process adaptation, management education, student-centered education.

Hozirgi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, talabalar uchun shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish va ularni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, menejment ta'limi sohasida bu jarayon muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy boshqaruv



tamoyillarini talabalarga o'rgatish va ularda analitik fikrlash, qaror qabul qilish ko'nikmalari, ijodkorlik kabi sifatlarni rivojlantirish zarurati tug'ilmoqda. Shu nuqtai nazardan, individual yondashuv asosida menejment ta'limini shakllantirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmogda.

Mazkur maqolada individual yondashuvning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, uning menejment ta'limida qo'llanish tamoyillari hamda pedagogik mazmuni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, menejment bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda individual yondashuvni amalga oshirishning uslubiy va amaliy jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Ushbu izlanishlar talabalarning shaxsiy ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratish, innovatsion yondashuvlar orqali menejment sohasidagi kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish va jamiyat talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashga ko'maklashishni maqsad qilgan.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda ta'lim jarayonini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida menejment bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda individual yondashuvning ahamiyati ortib bormogda. Ushbu maqolada individual yondashuv asosida menejment ta'limini shakllantirishning pedagogik mazmuni, uning asosiy tamoyillari hamda uslubiy yondashuvlari tahlil qilinadi.

Individual yondashuv talabalarning o'ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va o'quv jarayonidagi ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ta'limni tashkil etish va boshqarishni o'z ichiga oladi. Menejment ta'limida bu yondashuv talabalarning analitik fikrlash, liderlik qobiliyatlari va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning pedagogik mazmunini aniqlashda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Individual rivojlanish trayektoriyasi (IRT) ta'lim jarayonida har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va maqsadlariga mos ravishda o'qitishni tashkil etish yo'nalishidir. Bu yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy qismi bo'lib, talabalar bilim olish jarayonida o'ziga xos mustaqil yo'nalishga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ayniqsa, menejment ta'limida IRT talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini birlashtirish, individual qobiliyatlarni rivojlantirish hamda kelajakdagi professional faoliyat uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

IRTni samarali shakllantirishda quyidagi jihatlar hisobga olinishi lozim:

Talabalar qobiliyatlarini, bilim darajasini va o'quv ehtiyojlarini aniqlash uchun diagnostik metodlardan foydalaniladi. Bunda testlar, suhbatlar, psixologik baholash vositalari va portfoliodagi avvalgi yutuqlar tahlil qilinadi. Bu bosqich individual ta'lim yo'nalishini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



Har bir talaba uchun moslashtirilgan o'quv rejasi ishlab chiqiladi. Bu rejada nazariy fanlar, amaliy mashg'ulotlar, loyiha ishlari va mustaqil o'rganish elementlari kiritiladi. Reja talabani qiziqishlari va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mos holda tuzilishi lozim.

Ta'lim jarayonida moslashuvchan uslublar va texnologiyalardan foydalanish orqali har bir talabaga individual e'tibor qaratiladi. Masalan, raqamli ta'lim platformalari yordamida mustaqil o'qitish yoki guruhlarda loyiha asosida ishlash imkoniyatlari yaratiladi.

Talabani rivojlanish trayektoriyasini muntazam kuzatib borish, o'zlashtirish darajasini baholash va kerak bo'lsa o'quv rejasiga o'zgartirishlar kiritish jarayonining ajralmas qismidir. Bu orqali o'quv jarayonining samaradorligi ta'minlanadi.

Har bir talaba uchun mentor yoki maslahatchi tayinlash orqali rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Mentorlar talabalarga individual rivojlanish yo'nalishini belgilashda, maqsadlarini aniqroq aniqlashda va ularga erishishda yordam beradi.

IRT ta'lim jarayonini talabalar uchun yanada samarali va qiziqarli qilish bilan birga, ularni mustaqil fikrlashga, o'z maqsadlarini aniqlash va ularga erishish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqishga o'rgatadi. Bu esa nafaqat menejment ta'limi, balki boshqa sohalar ham yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir talabaga o'ziga xos o'quv rejasi va individual rivojlanish yo'nalishini belgilash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Buning uchun diagnostik metodlardan foydalangan holda talabalar qobiliyatlarini baholash lozim.

Menejment ta'limi mazmuni talabalarning shaxsiy ehtiyojlari va maqsadlariga mos ravishda shakllantirilishi zarur. Buning uchun moslashuvchan o'quv dasturlari, loyiha asosida o'qitish va boshqa innovatsion metodlardan foydalaniladi. Individual yondashuv samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pedagogik hamkorlik asosiy o'rinni tutadi. O'qituvchi maslahatchi va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sifatida har bir talabani o'z qobiliyatlarini maksimal darajada ochishga yordam beradi.

Raqamli ta'lim resurslari individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Onlayn kurslar, interaktiv platformalar va raqamli baholash tizimlari yordamida talabalarning o'quv jarayoniga moslashuvchan yondashuvni ta'minlash mumkin. Menejment ta'limida talabalar yutuqlarini baholashda faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikmalarni ham inobatga olish zarur. Bu jarayonda refleksiya, portfolio baholash va loyiha natijalarini tahlil qilish kabi uslublar qo'llaniladi.

O'quv jarayonini moslashtirish deganda talabalarning individual ehtiyojlari, bilim darajasi, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etish tushuniladi. Ushbu yondashuv ta'limni shaxsiga yo'naltirilgan shaklda



